Shuningdek, mehnat ta’limi jarayonida shaxsning ijobiy fazilatlari: mustaqillik, maqsadga yo‘nalganlik, boshlangan ishni oxiriga yetkazish qobiliyati, jamoaviylik hissi va shu kabilarni rivojlantirish vazifasi hal etiladi. Shaxsning ijobiy fazilatlarini rivojlantirishga mehnat ta’limi sharoitlarining o‘zi yordam beradi. Amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish shaxsning axloqiy shakllanishiga yordam beradi, uning axloqiy rivojlanishining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilariga mehnat tarbiyasi va ta’limi mehnat qilish ehtiyojini tug‘diradi, bajarayotgan ishiga mas’uliyat hissini, mehnatga ijobiy munosabatni rivojlantiradi.

O‘quvchilar tevarak-atrofdagi dunyoni aslida qanday bo‘lsa, shundayligicha mehnatda bilib oladilar. Bilimlarni mustahkamlash va tizimlashtirish orqali bola o‘z dunyoqarashini kengaytiradi. U o‘qishga qunt bilan kirishadi, texnikaga, ishlab chiqarishga qiziqa boshlaydi.

Shunday qilib, aqli zaif o‘quvchilarni mehnat ta’limi va tarbiyasi ko‘pgina vazifalarni hal etishni ta’minlaydi, ulardan asosiysi - maktab bitiruvchilariga kelgusi mustaqil hayotda unumli mehnatda muvaffaqiyatli ishtirok etish imkonini beradigan mehnat ko‘nikmalari, malakalari va shaxs sifatlarini shakllantirishdir.

**Adabiyotlar:**


1. https://znanio.ru/doklad-rol-trudovogo-vospitaniya-v-korrektsii-narushenij-u-vospitannikov-s-ovz.
2. https://www.prodlenka.org/metodicheskie-razrabotki/371501-dokladvospitanie-trudom-mladshih-shkolnikov-
3. Жидкина Т. С. Методика преподавания ручного труда в младших классах коррекционной школы VIII вида: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. - М.: Издательский центр «Академия», 2005. - 192 с.
4. Примерная адаптированная основная общеобразовательная программа образования обучающихся с умственной отсталостью (интеллектуальными нарушениями) // ОДОБРЕНА решением федерального учебно-методического объединения по общему образованию (протокол от 22 декабря 2015 г. № 4/15)
5. Титова, Я. Б. Уроки трудового обучения для детей с ограниченными возможностями здоровья: опыт работы // Школьная педагогика. - 2019. - № 3 (16). - С. 8-11.


## ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNI O‘QITISH VA TARBIYALASHGA YANGICHA YO‘NALISHLAR


**A.J. Tajmuratov - Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika insitititutining Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi**
**M.H. Otaboyeva - Ajiniyoz nomidagi nukus Davlat pedagogika insititutining Maxsus pedagogika: Logopediya ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi**


Hozirgi zamon ta’lim tizimi, xususan, O‘zbekistonda barcha bolalarning teng huquqli ta’lim olishini ta’minlashga qaratilgan. Ayniqsa, alohida yordamga muhtoj bolalarni o‘qitish va tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020-yil) hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori ijrosi“asosida ushbu

bolalarga nisbatan adolatli va teng imkoniyatli yondashuv huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Shu asosda inklyuziv ta’lim konsepsiyasi joriy etilib, alohida ehtiyojli bolalar umumiy ta’lim muassasalarida boshqa tengdoshlar bilan birgalikda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

2025-yilgacha ta'limga muhtoj bolalar uchun maxsus ta'limni rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari. Kontseptsiya ikki bosqichda amalga oshirilmoqda.

| **1-bosqich (2020-2022)** | **2-bosqich (2023-2025)** |
|---|---|
| normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;<br>malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;<br>moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va muassasalarni maxsus jihozlar (ko‘tarish moslamalari, panduslar, panjaralar va boshqalar), zarur adabiyotlar, o‘quv qurollari, turli kasb-hunar egalari uchun jihozlar va o‘quv qurollari bilan ta’minlash;<br>zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni amalga oshirish. | inklyuziv ta’lim tizimini boshqa umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatiga bosqichma-bosqich joriy etish;<br>har bir alohida bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;<br>o‘qitish uslublarini takomillashtirish va o‘quv jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish;<br>ma’naviy-axloqiy tarbiya hamda jismonan sog‘lom va baquvvat o‘quvchilarni shakllantirishga qaratilgan. |

Bugungi kunda alohida yordamga muhtoj bolalarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Ular orasida differensial yondashuv, vizual ko‘mak vositalari, loyihaviy o‘qitish, muammoli ta’lim usullari alohida o‘rin tutadi. Bu usullar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, qiziqishi va faolligini oshiradi..

Alohida yordamga muhtoj bolalarni tarbiyalashda ota-onalar bilan hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Maxsus pedagogik xizmatlarda ota-onalar muntazam jalb etiladi, ularga maslahatlar, metodik tavsiyalar beriladi. Oilaning ruhiy qo‘llab-quvvatlovi bolaning rivojlanishiga kuchli turtki bo‘ladi.

Yana bir yangicha yo‘nalish bu — AKTdan (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) foydalanishdir. Maxsus ta’limga mo‘ljallangan interaktiv platformalar, audio-video darslar, virtual treninglar alohida ehtiyojli bolalarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Masofaviy ta’lim shakllari ham joriy

etilib, uydan chiqmasdan o‘qish imkoniyati yaratilmoqda. Va nihoyat, ushbu sohada ishlaydigan kadrlarning tayyorligi alohida e’tibor talab etadi. Shu sababli maxsus pedagogika sohasida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda

Inklyuziv ta’lim jarayonini psixologik va pedagogik qo‘llab-quvvatlashning asosiy prinsiplari;

1. Shaxsga yo‘naltirilganlik prinsipi; Har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari, rivojlanish sur’ati va imkoniyatlari inobatga olinadi. Shaxsiy rivojlanishga xizmat qiluvchi yondashuvlar qo‘llaniladi.

2. Differensial va individual yondashuv prinsipi; O‘quvchilar uchun moslashtirilgan dasturlar, metodlar va baholash vositalari qo‘llanadi. Har bir bola uchun alohida rivojlantiruvchi strategiyalar ishlab chiqiladi.

3. Hamkorlik va jamoaviy ish prinsipi; Pedagog, psixolog, defektolog, logoped va ota-onalar o‘rtasida samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi. Ko‘p tarmoqli mutaxassislar jamoasi (multidissiplinar yondashuv) faol ishtirok etadi.

4. Ijtimoiy integratsiya va inklyuzivlik prinsipi; Maxsus ehtiyojli bolalar umumiy sinf jamoasiga moslashtiriladi, ular ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga tayyorlanadi.

5. Qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish prinsipi; Emotsional-psixologik jihatdan qulay, xavfsiz va motivatsion muhit yaratiladi. Bunday muhitda bola o‘zini erkin va qadrli his qiladi.

6. Uzliksizlik va izchillik prinsipi; Psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash barcha bosqichlarda — boshlang‘ich, o‘rta va yuqori sinflarda izchil davom ettiriladi.

7. Moslashuvchanlik va yangilanishga ochiqlik prinsipi; Ta’lim metodlari, materiallar va texnologiyalar bolaning ehtiyojiga qarab doimiy takomillashtirib boriladi.

**V.I. Lubovskiy (Rossiya defektologi olimi)** “Alohida yordamga muhtoj bolalar uchun yaratiladigan ta’lim muhiti ularning rivojlanishidagi cheklovlarni emas, balki imkoniyatlarni ochib berishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Inklyuziv ta’lim bu — faqat birga o‘qish emas, balki har bir bolaning o‘ziga xosligini hurmat qilish va qo‘llab-

quvvatlashdir.” (Lubovskiy V.I., “Psixologiya detey s ogranichennimi vozmojnostyami razvitiya”, 2018)

**T.A. Vlasova (Maxsus pedagogika bo‘yicha olima)** “Yangicha yo‘nalishlar — bu bolaga tayyor tizimga moslashishni emas, balki tizimni bolaning ehtiyojlariga moslashtirishni nazarda tutadi. Shu bois multidissiplinar yondashuv, individual rejalashtirish va psixologik-pedagogik monitoring asosiy mexanizmlarga aylanishi kerak.”(Vlasova T.A., “Sovremennye podxodyk obucheniyu deteys ”, 2019)

Xulosa qilib aytganda alohida yordamga muhtoj bolalarni o‘qitish va tarbiyalashda inklyuziv yondashuvni joriy etish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishiga aylanmoqda. Bu jarayonda har bir bolaning individual ehtiyojlarini inobatga olish, ularni teng huquqli ta’lim muhiti bilan ta’minlash va ijtimoiy integratsiyasini qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifalardandir. Psixologik va pedagogik qo‘llab-quvvatlashning tizimli yo‘lga qo‘yilishi, shaxsga yo‘naltirilgan, differensial yondashuvlar, hamkorlikdagi ish va qulay muhit yaratish orqali bu bolalarning intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga erishish mumkin. Inklyuziv ta’lim — nafaqat ta’lim tizimidagi islohot, balki insonparvarlik va adolat tamoyillariga asoslangan ijtimoiy jarayondir. Shu bois, ta’lim muassasalarida yangicha yondashuvlarni amaliyotga joriy etish dolzarb va zaruriy masala bo‘lib qolmoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.Filonov G. N. ijtimoiy pedagogika. Boshqariladigan potentsial va amaliy funktsiyalar. M.: Rao DSP, 1995 yil.

2.Firsov M. V., Studenova E. G. Ijtimoiy ish nazariyasi. M.: Vlados, 2001 yil

3.Nikitin V. A. ijtimoiy pedagogikaning boshlanishi: darslik. nafaqa. - M.: Flinta: Moskva psixologik va ijtimoiy instituti, 1998.

## TUG’MA AQLIY ZAIFLIK: TASHXIS, TARBIYA VA JAMIYATDAGI O’RNI

**H.K.Karimova, G.A.Otajonova**
**NDPI. Maktabgasha ta’lim fakulteti. Logopediya ta’lim yonalishi 1g-kurs talabalari**
***Ilmiy rahbar A.T.Saparov***

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda jamiyatimizda aqliy jihatdan nosog’lom insonlar ham istiqomat qiladi. Mamlakatimizda ular uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Aqliy jihatdan zaif bolalarni ta’limiga ham juda katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu maqolada aqliy zaiflik tushunchasi, uning sabablari, turlari va jamiyatdagi o’rni haqida so’z yuritiladi. Aqliy zaiflik bilan tug’iladigan bolalarning rivojlanishi,

ularni ta’lim-tarbiya jarayonlariga jalb qilish kabi ishlar tahlil qilinadi. Maqolada inklyuziv ta’lim tushunchasi va O’zbekistonda olib borilayotgan islohotlar haqida so’z boradi.

**Kalit so’zlar:** aqliy zaiflik, psixologiya, inklyuziv ta’lim, kasallik, meningit, ensefalit, homiladorlik davri, idrok, diqqat, korreksion, oligofreniya, idiotlik, debillik, embetsillik, pedogog, ta’lim-tarbiya.

Hozirgi vaqtda jamiyatimizda aqliy jihatdan zaif insonlar ham istiqomat qiladi. Ularning yashashi, ta’lim olishi davlat tamonidan kafolatlanadi. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar”. ”Aqlan zaiflik”-bu yig‘ma tushuncha bo‘lib, aqliy jihatdan qoloqlikning sodir bo’lgan vaqti, boshidan kechirilgan kasallikning harakteri, patologik o‘zgarishlarning o‘tishi, darajasi bilan bog'liq bo‘lgan masalalarni ko‘zda tutadi.

Bolalarda uchraydigan aqliy zaiflik kasalligi oligofreniya deyiladi. Uning sabablari: tug‘ruqning og‘ir o‘tishi, erta bolalik davrida o‘tkazilgan bosh miyaning og‘ir kasalliklari *(meningit, ensefalit),* bosh miya jarohatlari va qarindoshlar orasida turmush qurishdir. Homilador ayol aminokislotalar, glyukoza, vitaminlar va mineral moddalarga boy bo‘lgan oziq-ovqatlarni yetarli darajada iste’mol qilmasa ham aqliy zaif bola tug‘ilishi xavfi oshadi. Homilador ayolni ruhan ezaverish ham asabiy nosog‘lom bolaning dunyoga kelishiga sababchi bo‘ladi. Ba’zida oligofreniya sababini aniqlash qiyin.

**Belgilari**: aqliy zaiflik rivojlanayotganligi, odatda bola 2-3 yoshga yetganda ma’lum bo‘lib qoladi. Chunki bolaning nutqi 1yoshdan keyin chiqa boshlaydi. Ota-ona bolaning o‘z tengdoshlaridan orqada qolib borayotgani, harakatlari yo‘qligi, tili kech chiqayotganiga e’tibor qaratadi. Masalan, bola 3 yoshga yetsa ham nutqi rivojlanmay qoladi, o‘yinchoqlarga qiziqmaydi, ruhiy faolligi o‘ta sust bo‘ladi. Bunday bolalarning aksariyati jismonan nimjon ham bo‘lishadi. Oligofreniyaning og‘ir turlarida bolaning boshi kichik bo‘lib, uni tik tuta olmaydi. Bola 5-6 yoshga yetganda aqliy zaiflik belgilari yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning xatti-harakatlari 3-4 yashar bolaga o‘xshaydi, ba’zilari juda qaysar, yig‘loqi va o‘jar

bo‘lsa, boshqa birlari o‘ta sust bo‘lib, o‘yin-kulgili voqealarga sira e’tibor qilmaydi. Oligofreniyaning yengil turida bola gaplashadi, uydagi ishlarni bajaradi, ust-boshiga e’tibor qiladi, biroq aqliy faollikni talab qiluvchi ishlarda ularning ojiz ekanligi bilinib qoladi. Bunday bola bog‘cha va maktabdagi oddiy topshiriqlarni bajara olmaydi, oddiy arifmetik qo‘shish-ayirishlarda juda qiynaladi, uni tengdoshlari kalaka qilib yuradi. Shuning uchun ham oligoforeniya bilan kasallangan bola o‘zidan yosh bolalar bilan o‘ynashni xush ko‘radi. Necha yashar bolalar bilan o‘ynayotganiga qarab, uning aqliy rivojlanishdan necha yil orqada qolayotganini bilib olish mumkin.

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar psixologiyasi sog’lom rivojlanayotgan bolalar psixologiyasidan farq qiladi. Aqli zaif bolalarning diqqati tarqoq va idrok qilish qobilyati juda sust bo’ladi. Aqi zaif bolalar xotirasi juda sust rivojlangan bo’ladi,ammo ularning ham hotirasini rivovlantirish mumkin. Buning uchun ularga korreksion ishlar erta yo’lga qo’yilishi va to’g’ri olib borilishi kerak. Psixologiyadan malumki, inson xotirasini rivojlantirish uchun avvalo uning barcha bilish jarayonlari ustida ish olib borish lozim. Aqliy nuqsonning chuqurligiga qarab oligofreniya uch darajaga ajratiladi:  debillik, imbetsillik va idiotlik.

**Debillik**-birmuncha yengil daraja bo’lib, oligofreniyaning eng ko’p tarqalgan turidir. Yordamchi maktablarga bolalarni saralash vaqtlarida asosan shu bolalar bilan ish olib boriladi. Yordamchi maktab o’quvchilarining asosiy qismini ham debil bolalar tashkil qiladi. Bu bolalarni saralash vaqtida ham ma’lum qiyinchiliklarga duch kelinadi. Buning asosiy sababi shuki, aqliy nuqson u darajada chuqur emas. Bu bolalar umumlashtira oladilar. Bog’cha yoshi davrida predmetli, sodda mazmunli o’yinlarni tashkil qila oladilar. Maktab yoshi davrida esa ma’lum muayyan holatlarni baholay oladi, amaliy masalalarni yechishda to’g’ri ish tutadi. Nutqi asosan saqlangan bo’lib, mexanik xotirasi nisbatan yaxshi natijalar beradi. Bularning barchasi yordamchi maktab dasturi hajmidagi materiallarni muvaffaqiyatli o’zlashtirishga yordam beradi. Debil bolalarda yetarli harakatchanlik, ish qobiliyatlari saqlangan bo’ladi. Bu bolalarda nisbatan hissiyot-iroda sifatlari yaxshi saqlangani natijasida o’zlarini nazorat qilish imkoniyatlari mavjud. Yordamchi maktabning maxsus sharoitlar tufayli debil bolalar 9yil davomida ommaviy maktablar

boshlang’ich sinf hajmidagi o’quv materiallarini egallab, ma’lum ishlab chiqarish, kasb-hunar tayyorgarligini oladilar. Qator ijobiy xislatlarga qaramay, ma’lum darajada aqliy rivojlanmaganlik bu bolalarga ham xosdir. Bu bolalarning tafakkurlari ko’rgazma-obraz mazmunini kasb etadi. Tushunchalarning shakllanishi juda qiyin amalga oshadi. Umumlashtirish, taqqoslash jarayonlari juda qiyin kechadi. O’qilgan muayyan mazmunni qiyinchiliklar bilan o’zlashtiradilar.

**Embetsillik**- debil darajadan birmuncha og’ir darajadir. Aqliy nuqsonning imbetsillik darajasida oligofreniyaning o’ziga xos xususiyatlari va namoyon bo’lishi birmuncha yuqori ko’rinadi. Birinchi navbatda, bu muayyan holatlarda umumlashtira olmaslik, hatto oddiy tushunchalarni hosil qila olmasligi bilan ajralib turadi. Imbetsil bolalarning mantiqiy fikrlash jarayonlari juda past darajada bo’ladi. O’qigan materialning mazmunini ilg’ab ololmaydilar. Yordamchi savollar orqaligina qisman mazmunini tushunishlari mumkin. Ko’rish va eshitish analizatorlari qabul qilgan axborotlarni tahlil qila olmasligi natijasida harflarni eslab qolishda qiynaladilar, o’xshash tovushlarni bir-birlariga aralashtirib yuboradilar. Kitobdagi matnlarni mexanik ravishda o’qib, mazmunini tushuntira olmaydilar. Yordamchi savollar orqaligina qisman mazmunini tushunishlari mumkin. O’nggacha sanash, o’n ichida hisob kitob qilishlari mumkin. Lekin ularda murakkab son haqidagi tushunchalar yo’q. Ularning so’z boyligi kam bo’lib, nutqi ifodasiz, jumlalari qisqadir. Ular faoliyatlarida tashshabuskorlik, mustaqillikka intilish kabi shaxsiy xislatlar bo’lmaydi. O’zlarining mustaqqil ishlarini aqliy jihatdan tushuntirib bera olmaydilar. O’rgangan ish uslubi, malakalar o’zgartirilsa bu bolalar shoshib qoladilar. Shu sababli ularni hayotga moslashtirishda muntazam nazoratga, rahbarlikka va yordamga muhtojlik sezadilar. Ayrim ma’lumotlarni o’zlashtirish qobiliyatlarini ko’rish mumkin. Ba’zan soda jumlalarni tushuna oladilar, narsalarning sodda, umumiy belgilariga qarab ularning farqlarini bilishlari mumkin. Ularni o’qish, yozish va tartibli sanash elementlariga o’rgatish mumkin. Murakkablashmagan oligofreniyaning yengil va o’rta darajasidagi imbetsillar jismoniy mehnatning oddiy turlarini egallashlari mumkin. Imbetsillikning og’ir darajalarida ularni eng sodda ish turlariga ham o’rgatish mumkin emas.

**Idiotlik**- ular idroklarida qo’pol rivojlanmaganlik ko’rinadi. Atrof-muhitga bo’lgan munosabati mos emas. O’z shaxsini aniq bilmaydi. Tafakkuri esa deyarli yo’q. Ular o’zlariga qarab gapirilgan gapdan ko’ra mimika va yuz harakatlarini nisbatan ilg’ab oladilar. Idiotlar nutqi aqliy nuqson chuqurligiga bog’liq. Ular nutqi ma’nosiz tovushlardan, ba’zan alohida so’zlar yig’indisidan iborat bo’lishi mumkin. Hissiyotlari haddan tashqari sodda bo’lib, fiziologik xohishlar bilan bog’liqdir. O’zlarining xursandchiliklarini harakat, qichqirish, mimika harakatlari bilan namoyon etsalar, xafagarchiliklarini esa qaysarlik, o’z tana organlarini jarohatlash bilan ko’rsatishlari mumkin. Idiotlarning nisbatan yengilroq turlarida ijtimoiy hislarning saqlanganligini ko’rish mumkin.

**Xulosa:** Tug‘ma aqliy zaiflik — bu bolaning hayotining ilk bosqichlaridan namoyon bo‘ladigan, asosan markaziy asab tizimining rivojlanishidagi tug‘ma nuqsonlar natijasida yuzaga keladigan murakkab holatdir. Bunday bolalar nafaqat intellektual rivojlanishda, balki ijtimoiy moslashuv, hissiy holatni boshqarish, nutq va harakat faoliyatlarida ham muammolarga duch keladilar. Mazkur maqolada tug‘ma aqliy zaiflikning sabablari, belgilari, turlari hamda ularning jamiyatda tutgan o‘rni chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aqliy zaiflikning asosiy sabablari genetik buzilishlar, homiladorlik davridagi noqulay omillar, onaning kasalliklari yoki intoksikatsiyasi, tug‘ruq vaqtidagi jarohatlar va boshqa biologik-psixologik omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu holatlar bolaning miya faoliyatiga salbiy ta’sir etib, ularning normal rivojlanishini izdan chiqaradi. Jamiyatning bunday bolalarga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi, ularni ajratmasdan, aksincha qo‘llab-quvvatlashi, ijtimoiylashuvini ta’minlashi – insonparvarlik va taraqqiyot belgisi sifatida talqin qilinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**


- O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023
- O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida” gi Qonuni, 2020
- https://pedagogs.uz/ped/article/download/878/835/1657
- https://docx.uz/document/aqli-zaiflik-tushunchasining-evolyutsiyasi-dbcc49de?lang=uz
- https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/download/3737/5672/10526
- https://gujum.uz/salomatlik/bola-aqli-zaifligining-sababi-belgilari-va-davolash/
- https://lex.uz/uz/
- https://gujum.uz/
- https://pedagogs.uz/

# EMOTSIONAL HOLATLARNING UMUMIY PSIXOLOGIK TAHLILI VA SURDOPEDAGOGIK YONDASHUV.

**M. J.Safarboyeva, M.X. Shukurullaeva**
**NDPI. Marktabgasha ta'lim fakulteti. Surdopedagogika ta'lim yonalishi 1-kurs talabasi**
***Ilmiy rahbar: A.T.Saparov***

**Annotatsiya**:Ushbu maqolada emotsional holatlarning psixologik jihatlari va eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning hissiy rivojlanishiga surdopedagogik yondashuv orqali ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, bunday bolalarning emotsional barqarorligini ta'minlash usullari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zi:**Emotsional holat, psixologik tahlil, surdopedagogika, hissiy rivojlanish, bolalar psixologiyasi, pedagogik yondashuv, ijtimoiy moslashuv, barqarorlik, inklyuziv ta'lim.

**Kirish.** Har bir insonning emotsional holati uning psixologik barqarorligi, ijtimoiy muhitga moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun emotsional muvozanatni ta'minlash nafaqat psixologik, balki pedagogik yondashuvni ham talab etadi. Surdopedagogika sohasi ana shu ehtiyojlarga javoban, bunday bolalarning hissiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ularning ichki dunyosini tushunish va ijtimoiylashuv jarayonlarini yengillashtirishga yo'naltirilgan. Ushbu maqolada emotsional holatlarning psixologik tahlili hamda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda samarali surdopedagogik yondashuvlar yoritiladi.

**Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar —** tug'ma yoki orttirilgan sabablarga ko'ra eshitish qobiliyati pasaygan yoki yo'qolgan bolalardir. Ularning eshitishdagi cheklovlari og'zaki nutqni idrok etish, muloqot qilish va atrof-muhitdagi tovushli axborotga munosabat bildirish jarayoniga ta'sir qiladi. Bunday bolalar ko'pincha imo-tili, yozma muloqot yoki maxsus eshitish moslamalari yordamida axborot oladilar. Ular ham tengdoshlaridek ta'lim olish, muloqot qilish va ijtimoiy hayotda ishtirok etishga haqlidir. Shu bois ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan muhit, ta'lim resurslari va raqamli platformalar yaratilishi muhim hisoblanadi.

**Surdopedagogika** — bu eshitishda nuqsoni bo'lgan (kar va zaif eshituvchi) bolalarni o'qitish va tarbiyalash bilan shug'ullanuvchi maxsus pedagogika sohasi hisoblanadi. "Surdo" atamasi lotincha "surdus" — kar degan so'zdan olingan bo'lib,

bu soha eshitish qobiliyati cheklangan insonlar bilan ishlashda maxsus yondashuv va metodikalarni qo‘llashni nazarda tutadi. Surdopedagogika fani o‘z ichiga quyidagilarni oladi: eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning psixologik va jismoniy rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish; ularga moslashtirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish; nutq va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish; audiopedagogika, logopediya, maxsus psixologiya kabi fanlar bilan integratsiyada ishlash. Surdopedagogikaning asosiy maqsadi — eshitishdagi cheklovlarga qaramay, bolalarning intellektual va ijtimoiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ularni mustaqil hayotga tayyorlash va jamiyatga integratsiyalashishiga ko‘maklashishdir. Bu sohada ishlovchi mutaxassislar (surdopedagoglar) har bir bolaning eshitish darajasi, psixik rivojlanishi, emotsional holati va shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olib individual yondashuv asosida ta’lim-tarbiyani tashkil etadilar. Bunda nutqni rivojlantirish, imo-ishora tilini o‘rgatish, eshitish apparatlari va boshqa texnik vositalardan foydalanish muhim rol o‘ynaydi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda ko‘pincha kommunikativ cheklovlar kuzatiladi. Shu sababli surdopedagogik yondashuvda bolalarning **emotsional holatini qo‘llab-quvvatlash**, o‘z fikrini ifoda etishiga imkon berish, ularni ijtimoiy muhitga moslashtirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

**Emotsional holat —** bu insonning ichki ruhiy kechinmalari, tashqi va ichki omillarga nisbatan yuzaga keladigan his-tuyg‘ulari, kayfiyati va hissiy reaksiyalarining majmuasidir. Psixologiyada emotsiyalar shaxs hayoti va faoliyatida muhim rol o‘ynaydi, chunki ular motivatsiya, qaror qabul qilish, munosabatlar va o‘zini tutish tarzini belgilaydi. Emotsional holatlarning psixologik tahlili deganda, shaxsning emotsional reaktsiyalarini, ularning sabablari, davomiyligi, intensivligi va ularning xatti-harakatga ta’sirini o‘rganish tushuniladi. Bu tahlil orqali shaxsning ruhiy salomatligi, stressga chidamliligi, muammoli vaziyatlarda o‘zini tutish xususiyatlari aniqlanadi. Emotsiyalarning asosiy turlari — quvonch, g‘am, qo‘rquv, g‘azab, hayrat, jirkanish kabi asosiy hissiy holatlar hisoblanadi. Bu holatlar odamning ijtimoiy hayoti, shaxslararo munosabatlari va kundalik faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, bolalar maktab muhitida o‘zini qanday his qilishlari, o‘qishga

bo‘lgan munosabati va o‘zaro muloqoti ularning emotsional barqarorligiga bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda emotsional holatlarning tahlili alohida ahamiyatga ega. Bunday bolalar o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishda cheklovlarga duch kelishadi, bu esa ularning ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli surdopedagogik yondashuvda bolalarning emotsional ehtiyojlari, kayfiyat o‘zgarishlari va stress belgilarini erta aniqlash hamda to‘g‘ri psixologik yordam ko‘rsatish muhim sanaladi.

**Psixologik tahlil —** bu shaxsning ichki kechinmalari, hissiyotlari, motivatsiyasi va xatti-harakatlarini chuqur tushunishga yo‘naltirilgan ilmiy-uslubiy yondashuvdir. Emotsional holatlar psixik faoliyatning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, ular insonning kayfiyati, o‘ziga va atrofdagilarga munosabati, stressga chidamliligi kabi omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda emotsional holatlar yanada murakkab shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Bunday bolalar ko‘pincha o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda eta olmaydilar, bu esa ular uchun ichki emotsional ziddiyatlarga, tushkunlik, o‘ziga ishonchsizlik yoki ijtimoiy ajralib qolish holatlariga sabab bo‘ladi. Shu sababli ularning emotsional holatini tahlil qilishda psixologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Hissiy rivojlanish  bolaning his-tuyg‘ularni anglash, ifoda etish va boshqarish qobiliyatining shakllanishi jarayoni. Bu jarayon surdopedagogik ta’limda alohida e’tibor talab qiladi, chunki eshitishdagi cheklovlar hissiy tajribalarni cheklab qo‘yishi mumkin.Bolalar psixologiyasi bolalarning ruhiy va emotsional rivojlanish jarayonlarini o‘rganuvchi psixologiya sohasi bo‘lib, har bir yosh davrining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi.Pedagogik yondashuv o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan metod va strategiyalar majmuasidir. Surdopedagogik yondashuvda pedagogning emotsional qo‘llab-quvvatlashi va moslashtirilgan ta’lim metodlari muhim o‘rin tutadi.

Ijtimoiy moslashuv  bolaning jamiyatga, atrof-muhitga muvaffaqiyatli qo‘shilishi, o‘zini erkin tutishi va munosabatlar o‘rnatish qobiliyatidir. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda bu jarayon murakkab bo‘lishi mumkin va maxsus yondashuvni talab qiladi. Barqarorlik  ruhiy-emotsional muvozanatni saqlab qolish

holati. Bu surdo-bolalarda o‘ziga ishonch va faollikni rivojlantirishda asosiy omillardan biridir. Inklyuziv ta’lim nogironligi bo‘lgan bolalarni umumiy ta’lim muhitiga to‘laqonli qo‘shish, ularning huquq va imkoniyatlarini tenglashtirishga yo‘naltirilgan ta’lim shaklidir. Inklyuziv ta’limda surdopedagogik yondashuvlar alohida ahamiyatga ega.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlashda samarali surdopedagogik yondashuvlar

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlash murakkab va mas’uliyatli jarayon bo‘lib, ular uchun ta’lim-tarbiya maxsus metodika va yondashuvlarni talab qiladi. Surdopedagogika bu borada alohida yo‘nalish bo‘lib, bolaning rivojlanishiga to‘liq va kompleks yondashishni nazarda tutadi. Samarali surdopedagogik yondashuvlar esa bolaning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi.

1. **Individual yondashuv:** Har bir bolaning eshitish darajasi, nutq rivojlanishi, aqliy salohiyati va emotsional holati farqli bo‘lganligi sababli, u bilan ishlashda alohida ta’lim rejasi ishlab chiqiladi. Bu reja bolaning yosh xususiyatlari, eshitish apparatlaridan foydalana olish qobiliyati, imo-ishora tilini o‘zlashtirish darajasi kabi omillarga asoslanadi.

**2.** Nutq va til rivojiga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar: Samarali surdopedagogik ishda bolalarning og‘zaki nutqini shakllantirish, so‘z boyligini kengaytirish va ifoda qilish qobiliyatini rivojlantirish asosiy o‘rinni egallaydi. Buning uchun artikulyatsion mashqlar, audiovizual vositalar, mimika va imo-ishoralardan foydalangan holda darslar tashkil etiladi.

**3.** Vizual va kinestetik o‘rganishga asoslangan metodlar:

Eshitish imkoniyatlari cheklangan bo‘lganligi sababli, bunday bolalar uchun ko‘rish (vizual) va harakatga asoslangan (kinestetik) o‘qitish usullari eng samaralidir. Ta’limda rangli tasvirlar, grafikalar, animatsiyalar va jest-mimikalarni qo‘llash bolalarning materialni chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

**4.** Imo-ishora tilidan foydalangan kommunikatsiya: Zaif eshituvchi va kar bolalar uchun imo-ishora tili asosiy muloqot vositasidir. Shuning uchun

surdopedagoglar va ota-onalar bu tilni yaxshi bilishlari va faol qo‘llashlari kerak. Imo-ishora tilidan foydalanish bolalarning o‘z fikrini ifoda etishida erkinlik beradi va ijtimoiylashuv darajasini oshiradi.

**5.** Ko‘p tarmoqli mutaxassislar bilan hamkorlik: Surdopedagogik ish samarali bo‘lishi uchun psixolog, logoped, audiolog, defektolog kabi mutaxassislar bilan jamoaviy hamkorlikda ishlash zarur. Bu orqali bolaning ruhiy, aqliy va ijtimoiy holati kompleks tarzda rivojlantiriladi.

**6.** Ota-onalar bilan mustahkam hamkorlik: Ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bu — oilaviy qo‘llab-quvvatlashdir. Ota-onalar surdopedagogik yondashuvlar haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi, mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishi va uyda ham kerakli mashqlarni takrorlashi lozim. Bu bola rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

**Xulosa.** Emotsional holatlar insonning ruhiy faoliyatining muhim qismi bo‘lib, uning umumiy psixologik holatini belgilaydi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning emotsional holatini tahlil qilish ularning ichki kechinmalarini chuqur anglash, stress va tushkunlikni kamaytirish hamda psixologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Surdopedagogik yondashuv esa bu jarayonda individual ehtiyojlarga mos, integratsiyalashgan ta’lim va psixologik qo‘llab-quvvatlashni taqdim etadi. Natijada, bolaning hissiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvi yaxshilanadi, bu esa ularning to‘laqonli hayot kechirishi uchun zamin yaratadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:


1. Abdullaev, S. (2018). *Bolalar psixologiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi.
2. Karimova, N. (2020). *Surdopedagogika: nazariya va amaliyot*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
3. Zokirova, F. (2019). "Surdopedagogika va ijtimoiy moslashuv". *Ilmiy Maqolalar To‘plami*, 5, 112-120.
4. Islomova, D. (2019). "Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning emotsional rivojlanishi". *Psixologik Tadqiqotlar*, 4(12), 45-53.
5. Vygotskiy, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
6. Zokirova, F. (2019). "Surdopedagogika va ijtimoiy moslashuv". *Ilmiy Maqolalar To‘plami*, 5, 112-120.

# МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В ИНКЛЮЗИВНЫХ ГРУППАХ

**С. Юсупов – преподаватель**
**Ташкентского университета гуманитарных наук**

**Аннотация:** В данной работе рассматриваются особенности преподавания русского языка в условиях инклюзивного образования. Автор акцентирует внимание на необходимости адаптации традиционных методик обучения с учетом многообразия индивидуальных образовательных потребностей учащихся. Анализируются основные педагогические подходы, включая дифференцированное обучение, мультисенсорные технологии, индивидуализацию и применение ассистивных средств. Раскрываются условия эффективной организации инклюзивной образовательной среды, принципы взаимодействия между участниками процесса, а также роль учителя как координатора и фасилитатора. В заключение подчеркивается, что инклюзия не только расширяет доступ к качественному образованию, но и способствует формированию у школьников устойчивых социальных компетенций — эмпатии, толерантности, коммуникативной гибкости.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, преподавание русского языка, дифференцированный подход, мультисенсорное обучение, адаптированные материалы, индивидуальный маршрут, ассистивные технологии, безбарьерная среда, социализация.

Современная образовательная практика, ориентированная на принципы гуманизации и доступности, предъявляет особые требования к преподаванию русского языка в условиях инклюзии. Инклюзивное образование, предполагающее совместное обучение детей с различными образовательными потребностями, требует гибкости в организации педагогического процесса, изменения методик преподавания и создания образовательной среды, поддерживающей каждого ученика.

Классическая методика обучения русскому языку должна быть переосмыслена и дополнена с учетом когнитивных, эмоционально-волевых и сенсомоторных особенностей обучающихся. Эффективность преподавания в инклюзивной группе достигается за счет внедрения дифференцированного подхода, при котором содержание, темп, способы и средства обучения варьируются в зависимости от индивидуальных потребностей учеников. Особенно результативным в такой среде становится применение

мультисенсорных методов, включающих визуальные, аудиальные и тактильные каналы восприятия, что обеспечивает более глубокое и устойчивое усвоение материала.

Одним из ключевых принципов организации инклюзивного урока русского языка является создание индивидуальных образовательных маршрутов, которые позволяют учитывать стартовые возможности ученика, его учебный стиль, интересы и темп освоения материала. Подобные маршруты требуют от учителя высокой степени подготовки, гибкости и педагогического мастерства. Важно использовать адаптированные дидактические материалы, включая тексты с упрощенной лексикой, графические схемы, пиктограммы и материалы с увеличенным шрифтом для слабовидящих учеников. Формирование безбарьерной образовательной среды предполагает не только физическую доступность (например, мебель, соответствующая росту и потребностям детей с ОВЗ), но и эмоционально-психологическую безопасность. В инклюзивном классе важно создать атмосферу взаимного уважения, поддержки и принятия. Это возможно только при тесном сотрудничестве всех участников образовательного процесса — учителей, специалистов сопровождения (логопедов, дефектологов, психологов), родителей и самих учащихся.

Практические методы обучения в инклюзивных группах должны быть разнообразны. Эффективной оказывается работа в малых группах, где дети получают больше внимания и поддержки. Игровые формы позволяют снизить тревожность, повысить мотивацию и активизировать речевую деятельность. Использование ассистивных технологий (например, планшетов с речевыми приложениями, электронных словарей, программ озвучивания текста) расширяет возможности участия в учебной деятельности для детей с нарушениями зрения, слуха или моторики. Кроме того, проектная деятельность способствует формированию коммуникативных умений, коллективной ответственности и целенаправленности.

Неотъемлемой частью успешного инклюзивного обучения является подготовка педагогов. Учитель должен не только обладать профессиональными знаниями в области предмета, но и понимать основы специальной педагогики и психологии, владеть навыками работы в команде и быть открытым к сотрудничеству с родителями и специалистами сопровождения. Также необходимы личностные качества — эмпатия, терпимость, стрессоустойчивость и готовность к непрерывному обучению. Инклюзивное преподавание русского языка выполняет двойную задачу: обеспечивает академическое развитие всех обучающихся, включая овладение базовыми лингвистическими компетенциями, а также способствует формированию социальных и нравственных установок, таких как уважение к иным возможностям, признание ценности каждого человека, навыки сотрудничества и поддержки. Таким образом, инклюзия становится не только педагогической технологией, но и важным культурным и социальным феноменом, меняющим саму философию образования.

**Литература:**

1. Асанова, Д.Ж. *Инклюзивное образование: теория и практика*. — Алматы: Арна, 2020.
2. Бронникова, Т.А. *Дифференцированный подход в обучении детей с ОВЗ*. — Москва: Просвещение, 2021.
3. Васильева, Г.Н. *Методы преподавания русского языка в условиях инклюзии*. // Дошкольное и начальное образование. — 2022. — № 4. — С. 45–51.
4. Зинченко, М.Л., Соловьева, Н.В. *Педагогика инклюзии: новые вызовы и практики*. — СПб.: Питер, 2023.
5. Концепция развития инклюзивного образования в Узбекистане на 2022–2025 гг. — Министерство дошкольного и школьного образования РУ.

## НОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В ИНКЛЮЗИВНЫХ ГРУППАХ

**М.Б. Сапаева - студентка 3 курса по направлению «Преподование филологии и языков (русский язык)», Ташкентского университета гуманитарных наук**

**Аннотация:** В статье рассматриваются современные технологические решения для обучения русскому языку в инклюзивных образовательных группах. Анализируются возможности цифровых платформ, адаптивных

программ и мультимедийных инструментов для создания доступной образовательной среды. Особое внимание уделяется персонализации обучения с учетом различных потребностей обучающихся, включая детей с особыми образовательными потребностями. Исследование показывает, что интеграция современных технологий значительно повышает эффективность инклюзивного образования и способствует формированию равных возможностей для всех участников образовательного процесса.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, русский язык, образовательные технологии, адаптивное обучение, цифровизация образования, особые образовательные потребности, мультимедийные технологии, персонализация обучения

Современная образовательная система стремится к созданию равных возможностей для всех обучающихся, независимо от их физических, интеллектуальных или социальных особенностей. Инклюзивное образование становится не просто педагогической концепцией, а социальной необходимостью, требующей инновационных подходов к организации учебного процесса.

Обучение русскому языку в инклюзивных группах представляет особую сложность, поскольку необходимо учитывать разнообразные потребности обучающихся: от детей с нарушениями слуха и зрения до учащихся с расстройствами аутистического спектра и интеллектуальными нарушениями. В этом контексте новые технологии открывают беспрецедентные возможности для создания адаптивной и доступной образовательной среды.

Технологические решения для инклюзивного обучения русскому языку

1. Адаптивные обучающие платформы

Современные цифровые платформы предлагают персонализированные образовательные траектории, автоматически подстраиваясь под индивидуальные особенности каждого ученика. Системы искусственного интеллекта анализируют скорость усвоения материала, предпочтительные способы восприятия информации и корректируют содержание уроков в режиме реального времени.

2. Мультимедийные инструменты

Интеграция визуальных, аудиальных и тактильных элементов позволяет создавать многоканальные образовательные ресурсы. Интерактивные видеоуроки с субтитрами, анимированные презентации с голосовым сопровождением и тактильные материалы обеспечивают доступность контента для детей с различными особенностями восприятия.

3. Технологии дополненной и виртуальной реальности

AR и VR технологии создают иммерсивную образовательную среду, где абстрактные языковые концепции становятся наглядными и понятными. Виртуальные экскурсии, интерактивные грамматические конструкторы и 3D-визуализация текстов помогают лучше усваивать материал.

4. Ассистивные технологии

Специализированные технические средства обеспечивают доступность образования для детей с физическими ограничениями:

- Программы чтения с экрана для незрячих и слабовидящих
- Системы распознавания голоса для детей с нарушениями моторики
- Коммуникативные приложения для учащихся с речевыми нарушениями

Практические аспекты внедрения

Организация образовательного процесса

Успешное внедрение технологий требует комплексного подхода к организации учебного процесса. Важно создать гибкую систему, которая позволяет каждому ученику работать в своем темпе, используя наиболее подходящие для него инструменты и методы.

Подготовка педагогических кадров

Эффективное использование новых технологий в инклюзивном образовании невозможно без соответствующей подготовки учителей. Педагоги должны владеть не только техническими навыками, но и понимать специфику работы с детьми с особыми образовательными потребностями.

Технологии позволяют расширить образовательное пространство за пределы классной комнаты, обеспечивая continuity обучения дома. Родители

получают возможность активно участвовать в образовательном процессе, используя специальные мобильные приложения и онлайн-платформы.

Эффективность применения новых технологий

Исследования показывают, что использование современных технологий в инклюзивном обучении русскому языку приводит к:

- Повышению мотивации учащихся на 35-40%
- Улучшению усвоения материала на 25-30%
- Снижению тревожности и повышению самооценки обучающихся
- Развитию цифровых компетенций всех участников образовательного процесса

Интеграция новых технологий в процесс обучения русскому языку в инклюзивных группах представляет собой не просто модернизацию образовательного процесса, а кардинальную трансформацию подходов к организации доступного и качественного образования. Технологические решения позволяют создать образовательную среду, которая адаптируется к потребностям каждого ученика, обеспечивая равные возможности для всех.

Однако успех внедрения этих технологий зависит от комплексного подхода, включающего техническое оснащение, подготовку кадров, методическое сопровождение и постоянную поддержку всех участников образовательного процесса. Дальнейшее развитие данного направления требует продолжения исследований, разработки новых методических решений и создания устойчивой системы технической поддержки.

Перспективы развития инклюзивного образования с использованием новых технологий связаны с внедрением искусственного интеллекта, развитием нейроинтерфейсов и созданием полностью адаптивных образовательных экосистем, способных обеспечить качественное образование для каждого ребенка независимо от его особенностей и потребностей.

**Список литературы**

1. Алехина С.В. Инклюзивное образование: от политики к практике // Психологическая наука и образование. 2016. № 1. С. 136-145.

2. Борисова Н.В., Прушинский С.А. Цифровые технологии в инклюзивном образовании: возможности и ограничения // Информатика и образование. 2020. № 4. С. 12-18.

3. Выготский Л.С. Основы дефектологии. М.: Педагогика, 2019. 367 с.

4. Гончарова Е.Л., Кукушкина О.И. Ребенок с особыми образовательными потребностями // Альманах Института коррекционной педагогики. 2016. № 26. С. 1-12.

## ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI MEHNATGA O'RGATISH

**G.Tasbaeva – o'qituvchi, S.Baltabaeva Defektologiya (logopediya) ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi**
**Ajiniyoz NDPI Maktabgacha tarbiya va defektologiya kafedrasi**

Oilada farzandning dunyoga kelishi ota –ona uchun nafaqat quvonch va shodlik manbai – baxt nashidasi, balki mas'uliyat hissi ham demakdir. Chunki go'dakning dunyoga kelishi muayyan orzular, hayotiy rejalar bunyod bo'ladi. Har ne bo'lganda ham baxt va mas'uliyat hissi ota –onani go'dagi bilan birga qayta tarbiyalaydi, desak yanglishmaymiz. Axir farzand – u qanday bo'lishidan, qay holatda bo'lishidan qat'iy nazar naslimiz davomchisi, o'zligimizning, balki kamchiliklarimizning mevasi….

Maqolamizda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni mehnatga o'rgatish xususida so'z yuritmoqchimiz.

Ota-onaning ko'pchiligi farzandini mehnatdan chegaralab, mehnatsevarlik bola balog'at yoshiga yetib, o'z hayot yo'lini tanlaganida shakllanadi, deb fikrlaydilar. Agar yosh bolani mehnatga hayot quvonchlari sifatida munosabatda bo'lish, undan shodlanishga o'rgatilmasa, mehnat bola uchun majburiy zaruriyatga aylanadi. Bolani maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab mehnat faoliyatiga ko'niktirish, mehnat qilish usullarini egallashiga ko'maklashish unda inson hayoti va mehnatidagi o'rnini belgilaydigan xarakter qirralarini shakllantirishga qulay shart- sharoit yaratadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasi esa ota-onalar zimmasiga yanada ko'proq mas'uliyatni yuklaydi. Bola tarbiyasiga taqdim etiluvchi umumiy talablardan chekinmagan holda mutaxassis taklif etgan maxsus vazifalarni ado eting. Bugungi kunda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasi yuzasidan ko'plab adabiyotlar, tavsiya va yo'riqnomalar mavjud. Ulardan farzandingizga zarur o'quv va maishiy

ko’nikmalarni hosil qilish uchun foydalanishingiz mumkin. Lekin yodingizda bo’lsinki, hech bir shaxs dangasa, ishyoqmas, yolg’onchi, tovlamachi bo’lib dunyoga kelmaydi, ularda bu xususiyatlar tarbiya natijasida shakllanadi. Yana shu narsa aniqki, hamma ham farzandining haqiqiy inson bo’lib voyaga yetishini istaydi. Afsuski, istak o’zi yetarli emas. Bolalarni mehnatsevar, adolatparvar, qat’iyatli qilib tarbiyalash, ularga shu sifatlarni singdirish lozim, buning uchun esa, avvalo, o’zingiz namuna ko’rsata bilishingiz darkor.

Mehnat inson hayoti uchun, uning farovon turmush kechirishi uchun hamisha asos bo’lib kelgan va shunday bo’lib qoladi. Mehnat - farovon va baxtli hayot kechirishining eng asosiy sharti bo’lganligi sababli hamma fuqarolar uchun majburiydir. Mehnat odamlarning biror maqsad uchun sarflagan vaqti, aqliy va jismoniy kuchi yoki faoliyatidir. Barcha tirik mavjudot nimanidir iste’mol qilish hisobiga yashaydi, umrini davom ettiradi. Yerda yashovchi mayda qurt-qumursqalardan tortib, parrandalargacha, suv ostida yashovchi jonivorlardan tortib ulkan hayvonlargacha ovqatsiz yashay olmaydi. Shuningdek, odamlar ham uzluksiz ovqatlanadi, hayot kechiradi. Boshqa tirik mavjudotlardan farqli o’laroq, odamlar kiyinishadi, ijod qilishadi. Mehnat jarayonidagina oziq-ovqat, kiyim –kechak va boshqa zarur narsalar yaratiladi. Mehnat inson hayotini sermazmun qiladi va boyitadi. Odamlar mehnat qilish jarayonida sog’liqlarini mustahkamlaydilar, obro’ orttiradilar va o’z kelajaklarini yaratadilar. Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug’lab kelishgan, o’zlari ham sidqidildan mehnat qilishgan. Bizga ulardan meros bo’lib qolgan barcha xazina – ilmiy-badiiy kitoblar, turli xildagi san’at asarlari, memorchilik obidalari va boshqa narsalar ana shu mehnatning mahsulidir.Eshitishda nuqsoni bolgan bolalarni ha’m barcha tendoshlari kabi mehnatka orgatish mumkin. Bunda eshitishda nuqsoni bolgan bolalaga, eshitishda nuqsoni bo’lganligi uchun engil vaziyfa berish bilan cheklanishga yo’l qoymaslik kerak. Bolalarda mehnat faoliyatidagi xotasini o’z baqtida bartaraf etishga urgatish kerak boladi. Ishlamaslik bolalarda dangasaliklarga sabab bo’ladi. Mehnat eshitishda nuqsoni bo’lgan bola shaxsini har tomonlama kamol toptirishning asosiy omili hisoblanadi. Shuning uchun kar bolalarni kichik yoshidan boshlab mehnat qilishga o’rgatish zarur.

Demak, eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalarni ham sog’lom tengdoshlari kabi mehnatsevar bo’lib tarbiyalash bilan bir vaqtda, inson qo’li bilan yaratilgan narsalarni qadrlash, ardoqlash va uni uvol qilmaslikka o’rganishlari kerak. Ota-onalar kar farzandlarini kelajagini o’ylab, ularni ilk yoshlaridan mehnatga o’rgatib, chiniqtirib borishlarimaqsadga muvofiq. To’g’ri tarbiyaning eng ta’sirli, eng samarali usuli ham mehnatdir. Ota-onalar eshitishida nuqsoni bo’lgan farzandlarining mehnatiga har doim ham muhtoj bo’lavermaydilar, lekin bolani yoshligidan ishga o’rgatish, mehnatga ko’niktirish zimmalaridagi burch, asosiy vazifadir.

**Foydalangan adabiyatlar**

1.LogopediY( pod red .A.S .volkovoy )M.:vlados.2003 g
2.Muminova L,Ayupova M.LogopediY.T.:Oqıtıwshı 1993 y

## AFAZIYANI ÚYRENIW TARIYXI

**G. Tasbaeva – oqıtıwshı, B. Asenova Defektologiya(logopediya) tálim baǵdarınıń 4-kurs talabası**
**NMPI Mektepke shekemgi tárbiya hám defektologiya kafedrası**

Òzbekstan Respublikası Prezidentiniń 2017-jıl 7-fevraldaǵi «Òzbekstan Respublikasın 2017-2021-jıllarda bunnan bılay da rawajlandırıwdıń bes tiykarǵı baǵdarı boyınsha Háreketler strategiyası»n ámelge asırıwǵa baylanıslı Mámleketlik baǵdarlama»nıń mámleketimiz hám jámiyetimiz ushın áhmiyetin, mazmun-mánisin keń tùrde ùgit-násiyatlaw, professor-oqıtıwshılar hám student-jaslar arasında tùsinik jumısların alıp barıw boyınsha Òzbekstan Respublikası Joqarı hám orta arnawlı bilimlendiriw ministrliginiń 2017-jil 19-may kùngi 321-sanlı buyrığı tiykarında, tálim hám pán tarawın rawajlandırıw boyınsha pedagog kadrlar aldına ùlken juwapkershilikli wazıypalar jùklendi.

Bunnan gòzlengen maqset uzliksiz tálim sistemasın jáne de jetilistiriw jolın dawam ettiriw, sıpatlı tálim xızmetleri mùmkinshiliklerin asırıw, miynet bazarınıń zamanagòy mùtájliklerine muwapıq, joqarı bilimli kadrlar tayarlaw, sonday-aq oqıw mákemelerin jańa oqıw-metodikalıq qollanbalar menen támiyinlew sıyaqlı is-ilajlardı orınlaw názerde tutıladı.

Jas áwlad tárbiyası ulıwma xalıqlıq is. Respublikamızda tárbiya isi menen shuǧıllanip atırǧan mekemeler (mektepke shekemgi tárbiya mekemeleri, mektepler, mektepten tısqarı tárbiya mekemeleri, kásip-óner bilim orınları,orta arnawlı hám joqarı oqıw orınları hám usı sıyaqlı) den tısqarı, turli kásip iyeleri hám bul zárurli iste qatnasadı. Sonday eken, insan tárbiyası, onıń nizamlılıqları haqqındağı pán-pedagogikanı uyreniw ogan baylanıslı bolǧan insanlardıń zárur wazıypası.

Búgingi dáwirde defektologiya yağınıy nuqsanı bar bolǧan balalardı oqıtıw úlken mashqalalardıń biri bolıp tur. Solay eken olardı psixologiyalıq kórikten ótkeriw, olarğa dúnyalıq bilimlerden sabaq beriw maqsetke muwıpıq boladı.

Afaziya - sóylewdiń tolıq yamasa bólek joǵalıwı, ol ádette, bas miydiń lokal jaraqatlanıwı nátiyjesinde júzege keledi. A. R. Luriya afaziyanıń altı túrin ajıratıp kórsetedi:

1. Bas miy qabıǵı sheke bólimleriniń zıyanlanıwı nátiyjesinde júzege kelip shıǵıwshı akustiko-gnostik hám akustiko-mnestik afaziya.
2. Bas miy qabıǵı tómengi joqarı bólimleriniń zıyanlanıwı nátiyjesinde. kelip shıǵıwshı semantik afaziya hám afferent motor afaziya.
3. Bas miy qabıǵı aldıńǵı hám arqa mańlay bólimleri zıyanlanıwı nátiyjesinde kelip shıqqan efferent motor afaziya hám dinamika afaziya. Bas miydiń ekinshi funkcional bólimine kiriwshi joqarı sheke hám tómengi sheke zonalarınıń zıyanlanıwı nátiyjesinde kelip shıǵatuǵın afaziya, afaziyanıń "arqa" túrleri dep ataladı (A.R. Luriya, 1979). Bunda paradigmatik qatnasıqlardıń buzılıwı baqlanadı. Úshınshı funkcional blokqa kiriwshi, bas miydiń arqa mańlay bólimleriniń zıyanlanıwı nátiyjesinde kelip shıqqan afaziya "aldıńǵı" afaziya delinedi. Afaziyanıń bunday formalarında sintagmatikalıq qatnasıqlar buzıladı. Afaziyanı keltirip shıǵarıwshı sebeplerge tómendegilerdi kirgiziw múmkin: miyde qan aylanıwınıń buzılıwı (ishemiya, gemorragiyalar), bas miy jaraqatları, óspeler hám de bas miydiń infekciyalıq kesellikleri. Qan tamır sisteması buzılıwları, kesellikleri sebepli afaziya. kóbirek úlkenlerde júz beredi. Qan tamır sistemasındağı bas miy qanı tamırlarınıń jarılıwı nátiyjesinde kelip shıǵatuǵın anevrizma, tromboemboliya, revmatizm nátiyjesinde kelip shıǵatuǵın júrek parokları, miy-qabıq jaraqatları óspirimler hám

jaslarda da baqlanadi. Miyde qan aylanıwınıń buzılıwınıń úshten bir bóliminde afaziya. júzege keledi, kóbinese motor afaziya baqlanadı (E.V. Shmidt, T.A. Makinskiy, 1979; E.S.Beyn, 1964). Balalarda afaziya kem ushraydı, olarda afaziya, miy qabıǵı jaraqatları, miydegi óspeler yamasa miy infekciyalıq kesellikleri aqıbetinde júzege keled

Ayupovanıń anıqlaması boyınsha, afaziya túrleri tiykarınan tómendegishe klassifikaciyalanadı:

1. Motor (ekspressiv) afaziya - Broka orayı zıyanlanǵanda kelip shıǵadı. Nawqasta sóylew qıyınlasadı, sóyley almaydı, biraq esitiw hám túsiniw saqlanadı. Bunday jaǵdaylarda artikulyaciyalıq apparat isleydi, biraq sózlerdi durıs dúziw hám bildiriw buzıladı.

2. Sensor (impressiv) afaziya - Vernike zonasınıń zıyanlanıwı menen baylanıslı bolıp, nawqas esitip atırǵan sózlerdi túsinbeydi. Sóylewi múmkin, biraq oniń sóylewi logikasız, sózler naduris qollanıladı.

3. Amnestik afaziya - bul túrinde nawqas predmet yaki hádiyseni taniydi, biraq olardıń atın esley almaydı. Mısalı, ol "men bunıń menen awqat jeymen" deydi, biraq "qasıq" sózin ayta almaydı.

4. Semantikalıq afaziya - grammatikalıq strukturalardıń túsinigi menen xarakterlenedi. Nawqas quramalı gápler, ásirese, orın, waqıt, sebep hám salıstırıw bildiriwshi birliklerdi túsiniwde qıynaladı.

5. Sirtqı hám aralas afaziyalar - bular Broka hám Vernike zonalarına jaqın aymaqlardıń zıyanlanıwı nátiyjesinde kelip shıǵadı hám motor hám sensor afaziyalardıń aralas belgileri menen kórinedi[1.125-130-b]. Sonday-aq, afaziya dárejeleri nawqastiń jaǵdayına qarap ózgeredi: ayırımlar sóylewdi tolıq joǵaltqan bolsa, basqalarda jeńil dárejede buzılıwlar bolıwı múmkin. Bul bolsa logopediyalıq reabilitaciya baǵdarlamaların islep shıǵıwda individual qatnas jasawdı talap etedi.

Afaziyanıń sebeplerin anıqlaw hám durıs diagnoz qoyıw logopediyalıq jumıstıń baslanǵısh hám eń áhmiyetli basqıshı esaplanadi. Sonıń ushın, logoped nawqastıń nevrologiyalıq tariyxı, jaraqat zonası, kognitiv jaǵdayı hám sóylew dárejesin tereń úyreniwi zárúr.

Afaziya - bul miy jaraqatlarınıń awır asqınıwlarınan biri bolıp, bunda sóylew iskerliginiń barlıq túrleri sistemalı buzılǵan boladı. Afaziyada sóylew buzılıwlarınıń quramalılıǵı buzılǵan orınnıń lokalizaciyasına qarap (mısalı, bas miydiń qabıq astı bólimlerine qan quyılıwında, jaraqatlanıw oshaǵınıń jaylasıwına qarap sóylewdiń spontan tikleniwine úmit etiw múmkin), jaraqat oshaǵınıń ólshemine, sóylew iskerligi elementleriniń funkcional saqlanǵan ózgesheliklerine baylanıslı. Nawqastiń sóylew kemishligine reakciyası hám bul baǵdarda belgili dárejede áhmiyetli esaplanadı. Hár qanday afaziya túriniń tiykarında ol yamasa bul neyrofiziologiyalıq hám neyropsixologiyalıq birlemshi buzılıwlar jatadı (mısalı, praksistiń dinamikalıq yamasa konstruktiv buzılıwları, fonematik esitiwdiń buzılıwı, artikulyaciyalıq apparat apraksiyaları h.t.b.). Bul buzılıwlar sózdi túsiniw, jazıw, oqıw, esaptaǵı ózine tán sistemalı kemshiliklerdiń payda bolıwına alıp keledi. Afaziyada sóylew iskerliginiń hámme túrleri hár túrli dárejede sistemalı buzilǵan boladı (awızeki sóylew, sóylew yadı, fonematikalıq esitiw, sóylewdi túsiniw, jazba sóylew, oqıw, esaplaw hám t.b.). Sol sebepli sóylew biziń ilimimizdiń mazmunín túsiniw ushín neyropsixologiya hám neyrolingvistika tarawlarındaǵı bilimler úlken áhmiyetke iye. 1961-jıl Francuz shıpakeri G. Broka afaziya menen awırǵan nawqastıń shep orta miy arteriyası, sonday-aq, mańlayınıń úshinshi búrmesi qarıǵı arqa bólimleriniń zıyanlanıwın anıqladı. G. Broka bul procesti. úyrenip, awızeki sóylewdiń orayı miydiń mańlay bóliminde jaylasqan degen juwmaqqa keldi. 1974-jıl Vernike, bas miyidiń shep shekesi bólimi jaraqatlanǵan 10 nawqastı úyreniw tiykarında sóylewdi túsiniw, [3.236 b] ekspressiv sóylew, oqiw hám jaziw buzılıwların anıqladı, hám de óz juwmaqlarında bunday sóylew buzılıwlarınıń ózine tánligin bayan etken.

## Paydalanilǵan ádebiyatlar


1. SH. M. Mirziyoyev. Nızam ústinligi hám insán máplerin tómenlew jurt tınıshlıǵı hám xalıq páráwanlıǵı gerewi 2016 jıl Tashkent
2. SH.M.Mirziyoyev Yangi o’zbekistonta erkin va faravon yashaylik.T.2021.S
3. Ayupova M.Y. Logopediya: darslik M.Y. Ayupova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta’lim vazirligi. — T.: 0 ‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.

# MAXSUS KORREKSION MASG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH USULLARI

**G.M. Tasbaeva - o'qituvchi, G.S. Klishbaeva, D.B. Sarsenbaeva - maxsus pedagogika:logopediya ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabalari**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maxsus ta’lim muassasalarida korrektsion mashg‘ulotlarning tashkil etilishi, ularning mazmuni, shakl va usullari hamda bolalarning psixofizik rivojlanishidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, korrektsion-pedagogik yondashuvlarning samaradorligini ta’minlovchi omillar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalarida maxsus mashg‘ulotlarning nogironligi bo‘lgan bolalar rivojiga ta’siri asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** korrektsion mashg‘ulotlar, maxsus pedagogika, nogiron bolalar, psixologik-pedagogik yondashuv, logopediya, individual rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, art-terapiya.

XXI asrda ta’lim tizimi ijtimoiy tenglik, inklyuzivlik va shaxsiy yondashuv tamoyillariga tayanmoqda. Bunday sharoitda maxsus pedagogikaning, xususan, korreksion mashg‘ulotlarning ahamiyati yanada ortmoqda. Korreksion pedagogika – bu shaxsning jismoniy yoki psixik rivojlanishida mavjud bo‘lgan buzilishlarni to‘g‘rilash, yumshatish yoki ularning salbiy ta’sirini kamaytirishga qaratilgan faoliyatdir. Ushbu mashg‘ulotlar, ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda maxsus ta’lim tizimida korreksion mashg‘ulotlarni tashkil etish samaradorligini oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu maqolada korreksion mashg‘ulotlarning tashkil etilish tartibi, ularning mazmuni, turlari hamda natijadorligi haqida so‘z yuritiladi.

Korreksion mashg‘ulotlarning asosiy vazifasi bola yoki o‘quvchining rivojlanishidagi mavjud nuqsonlarni aniqlash, ularni bartaraf etishga yordam berish va moslashuvchan muhit yaratishdan iboratdir. Bu mashg‘ulotlar turli yo‘nalishlarda amalga oshiriladi: nutqiy, intellektual, emotsional, harakatlilik, hissiy va boshqalar. Korreksion mashg‘ulotlar orqali bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, jamiyatga moslashuvi, o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi oshadi. Ularning asosiy maqsadi — bolaning mavjud imkoniyatlarini rivojlantirish, to‘g‘ri yo‘naltirish va uni ijtimoiy hayotga moslashtirishdan iborat.

Korreksion mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish uchun quyidagi asosiy prinsiplarga amal qilish muhim:

1) Individuallashtirish prinsipi – har bir bolaning rivojlanish darajasi va xususiyatlariga qarab individual yondashuv;

2) Izchillik va tizimlilik – mashg‘ulotlar rejalashtirilgan, bosqichma-bosqich va ketma-ketlikda olib borilishi lozim;

3) Faollik – bolaning faol ishtirokiga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanish;

4) Ko‘rgazmalilik – ko‘rgazmali qurollar, texnik vositalar yordamida bolaga tushunarli va esda qolarli mashg‘ulotlarni taqdim etish;

5) Qayta aloqa – har bir mashg‘ulot natijasi tahlil qilinib, keyingi ishlar rejalashtiriladi.

Korreksion mashg‘ulotlar bir nechta yo‘nalishlarda tashkil etiladi. Masalan, logopedik mashg‘ulotlar nutqiy buzilishlarga qarshi kurashishga qaratilgan bo‘lib, tovush chiqarish, talaffuz, so‘z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Psixokorreksion mashg‘ulotlar bolaning psixologik-emotsional holatini barqarorlashtirish va o‘z-o‘zini anglashi, o‘zini nazorat qilishi kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Harakat-motor mashg‘ulotlar esa bolaning jismoniy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, muvofiqlashtiruv, muvozanat, harakat aniqligi kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shuningdek, kognitiv rivojlanishga yo‘naltirilgan korreksion darslar intellektual rivojlanishni mustahkamlaydi.

Korreksion mashg‘ulotlarni tashkil etish jarayoni bir necha asosiy bosqichlardan iborat. Birinchi bosqich – tashxis va tahlil: bolaning rivojlanishidagi muammolar aniqlanadi. Ikkinchi bosqich – rejalashtirish: maxsus dastur asosida mashg‘ulotlar mazmuni belgilanadi. Uchinchi bosqich – amaliyot: mashg‘ulotlar belgilangan tartibda o‘tkaziladi. To‘rtinchi bosqich – monitoring va baholash: har bir mashg‘ulot natijasi tahlil qilinadi, boladagi o‘zgarishlar qayd etiladi. Bu bosqichlar tizimli va izchil olib borilsa, mashg‘ulotlarning samaradorligi sezilarli darajada ortadi.

Korreksion mashg‘ulotlarning muvaffaqiyatli bo‘lishi ko‘p jihatdan maxsus pedagogga bog‘liq. Maxsus pedagog zamonaviy ta’lim va psixologiya bilimlariga ega bo‘lishi, har bir bolaga individual yondashishi, ko‘ngilli va do‘stona muhit yaratishi zarur. U bolaning ehtiyojlarini aniqlash, mashg‘ulotlarni rejalashtirish va ularni baholashda asosiy rolni o‘ynaydi. Shuningdek, ota-onalar bilan samarali hamkorlik

qilish orqali ta’sirchanlikni kuchaytiradi. Maxsus pedagog o‘z faoliyatida logoped, psixolog, defektolog kabi mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlaydi. To‘g‘ri tashkil etilgan korreksion mashg‘ulotlar quyidagi natijalarga olib keladi: bolaning nutqi yaxshilanadi, harakat muvofiqligi ortadi, psixologik barqarorlik hosil bo‘ladi, o‘z-o‘zini anglash va boshqarish ko‘nikmalari shakllanadi. Bundan tashqari, bolalarda ijtimoiy faollik va bilim olishga bo‘lgan ishtiyoq kuchayadi. Bularning barchasi bolaning umumta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli qo‘shilishiga zamin yaratadi.

**Xulosa.** Maxsus korreksion mashg‘ulotlar bolalarning ijtimoiylashuvi, o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon qilishi va kelgusida mustaqil hayot kechirishiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vositadir. bunday mashg‘ulotlarni tashkil etishda zamonaviy yondashuv, tahliliy fikrlash va tajriba muhim ahamiyat kasb etadi. shu boisdan, har bir maxsus pedagog o‘z ustida muntazam ishlashi, yangi metodika va texnologiyalarni o‘zlashtirishi lozim. Korrektsion mashg‘ulotlar natijalari esa bolalarning o‘zini anglash, ijtimoiy hayotga moslashish va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**


1. Amonov S. “Maxsus pedagogika asoslari”, Toshkent, 2020.
2. G‘ulomov S. va boshqalar. “Logopediya”, Toshkent, 2019.
3. Obidova M. “Psixologik-pedagogik korrektsiya asoslari”, Toshkent, 2021.
4. Vygotskiy L.S. “Psixologik rivojlanish nazariyasi”, Moskva, 2003.


## ESHITISHIDA KAMCHILIGI BO'LGAN BOLA OILASIDAGI KO'NIKMALAR


**G.M. Tasbaeva - o`qituvchi, R.Eshmatova - maxsus pedagogika: logopediya yo'nalishi 3-bosqich talabasi**
**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim va defeklogiya kafedrasi**


Ijtimoiy va siyosiy sohalardagi barch islohatlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqorolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil etib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham manaviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta`lim va muorifni yuksaltirish, milliy uyg`onish g`oyasini ro`yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo`lib qoladi.

Ota-onalar eshitishda nuqsoni bo’lgan bolalarni maxsus muassasalarga berish yoki oilada tarbiyalash haqidagi qarorni o`zlari qabul qilishadi. Ota-onalar tomonidan hal qilinadigan oilaviy tarbiya vazifalari: bolalarga madaniy gigiyenik, o’z o’ziga xizmat qilish ko’nikmalari bilan tanishtirish va mustahkamlash uni tartibga, saranjomlikka, kitoblarga qiziqishi, o’zlari xohlagan o’yinchoqlarga o‘rgatish va rivojlantirishdan iborat. Oilada tarbiyalashni mumkin topgan, ya`ni, maktabgacha tarbiya muassasalariga bermaydigan hollarda, bunday bolalarga surdopedagoglar, surdologik xonalar, maslahat beruvchi guruhlar yoki maxsus maktabgacha muassasa qoshida tashkil qilingan mussasalar va nutqini reabilitatsiyalash markazi xodimlari yordam berishadilar. Kar va zaif eshituvchi bolalarga pedagogik yordam ko’rsatishda nutqiy o’stirish ishlari muhum hisoblanadi. Ota-onalar bilan mutaxassislar ishlari o`zara chambarchas bog’liq bo’ladi. Bu bilan ota-onalar bolalarni umumiy rivojlanishi va birlamchi nuqsonlarni bartaraf eshitishga yordamlashadi. Oilada tarbiyalash ,ta`lim berish va kun davomida barchasi tartib asosida o’z vaqtida bo’lishi kerak (ovqatlanish, sayr va o’yin, erkin faoliyat davomida amalga oshiriladi).

Kundalik hayotda eshitishda nuqsoni bo’lgan bolalarning ota-onalari o’z bolalarini ko’proq tushunishi, ularning kechinmalari va taassurotlaridan xabardor bo’lishi va shu bilan uning nutqini rivojlanishiga yordamlashishi kerak.

Bolani kun tartibi uning yoshi, jismoniy rivojlanishi, emotsional holati va imkoniyatlariga mos kelgan tartibda tashkil etish lozim. Har kuni bolalar bilan ikki yoki uchta maxsus, eshitishdagi muqsonlarni korreksiyalovchi mashg’ulotlar o’tkaziladi. Mashg’ulotlar 20-30 daqiqa davom etadi. ularni tez-tez atirib turish bolalarni toliqishining oldini oladi.

Eshitishda nuqsoni bo’lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o’qitishda ota-onaning o’rni katta. Oilada bolalarga beriladigan yordam bolalarning nutqiy muloqotlarini tiklashga yordam beradi. Ayrim hollarda pedagog maslahatlaridan to’g’ri foydalana olmagan, mashg’ulotlarning mazmunlarini tushunolmagan ota-onalarni mashg’ulotlarga chaqirish, taklif qilish kerak. Bolalarda ko’rish, eshitish idrokini rivojlantirish, takomillashtirish uchun rangdor o’yinlardan, rang-barang tayoqlardan, har xil rangdagi sharlardan foydalaniladi. Barcha

mashg’ulotlar o’yin tarzida olib boriladi. Bu bolalarning qiziqishini rivojlantirish imkonini beradi.

So`zlashuvda baland ovoz bilan gapirish kerak, bu bolaning qoldiqli eshitishiga zarar yetkazmaydi. Maxsus tashkil qilingan o`yinlarda kattalar bolalarga o`yinchoqlar bilan qanday salomlashish, xayrlashish, ularga minnatdorchilik bildirish, maqtash, koyish, ya`ni ularga tiriklar kabi murojaat qilishni ko`rsatishi mumkin. Bola o`yin chog`ida bularga bajonidil taqlid qiladi. Keyinroq nutqiy xulq namunalarini insonlar bilan kundalik muloqot vaziyatiga ko`chiradi. Shu tariqa atrofdagilarning nutqiga, lablar harakatiga, nisbatan ko`rish e`tibori, kattalar gapirganini qaytarishga ehtiyoj va boshqa shakllar shakllana boshlaydi. Bularning hammasiga ota-onalar alohida etibor berishlari kerar.

Ota-onalar eshitishda nuqsoni bo`lgan bolalarni kundalik hayotda turli vaziyatlarda gapirishga undash va uning xulqi hamda xarakterida qarama-qarshi xususiyatlar nutqqa salbiy munosabat, qatiy jim turishning oldini olish kerak.

Ota- onalar nutqida nuqsoni bo`lgan bolalarni qoldiqli nutqini saqlashda o`qish malakalarini egallashda muhim o`rin tutadi.

Ma`lumki, sog`lom bolaga nisbatan eshitishida nuhsoni bo`lgan bolani oilada alohida tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Agar ota-ona o`z farzandiga ko`mak bermoqchi bo`lsa, albatta, mahsus o`quv qo`llanmalar hamda surdapedogoglarning maslahatlariga amal qilgan holda ish yuritmoqlari lozim. ‘’Qush uyasida ko`rganini qiladi’’ degan maqol bejiz aytilmagan. Oila bu jamiyatning ajralmas qismi, bir bo`lagidir.

Eshitishida nuqsoni bo`lgan farzandingizni ta`lim-tarbiyasi bilan shug`ullanishdan oldin;

jismoniy jihatdan yoshga mos rivojlanganmi

qanday hayotiy ko`nikmalarga ega (mustaqil kiyina oladimi….)

qanday shakl va ranglarni ajratadi;

sevimli o`yinchog`i va unga munosabatlari qanday;

kattalar va tengdoshlariga munosabati;

qanday murojatlarni tushunadi;

erkalash va talabchanlik ulardan qaysi biri farzandlaringizga ko`proq tasir etishini aniqlab, tahlil qilib oling.

Shundan keyin eshitishda nuhsoni bo`lgan maktabgacha ta`lim muassasasida olib boriladigan pedogogik ishlar bilan ham izchil tanishmog`ingiz lozim . Farzandingizning kelajagi sizning qo`lingizda ekan, ularni jamiyatga moslashtirish juda katta kuch va matonat , sabr- toqat talab qilinadigan jarayondir.

Eshitishida nuqsoni bo`lgan bolaga ta`lim berishda bevosita sizning ishtirokingiz bilan kechadigan asosiy vazifalar;

farzandingizda atrofdagi olamga va narsalarga bo`lgan qiziqishni uyg`oting. Ko`rsatilayotgan narsaga (1,5-2 minutgacha) o`z diqqatini jalib qilib turishni o`rgating. Sizga taqlid qilish ko`nikmalarini shakillantiring. Xotirasini rivojlantiring.

bolada so`zlashuv nutqiga nisbatan ijobiy munosabatni uyg`oting (xox og`zaki so`z bilan, daktil bilan, xoh yozma holda berilganda) so`zlar tevarak atrofdagi narsalarning nomi ekanligini anglatishga harakat qilish. (So’zlarni-tushunchalarni-nomlarni) daktil nutqiga o`rgatish; daktil nutqini shakillanishtirish natijasida bolada so`z boyligi oshadi, og`zaki nutiqning shakillanishiga samarali ta`sir etadi.

Eshitishida nuhsoni bo`lgan bolalarda olib boriladigan fonetik va fonematik eshitishni ajratishga qaratilgan o`yin;

- ota onalar farzandlariga har xil hayvon rasimlarini ko`rsatib ,ularga ovoz beradi va hayvoni tanishtiradi.

Bolalar hayvonlar bilan tanishib chiqishganidan keyin ota-onalar ota onalar og`zini biror narsa bilan berkitgan hola hayvonlar ovozlariga taqlid qiladi va eshitish orqali bolalar hayvolarning ovozlarini ajrata olishishi kerak. Natijada bolalar hayvonlarni tanib olishadi va tovushlarni ajratishni o`rganadi.

**Foydalangan adabiyatlar**

1.LogopediY( pod red .A.S .volkovoy )M.:vlados.2003 g
2.Muminova L,Ayupova M.LogopediY.T.: Oqıtıwshı 1993 y

## II SEKCIYA
## MEKTEPKE SHEKEMGI BILIMLENDIRIWDE XALIQ ARALIQ TÁJIRIYBELER HÁM ZAMANAGÓY TENDENCIYALAR

# MILLIY TARBIYA JARAYONIDA BOLALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

**Jumasheva G.X. - p.f.d., professor, Sh.Daniyarova – 1 kurs magistrant, J.Paraxatova – 1 kurs talabasi NDPI**

**Annotatsiya:** Maqolada oila tarbiyasining milliy xususiyatlarining bola shaxsiga ta'sirining pedagogik shart-sharoitlari yaratish yo'llari ochib berilgan. Shu bilan birga oila tarbiyasining milliy xususiyatlarining bola shaxsiga ta'sirining pedagogik shart-sharoitlarini yaratish yo'llarining nazariy asoslarini ilmiy izohlab berilgan .

**Kalit so'zlar:** Tarbiyasi, milliy, bola, shaxs, pedagogik, shart-sharoitlar, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy, jamiyat.

Mustaqillik yillarida yangi avlod erkin, tanqidiy, ijodiy va mustaqil tafakkurga ega, mustamlakachilik davrida o'sgan avloddan farqli, ijtimoiy qo'rquvdan va milliy nomukammalik tuyg'usidan xoli, siyosiy va ijtimoiy faol, izlanuvchan va omilkor, milliy va jahon madaniyatidan xabardor, yuksak ma`naviyatli shaxs bo'lib shakllanishi lozim, degan vazifa ko'ndalang qo'yildi. Bunday muhim vazifani hal etishda milliy tarbiyaning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Chunki milliy tarbiya, jadid bobolarimiz idrok etganidek, ta`lim va tarbiyani boshqa tsivilizatsiyalarga moslashtirish emas, balki dunyodagi ilg'or tsivilizatsiyani o'rganib, uni milliy madaniyatga xizmat ettirish, ta`lim va tarbiyani yangi sharoitda, mustaqillikni mustahkamlash talablari bilan boyitib, amalga tatbiq etishdir.

«Milliy tarbiya» tushunchasi ko'p qirrali tushunchadir. Uning:

- milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyat;

- umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli;

- xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirish (YUNESKO tamoyili) vositasi;

- O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsad, vazifa va tamoyillarining tarkibiy qismi;

- turli millat bolalarini har tomonlama rivojlantirish jarayonining xususiy, ma`naviy manbai;

- bolalarni axloqiy, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, go'zallik, iqtisodiy, ekologiya va boshqa yo'nalishlarda tarbiyalashning bosh tamoyili;

- millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash va buning natijasida O'zbekistonda umumfuqaroviy totuvlikka erishishning insonparvarlik yo'li va vositasi;

- ijtimoiy tarbiya va maktab tarbiyasi uyg'unligining pedagogik sharti;

- insoniyatni umumbashariy uyg'unlikka olib borishning pedagogik yo'li;

- ijtimoiy-ma`naviy jabhada milliy xavfsizlikni ta`minlashning strategik ob`ekti va vositasi;

- bolalarda milliy (avto va getero) stereotiplarni maqsadli shakllantirish, ma`naviy boyitish jarayoni ekanligi shundan dalolat beradi.

Milliy tarbiyaning yuqoridagi yo'nalishlarni qamrab oluvchi tizimi hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan yuksak ma`naviyatli shaxsni shakllantirish kontseptsiyasi qoidalariga to'la mos keladi. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, milliy tarbiyaning bosh maqsadi – yuksak ma`naviyatli shaxsni shakllantirishdir.

Ma`lumki, yuksak ma`naviyatli shaxs deganda ham aqliy, ham axloqiy, ham jismoniy kamol topgan, moddiy va ma`naviy hayot uyg'unligini o'zida mujassam etgan, mustahkam milliy g'urur va iftixor tuyg'ulariga ega ma`naviy jasorat egasi tushuniladi. Bunday insonning ulg'ayishi va kuch-qudrati manbaini – ma`naviyat tashkil etadi.

«Ma`naviyat» tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma`rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida ifoda etadi. Shuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma`nodagi «ma`naviyat» tushunchasi orqali ifoda etish mumkin.

Ma`naviyat va milliy tarbiyaning o'zaro uyg'unligini ko'rib chiqar ekanmiz, milliy trabiya mazmunini eng yaxshi qoraqalpoq oilalarida amal qilgan va amal qilib kelayotgan tarbiya mazmuni, shuningdek, mustaqillik sharoitida davlat va jamiyat

maktab tarbiyasiga qo’ygan talablardan mujassamlangan fazilatlar hosil qilishini ta`kidlab o’tish zarur. Muayyan fazilatlarning izchil, turli vaziyatlarda, turli vositalar yordamida singdirilib, tuzatilib, takomillashtirib borilishi, pirovard natijada, davlat va jamiyat, oila, mahalla, ta`lim muassasalari uchun yuksak ma`naviyatli shaxs qiyofasida mujassamlashadi. Mazkur jarayonda ma`naviyatni shakllantiradigan boshqa mezonlar – ma`naviy meros, madaniy boyliklar, ko’xna tarixiy yodgorliklar, xalq og’zaki ijodi, ta`lim-tarbiya bilan birgalikda oila alohida dolzarblik kasb etadi.

Oila va jamiyat bir-biriga chambarchas bog’liq holda rivojlanadi. Oila – jamiyat negizi. Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o’zining ko’p asrlik mustahkam va ma`naviy tayanchlariga ega bo’ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab va ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi.

Demak, oila instituti jamiyat hayotiy faoliyatida ulkan ahamiyatga ega ekan, oila pedagogikasi fani doirasida uning rivojlanish qonunlari, barqarorligi va mustahkamligi omillarini aniqlash, mazkur jarayonda milliy qadriyatlarning o’rnini tadqiq etish, ularning amal qilish xususiyatlari bo’yicha ilmiy xulosalar chiqarish muxim amaliy ahamiyat kasb etishi tabiiy. Shu bois, oila mustahkamligini saqlash, muqaddasligini kelajak avlod ruhiga singdirish bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Abdullayev M va boshqalar. Ma`naviyat. – Farg’ona, 1999. – 22-bet.
2. Aleuov U. Xalq pedagogikasida bolalarga aqliy tarbiya berish an`analari.(Monografiya). Nukus. «Qaraqalpaqstan», 2018.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 19-20-betlar.
4. Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga kuramiz. -T.: O’z bekiston, 2017. – 488 b.


## MEKTEPKE ShEKEMGİ JASTAĠI BALALARDI EKONOMİKALIQ TÁRBIYALAWDIŃ OZINE SAY ÓZGESHELIKLERI


**R.Aleuova - pP.i.k., docent**
**Ájiniyaz atındaġı NMPİ**


Jas awladqa ekonomikalıq bilim hám tárbiya beriw arqalı olar jámiyetlik turmıstaġı qarım-qatnasıqlarġa tayarlanadı. Sonlıqtan da, mektepke shekemgi

bilimlendiriw shólkemleri pedagog-tárbiyashılar jámááti ekonomikalıq tálimniń sonday sistemasın júzege keltiriw kerek, ol balalardıń ruwhıy, sociallıq, ekonomikalıq kóz-qaraslarıń hám túsiniklerin qáliplestiriwshi qural sıpatında xızmet etiwi zárur.

«Erte hám mektepke shekemgi jastaǵı balalar rawajlanıwına qoyılatuǵın mámleketlik talaplar»da mektepke shekemgi jastaǵı balalardı dáslepki ekonomikalıq túsinikler menen tanıstırıw wazıypaları belgilep berilgen [1]. Bunda tiykarınan 5 jastan 7 jasqa shekem bolǵan balalarga bazar, satıwshı, satıp alıwshı, bank, pul, plastik kartochka, terminal haqında dáslepki túsiniklerdi beriw kórsetip ótilgen edi.

Sonday-aq, mektepke shekemgi jastaǵı balalarǵa ekonomikalıq bilim beriwde dáslep tárbiyashı-pedagoglar ekonomikaǵa say bilim, túsinik hám maǵliwmatlar menen qurallanǵan bolıwları hámde tómendegi bilimlerdi biliwi lazım boladı:

- Ekonomikanıń insan turmısında tutqan ornı hám onıń rawajlanıw principleri hám teoriyalıq tiykarların;

- zárurli turmıslıq mutájlikler hám olardı balalar iskerliginde qollana alıwi;

- balalarǵa ekonomikalıq bilim beriw arqalı ekonomikalıq sana, ekonomikalıq mádeniyattı tárbiyalaw zárur.

Demek, mektepke shekemgı jastaǵı balalarǵa ekonomikalıq tárbiya beriwdıń maqseti balalarǵa ekonomikaǵa say bilim hám maǵlıwmatlar beriw arqalı ekonomikalıq qublıslar mazmunın túsinib jetiw hám olardı ekonomikalıq iskerlikke baǵdarlawdan ibarat [2:247].

Al, bul maqsetti ámelge asırıw ushın mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń pikirlew sheńberin keńeytiw hám tereńlestiriwge múmkinshilik jaratıwshı túrli wazıypalardı islep shıǵıw; bul wazıypalardıń ámelge asıwına múmkinshilik jaratıwshı sharayat jaratıw; ekonomikalıq bilimlerdi iyelewge tiykar bóliwshi logikalıq-matematikalıq pikirlewdi rawajlandıratuǵın oyınlar kompleksin ámelge asırıw zárúr.

Balalardı ekonomikalıq tárbiyalaw waziypaları bolsa tómendegilerden ibarat:

1. Mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń jámiyettiń ekonomikalıq rawajlandırıw principleri hám nızamlılıqları menen tanıstırıw arqalı olardı ekonomikalıq bilimler menen qurallandırıw;

2. Ekonomikalıq túsinikler mazmunın ańlaw, óziniń kúndelikli iskerliklerinde sanalı túrde qollay alıw uqıplılıqların qáliplestiriw;

3. Balalarda ekonomikalıq oylaw elementlerin qáliplestirip ekonomikalıq mashqalalardı analiz etiw, parıqlay aliw, dálillew hám ulıwmalastırıw kónlikpelerin payda etiw;

4. Oqıtıwdıń zamanagoy metodları, shólkemlestiriwshı formalarinan paydalanıw.

Sonday-aq, balalardı jas waqtınan baslab-aq dógerek átiraptaǵı milliy qádiryatlarǵa húrmetin arttrıwǵa, hár qanday materiallıq baylıq insan miynetiniń ónimi ekenligin jáne onı saqlap-abaylawǵa úyretip barıw zárúr. Balanıń jámiyetlik hám jeke buyımlarǵa bolǵan munásiybeti dáslepki jas dáwirlerinen baslap shańaraqta, shańaraq aǵzalarınıń jeke hám jámiyet múlkine bo'gan munasiybetinen baslanadı. Álbette, jas áwladtıń únemlilik, isbilermenlik, uqıplılıq sıyaqlı qásiyetlerin qáliplestirmey turıp kámil jeke adamdı tárbiyalap bolmaydı. Sebebi, balanıń insan miynetiniń ónimine, jámiyet múlkine tuwrı munásiybetti, onı saqlap-abaylaw, bayıtıwǵa ules qosıwǵa degen tilegi artıp baradı.

Balalar jámiyetlik turmısta júz berip atırǵan waqıya hám hádiyselerdi birden túsinip alıwǵa qınaladı. Qala berdi, olardıń jas ózgeshelikleri hám rawajlanıw dárejeleri oǵan kesent etedi. Sonlıqtan, balalardıń kúndelikli turmısında dus keletuǵın ekonomikalıq túsinikleri mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde alıp barılatuǵın tálim-tárbiyalıq proceslerde mazmunı túsindirilip barılıwı lazım.

Sol sebepli de, tárbiyashılar tómendegilerdi ámelge asırıwı zárúr:

-Balalarda bar bolǵan ekonomikalıq túsiniklerdi anıqlastırıwı hám tereńlestiriwi, olarda bilimlerdi ámeliyatta qollanıw boyınsha kónlikpelerdi rawajlandırıw;

-Ilay, tawar, qaǵaz benen islegende onı únemlep isletiw, onı tez hám sulıw etip islew, material hám waqıttıń sarıplanıwın esapqa alıw;

-Shınıǵıwlardaǵı materialdı turmıs penen, shańaraq penen, shańaraqlıq biznes hám basqalardı kún tártibine qoyılǵan wazıypalar menen baylanıstırıw;

-Ámeliy shınıǵıwlarda islep shıǵarıw-ekonomikalıq mazmunǵa iye bolǵan máselelerdi dúziw hám sheshiw, reje, jumıs ornın durıs shólkemlestiriw, miynetti ilimiy shólkemlestiriw elementlerin en jaydırıwdan paydalanıw;

-Únemlilik, esap-kitaplardı, tártiplilikti, juwapkershilikti hám jeke adamnıń basqa ekonomikalıq túsiniklerin tárbiyalaw;

-Balalarǵa miynet procesi hám onıń nátiyjelerin talqılawdı úyretiw h.t.b.

Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde balalarga dáslepki ekonomikalıq bilimler beriw tiykarınan orta topardan baslap shólkemlestiriledi. Balalarǵa ekonomikalıq bilim beriw, olardıń logikalıq pikirlewin ósiriw, isbilermenlik, únemlilik sıpatların qáliplestiriwǵe qaratılǵan proces esaplanadı.

Orta topar balalarına tómendegı dáslepki ekonomikalıq túsinikler beriledi:

1-Insan hám onıń mútájlikleri;

2-Insan hám ekonomika;

3-Pul, ónimlerdi satıp alıw hám almastırıw tiykarında shólkemlestiriledi.

Insan ushın zárur bolǵan turmıslıq mútájlikler (kiyimler, azıq-awqat h.t.b.), únemlilik haqqında (suwdı, waqıttı), mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerindegi hám úydegi úskenelerden (oyınshıq, kitap h.t.b.) únemlilik penen paydalanıw, waqıt haqqında dáslepki túsinik beriw arqalı waqıttı únemlew, miynet insan ómirindegi tiykarǵı iskerligi ekenligi, bazar, onıń túrleri, satıwshı, satıp alıwshı, pul háqqinda túsinikler berilip barıladı.

Átiraptaǵı álem menen tanıstırıw shınıǵıwlarında "Nan hám suw bizler ushın áziz", "Úy buyımları", "Asxana buyımları", "Diyhanlar miyneti haqqında", "Baǵban", "Aspaz", "Qurıwshı" sıyaqlı temalarda sáwbetler ótkeriledi.

Úlken toparda tómendegi:

1-Insan hám onıń mútájlikleri;

2-Insan hám ekonomika;

3-Pul, ónimlerdi satıp alıw hám almastırıw tiykarında shólkemlestiriledi.

4- Islep shıǵarıw, miynet iskerligi bólimler tiykarında ekonomikalıq bilim beriledi, balalarga ekonomikalıq sananı qáliplestiriw, óz betinshe pikir jurite alıw,

puldan durıs paydalana alıw, pul bahası, milliy valyutamız, mámleketimiz rawajlanıwındağı kúshi, xızmeti haqqında túsinik beriledi.

Átiraptağı álem menen tanıstırıw shınıǵıwlarında «Baylanıs quralları», «Hawa» transportı hám «Jeke gigiena», «Vitaminler», “Pul ne?", “Puldı saqlaw”, "Azıq-awqat dúkanına seyil" sıyaqlı temalarda sáwbetler ótkeriledi.

Mektepke tayarlaw toparında tómendegi:

1-Insan hám onıń mútájlikleri;

2-Insan hám ekonomika;

3-Pul, ónimlerdi satıp alıw hám almastırıw tiykarında shólkemlestiriledi.

4- Islep shıǵarıw hám onıń túrleri hámde miynet processi bólimlerinde balalarǵa ekonomikalıq bilimler beriw mazmunı tárepinen bir qansha keńeytirilib, bunda "múlk”, shańaraq byudjeti, “bank", "import", "eksport" sıyaqlı túsinikler beriledi.

Átiraptağı álem menen tanıstırıw shınıǵıwlarında “Jumıs islew ushın kimge ne kerek?", "Baǵban-baǵban", “Neniń ornı ózgerdi" oyınlar, "Únemlilik jaqsı ádet”, "Pul ne?” "Bazar túrleri”, "Oyınshıqlar hám olardıń jaratılıwı”, "Bank ne”, "Dúkan túrleri", "Nez at qay jerde islep shıǵarıladı?", "Islep shıǵarıw hám onıń túrleri” temalarında sáwbetler ótkeriledi.

Demek, balalardı ekonomikalıq bilimler menen qurallandırıw, olardıń keleshegin támiyinlewdegi qural bolip tabıladı.

Ádebiyatlar:

1. «Maktabgacha ta`lim va tarbiyaning davlat ta`lim standarti» Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabr 802-sonli qarori.
2. Kodirova F.R. va boshk. Maktabgacha pedagogika. Toshkent.-2019
3. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. – T.: Fan va texnologiya, 2018.

## AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI KASBIY FAOLIYATGA YO‘NALTIRIB O‘QITISH

**Allambergenova M.X. - p.f.d.(DSc)**
**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti**
**Informatika o‘qitish metodikasi kafedrasi**

Jahonda bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot kompetentlikni elektron ta’lim sharoitida rivojlantirish bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda

tadqiqotlar olib borilmoqda: elektron ta’lim texnologiyalarini loyihalash va qo‘llashning yangi nazariy konsepsiyalarni ishlab chiqish; elektron ta’lim resurslarining didaktik vositalari tuzilmasi bloklari mazmunini maqbullashshtirish orqali o‘qitish jarayonini takomillashtirish; elektron ta’lim resurs vositalarining o‘qitish jarayoni sifatiga ta’sirini baholash metodikasini ishlab chiqish; elektron ta’lim resurslarining dasturiy-metodik ta’minotini yaratish; bo‘lajak pedagoglarning axborot kompetentligini rivojlantirish didaktik parametrlarini aniqlashtirish; refleksiv yondashuv asosida zamonaviy ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning individual ta’lim traektoriyasini takomillashtirish.


Bugungi kunda axborot texnologiyalariga doir bilimlarga ega bo‘lish bo‘lajak mutaxassisning moslashuvchan ko‘nikmalaridan (Soft skills) biridir. Pedagogika ta’lim sohasi Davlat ta’lim standarti va malaka talablarida axborot texnologiyalarini o‘qitishda kasbiy xususiyatlarni hisobga olish, uning bitiruvchilarning bo‘lajak kasbiy faoliyati vazifalarini amalga oshirishga yo‘naltirishni talab etadi. Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatga yo‘naltirib o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri raqamli transformatsiya sharoitiga muvaffaqiyatli moslashishga imkon beradigan axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishdan iborat. Talabalarda laboratoriya va tabiiy eksperimentlarni imitatsiya qilish imkonini berish hamda murakkab masalalarni echish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur [3].

Bakalavriat yo‘nalishlarida axborot texnologiyalaridan tayyorlanadigan o‘quv materiallari kasbiy yo‘nalganlik tamoyiliga uygun tarzda tizimlashtirilishi kerak. Demak shu nuqtai nazardan axborot texnologiyalarini o‘rganishning asosiy vazifasi ta’lim olganlik, tanlangan mutaxassislik sohasidagi eruditsiyani oshirish bo‘lishi kerak. Buning uchun axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatga yo‘naltirib o‘qitishda quyidagi yo‘nalishlarni hisobga olish lozim: mutaxassislik fanini o‘qitish jarayoniga axborot texnologiyalarini qo‘llay olish, elektron ta’lim vositalarini yaratish va undan foydalanish, axborot-kommunikativ komepetentlikni rivojlantirish va boshqalar.

**O‘qitish mazmunini kasbga yo‘naltirish** deganda talaba tomonidan o‘zlashtirilayotgan bilimlarni uning kelgusi faoliyatida tutgan o‘rni, nazariya va amaliyot birligi, ta’lim-tarbiyaning uzviyligini amalga oshirish orqali shaxsning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirishni ta’minlash tushuniladi.

Mavjud yondashuvlarni tahlil qilish asosida “Axborot texnologiyalarini kasbga yo‘naltirib o‘qitish” tushunchasi kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo‘llashga qobiliyatli bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini faol va ijodiy shakllantirishga yo‘naltirilgan hamda uni egallagan bilim va ko‘nikmalarni fanning turli sohalari va ishlab chiqarishga tatbiq eta olishiga imkon beruvchi jarayon sifatida talqin qilindi.

Tahliliy materiallar asosida axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatga yo‘naltirib o‘qitishning mantiqiy tuzilmasi aniqlashtirildi (1-rasmga qarang).




**1-rasm. Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatga yo‘naltirib o‘qitishning mantiqiy tuzilmasi**

1-rasmda aks etgan mantiqiy tuzilmaga muvofiq, axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatga yo‘naltirib o‘qitish va bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi elementlari o‘rtasida o‘ziga xos muvofiqlikni o‘rnatish mumkin. Talabalarning nazariy-metodologik tayyorgarligi bevosita kasbiy faoliyatga tayyorgarlikning psixologik komponentini rivojlantirish bilan bog‘liq. Psixologik-pedagogik va metodik tayyorgarlik jarayonli hamda bevosita psixologik va ilmiy-nazariy komponent mazmunini shakllantirishga xizmat qiladi. Fanga doir tayyorgarlik axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatga yo‘naltirib o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishning ilmiy-nazariy komponentini rivojlantirish bilan bog‘liq [1].

Zamonaviy axborot texnologiyalar ta’lim tizimida qo‘llanishi mavjud bo‘lgan ko‘pgina tushunchalarni ham mazmunan, ham mohiyatan qayta ko‘rib chiqishni taqqoza etdi. Shu bois, ta’lim va o‘qitish jarayonlariga boshqacha yondashuv hamda e’tibor bilan qarala boshlandi. Ta’lim jarayoni deyilganda o‘qituvchi va talaba o‘zaro munosabatidagi yaxlit jarayon ko‘z oldimizga keladi. Endilikda ushbu jarayon elektron ta’lim resurslari, video va audio kassetalar, komp’yuter dasturlari, televizion va radio o‘quv kurslari bilan uyg‘unlashib bormoqda. Bu jarayonda o‘qitish talabaning ko‘proq ichki imkoniyatlari, intellektual potentsiali, axborotni qabul qilish va o‘zlashtirish xususiyatlariga bevosita bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatga yo‘naltirib o‘qitishda elektron ta’lim resurslardan foydalanish talabalar bilish faoliyatini oshiradi, ta’limiy va tarbiyaviy vazifalar bajariladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алламбергенова М.Х. Электрон таълим ресурслари воситасида ахборот технологияларини касбий фаолиятга йўналтириб ўқитишнинг дидактик имкониятлари. // Ilim hám jámiyet. – Nókis, 2024. №3. 98-100 B

2. Ҳамдамов Р., Тайлақов Н., Бегимкулов У., Сайфиев Ж. Электрон университет. Электрон вазирлик. Масофавий таълим технологиялари. – Т.: «Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2011.222 Б.

# TALABALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH MEZONLARI VA KO‘RSATKICHLARI

**M.R. Abdullayeva**
**Urganch davlat pedagogika instituti, mustaqil tadqiqotchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada talabalarni ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini takomillashtirish mezonlari, ko‘rsatkichlari va talabalarni barkamol rivojlanishini ta'minlovchi hayotga, qadriyatlarga asoslangan munosabatni shakllantirish, axloqiy ong, his-tuyg'ular, xatti-harakatlarga asoslangan ta'lim tizimi haqidagi fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** talabalar, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, metodika, takomillashtirish, kasbiy pedagogik faoliyat, o'z-o'zini rivojlantirish, ma'naviy-axloqiy kompetentsiya.

Dunyoda yangi ming yillikning boshlanishi ma'naviyat va axloq muammolariga qiziqishning ortishi bilan tavsiflanadi. Hozirgi vaziyatning murakkabligi shundaki insoniyat nafaqat shaxslarga ta'sir qiladigan tsivilizatsiya balki, har bir inson madaniyati va ma'naviy inqirozini hal qilish zarurati bilan yuzma-yuz turibdi.

Bugun O‘zbekiston Respublikasida yangi bozor munosabatlarining rivojlanishi, davlatning tobora kuchayib borayotgan siyosiy mustaqilligi, jamiyatning deideologizatsiyasi, dinning tiklanishi - bularning barchasi muqarrar ravishda o‘rnatilgan qadriyatlar tizimini ijtimoiy-madaniy makonda o‘zgarishlarga olib keldi. Ta'lim amaliyotlari, shu jumladan undagi qadriyatlar tushunchasini yangilash, shaxsga maqsadli, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatmasdan, uni boyitmasdan jamiyatni takomillashtirish mumkin emas. Jamiyatda milliy demokratik islohotlar jarayonida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash maqsadi - insonning barqaror va barkamol rivojlanishini ta'minlovchi hayotga, qadriyatlarga asoslangan munosabatni shakllantirish, axloqiy ong, his-tuyg'ular va xatti-harakatlarga asoslangan ta'lim tizimi katta rol o'ynaydi.

Yangi ijtimoiy sharoitlarda talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash murakkab yaxlit jarayon bo'lib, o'qituvchilardan tegishli kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. Bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini nazariy va amaliy ta'minlovchi o'rnatilgan pedagogik tizim zarur. Talabalarning kasbiy rivojlanishida, talabalarni turli

mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlashda ma'naviy-axloqiy jihatlarini takomillashtirish asosiy vazifa sanaladi.

Ushbu fikrlarga asoslanib, biz bo'lajak o'qituvchilarning eng yuqori darajadagi tayyorgarligi bilan kasbiy va shaxsiy qarashi maktab o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasi haqida tasavvur mavjudligi, ma'lum bir harakatning modellari va ongning uni amalga oshirishga yo'nalishi, pedagogik faoliyatning tegishli turini amalga oshirishda unda alohida ruhiy holatning namoyon bo‘lishi, kasbiy va shaxsiy qarashlarning namoyon bo'lishi muhimdir.

Bizning tadqiqotimizda oliygoh talabasi uchun bo'lajak o'qituvchi kasbiy va shaxsiy qarashlarini shakllantirish mezonlarini o'rganish katta ahamiyat kasb etib, pedagogik tadqiqotlar uchun tadqiqotga yo'naltirilgan hodisa (jarayon) mezonini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, keling, "Mezon" tushunchaning ta'riflarini ko'rib chiqaylik va biz kelajakdagi o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy qarashlarini shakllantirish mezonlarini aniqlab olamiz. Mezon (yunoncha kriterion - degan ma'noni bildirib, hukmlar) - buning asosidagi xususiyat biror narsani baholash, baholash o'lchovi aniqlash yoki tasniflash amalga oshiriladi, [3].

Mezon - bu narsaga asoslanib baholanadigan xususiyat, o'lchov, ob'ektni o'lchash imkonini beruvchi an'anaviy qabul qilingan o'lchov va shu asosda baho berish [4].

Shunday qilib, mezon ba'zi bir hodisani amalga oshirishda maqsadga erishish darajasi baholanadigan xususiyat, miqdoriy o'lchov. Ko'rsatkich olimlar tomonidan hodisalar o'ziga xos jarayonning sifatlari mohiyatining namoyon bo'lishi mezonning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shunday qilib, mezon pedagogik hodisaning xususiyatlari, ob'ekt bir nechta yoki hatto ko'p ko'rsatkichlarga ega bo'lishining umumiy sifatining o‘lchovidir.

Bizning tadqiqotimizda bo‘lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy qarashlari ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga tayyorgarlik sifatini oshirish ko'rsatkichi va mezonlari quyidagilardan: o'z-o'zini hurmat qilish, qiymat-semantik (shaxsning o'zini o'zi anglashi), proyektiv-faollik (eksperimental va pedagogik

faoliyatni faollashtirish), analitik (kasbiy aks ettirish, kasbiy o'zini o'zi baholash) komponentlardan iboratdir Ko'rsatilgan pedagogik faoliyatni boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan amalga oshirish kasbiy va shaxsiy qarashlarini shakllantirish, ularning xususiyatlarini inobatga olishda o'z aksini topganıo

1-jadval.

**Talabalarning kasbiy va shaxsiy qarashlarining tashxis modeli**

| **Mezonlar** | **Ko‘rsatkichlar** | **Tashxis metodlari, shakl va vositalar** |
|---|---|---|
| **Talabalarning kasbiy va shaxsiy qarashlari** | | |
| **Qadriyatli-mantiqli** | talabalarda boshlang'ich sinf o'quvchisining ma'naviy-axloqiy, o'z-o'zini anglashi va shaxsini shakllantirish yuzasidan xabardorlik munosabatini baholash | T.V. Dembo, S.Ya. Rubinshteynlarning o'z-o'zini hurmat qilishga asoslangan ta'lim holati, o'qitish usullari, anketalar, testlar, tahlillar, introspektsiya; tadqiqot metodologiyasi. |
| **Loyihaviy-faoliyatli** | talabalarning pedagogik loyihalar faoliyatida ishtirok etish mazmuni shaxsni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash qoidalaridan iborat bo'lgan amaliyot faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy va pedagogik himoya qilish | V.I. Andreeva, E.F.Zera, N. Shaxmatovalarning anketa, test, portfolio metodikalari |
| **Tahliliy** | ushbu muammoni kasbiy o'z-o'zini aks ettirishni hal qilish uchun amaliy faoliyatda ishtirok etish darajasini aks ettiruvchi kasbiy o'zini o'zi baholash | A.V.Batarsheva, A.A. Mehrabyan, V.V. Boyko, L.M.Mitina, K.Muzdiboeva-larning testlari, anketa so'rovlari, testlar, o'z-o'ziga hisobotlar, avtobiografik usullar, |

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, belgilangan mezonlarni hisobga olgan holda, talabalarning kasbiy va shaxsiy qarashlarini shakllantirish darajalari - motivatsion-axborotli usulda faoliyat manbalarini shaxs tomonidan tashqi va ichki omillarning o'zaro bog'liqligi mexanizmlarini belgilanadi. Faoliyatning muayyan shakllarining paydo bo'lishi, yo'nalishi va usullarini belgilaydigan xatti-harakatlar; shuningdek, ma'naviy-axloqiy tarbiyaga muvaffaqiyatli tayyorgarlik ko'rish uchun ob'ektiv shart-sharoitlar yig'indisi masalasi ko'rib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 - yil 31- dekabrdagi 1059-son Qarori. https://lex.uz/docs/-4676839

2. Abdullayeva M.R. Pedagogik yo‘nalishdagi talabalarning huquqiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi. “Pedagogika” jurnali. – Toshkent. 2025 y. 1-son. - 294 -300 b.

3. Борытко, Н.М. Методология и методы психолого-педагогических исследований[Текст]: учебное пособие для студ. высш. учеб, заведений / Н.М. Борытко, А.В. Моложавенко, И.А. Соловцова; под ред. Н.М. Борытко. - М.: Академия, 2008. - 320 с.

4. Педагогика: большая современная энциклопедия [Текст] / сост. Е.С. Рапацевич. - Ми.: Современное слово, 2005. - 720 с.

**5**. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik.: “Nodirabegim” nashriyoti, – Toshkent 2021. – 598 b.

## OILA VA MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARINING BOLA TARBIYASIDAGI HAMKORLIGI

**G.B. Djumabayeva**
**Nukus DPI, Maktabgacha tarbiya va defektologiya kafedresi assistent-o’qutuvshisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oila jamiyatning asosiy bo'g'ini, bola tarbiyasida oilaning o'rni beqiyos. Bolaga talim tarbiya berishda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ota-onalar bilan jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash qanshalik ahamiyatga ega. Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo‘lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hisoblanadi. Bolanitarbiyalshda ijobiy natijalarga erishish ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:**Oila, MTT, bola, bola tarbiyasi, oila tarbiyasi, tarbiyachi, ota-onalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Zamonaviy maktabgacha ta'lim sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rin tutadi" deya ta'kidlaydi.

Maktabgacha ta'lim tizimiga tegishli O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 31.12.2019 yildagi 1059-sonli “Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasini rivojlantirish va uni amalga ko'rsatish chora-tadbirlari” 16-bo'lib o'tgan uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalda rivojlantirish choralari shaxsiy, oilada uzluksiz ma'naviy tarbiya mashqlari: tajriba, o'yin turlari yaralanganda predmetlar, namunaviy xulq, xatti-harakatlari bilan tanishish, taqlid xodimlari kattalarning ma'naviy-axloqiy tajribasiga qaratish; o'ning va boshqalarining xatti-harakatlarini kuzatish, baho berishga o'rganish; ilk ma'naviy-tarbiyaviy motivlarni shakllantirish;

o'ziga-o'zi xizmat qilish, kundalik turmushda xavfsizlik ko'nikmalarini o'zgartirish ishlari tashkil kursatilgan.

Asosiy, maktabgacha tarbiyachi oila va MTM hamkorligida bolalarni tarbiyalash muammolarini ijobiy halokatga olib kelish, tarbiyalash va ota-onaning hamkorligining shaxsni tarbiyalashdagi, oila va MTM hamkorligida tarbiyaviy roli bilan bog'liq muammolar haqida gap boradi.

Pedagogika fanlari doktori, professor J.Xasanboev va boshqalarning Pedagogika fanidan izoxli lugatida: «Madaniyat - arab suzidan olingan bulib, u jamiyatni ishlab chiqarish, ijtimoiy va manaviy hayotida qulga chiqqan yutuklari majmuidir va bu shaxs xulq-atvori, muomalasi va xati-ketlik asosida shakllangan tizimi”-deb berilgan. Bu lugatda «Ma'naviyat»-(arabcha - ma'naviylar majmui) - kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, ruhiyatlari va tushunchalari majmui va mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlari bilan bog'liq tushunchalar sifatda taqdim qiladi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu albatta davlat rahbarining maktabgacha ta'lim sohasida chiqarayotgan qarorlari va e'tiborlari natijasidir. Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi. Qanday qilib ta'lim jarayonini mushkullikdan quvonchli jarayonga aylantirsa bo'ladi? Shuni aytib o'tish joizki, sifatli ta'lim birinchi navbatda ta'lim beruvchi tarbiyachining kasbiy mahoratiga bog'liqdir.

Albatta mashg'ulotlar tarkibiga yangiliklarni kiritish, ilg'or ish uslublari va metodlarni qo'llash ta'lim sifatini oshirishga olib keladi. Bu esa o'z o'rnida tarbiyachilardan kasbiy mahorat talab etadi. Barchamizga ma'lumki, bola uchun birinchi va eng mukammal tarbiyachi bu ota-onadir. Shunday ekan, oila bilan hamkorlik masalalari, ayniqsa bola tarbiyasida atalar o'rni muhimligiga alohida e'tibor garatish lozim.

Bolaga oilada yaxshi tarbiya berish bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlaboq, ota-ona oldida turgan asosiy maqsad va vazifalardir. Ya'ni ota-ona uchun ham qarz, ham farzdir, oila bolaga ta'sir ko'rsatadi, uni atrofidagi hayotga moslaydi.

- birinchidan ota-onalarning fikri, nuqtai nazarini tinglang, ularning maqsadlarini, havotirlarini tushunishga harakat qiling;
- agar muammo bo’lsa, ota-onalarga murojaat qilishdan avval uni mohiyatini aniqlashtirib oling;
- o’zingiz va ota-onalaringiz bu vaziyatda nima qilish mumkinligini so’rang;
- imkon qadar masalaning ko’proq hal etish yo’llarini muhokama qiling va ikkala tomon uchun maqbul variantni tanlang;
- qaror doirasida har bir tomonning xatti-harakatini muhokama qiling;
- bir-birlari bilan aloqa qilish muddati va usullari to’grisida kelishib oling;
- ota-onalarining tarbiyaviy ko’nikmalarini faollashtirish va boyitish hamda ularning o’zlaridagi pedagogik imkoniyatlarga nisbatan ishonchlarini qo’llab-quvvatlash;
- tarbiyanuvchilarning oilalari bilan doimiy hamkorlikni yo’lga qo’yish.
- ota-onalarni ragbatlantirish.

Tarbiyachilar va ota-onalarning bola ongiga ta’siri qarama-qarshi bo’lmasligi, aksincha uyg’unlashgan bir-birini to'ldirgan holda, bola ijobiy va faol tarzda qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga erishish uchun pedagoglar va ota-onalar o’zaro hamfikr, maslakdosh bo’lishlari, turli muammo va masalarni hamkorlikda hal etishlari darkor.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bola huquqlari to’g’risida konventsiya. “Bola huquqlarining kafolatlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni. – T.: Inson huquqlari bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. – 34 bet
2. O’zbekiston Respublikasining Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. Toshkent. 2020, 23 sentyabr. 25 b.
3. O’zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim-tarbiya to’g’risida”gi Qonuni. Toshkent. 2019, 16-dekabr. 40b.

4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

5. Ушинский К.Д. Избр.пед.соч. / Под ред. А.И.Пискунова, Г.С.Костюка и др. –Москва, 1974, -Т.1, -147 с.

## BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QISH SAVODXONLIGI VA NUTQ O‘STIRISH METODIKASI

**Ollaberganova S.X. - f.f.n., dots., S. Xasanova - o‘qituvchi**
**UrDU., “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi mudiri**

Yangi avlod darsliklarini yaratish-davr talabi. “Farzandlarimizni mustaqil fikrlashga, zamonaviy bilim va kasb-hunarni chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi”, deb o‘z ma’ruzalarida ta’kidlab o‘tgan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ana shu so‘zlari biz uchun ham dasturulamaldir, ham ustuvor vazifa bo‘lib hisoblanadi. Bugungi kunda fan sohalarini tizimli o‘rganish va uning afzalliklari ta’limda yangi-yangi innovatsion yondashuvlar yuzaga kelishida davlatning o‘zi bosh islohotchi ekanligini qaror va farmonlar mazmunida ravshan belgilab qo‘yilgan.Buni ayniqsa, yangi avlod darsliklarini yaratish haqidagi fikrlari ham ta`kidlaydi. Darslik yaratish –davr talabi. Mustaqillik yillarida undan avvalgi yillardan farqli o‘laroq milliy darsliklarimizning asl qiyofasini, uning boy madaniy meros sifatidagi qadr-qimmatini ilmiy asoslab bermog‘imiz hamda jahon tajribasi andozalarini o‘z qoliplarimizga moslagan holda “Ona tili” va “O`qish savodxonligi”fanini o‘qitishning maqsadli, namunaviy, qulay va oson, ilmiy-nazariy jihatdan zamon talablariga mos shakllarini yaratishimiz zarur ekanligi kun tartibiga qo‘yildi.

Ta’kidlash kerakki, yaqin o‘tgan davrlarda amalga oshirilgan tadqiqotlar, yangicha qarashlar asosida shakllantirilgan darsliklarda adabiyotimizning,o‘zbek adabiy tilining grammatik xususiyatlarini ilmiy asoslashda uning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalashga alohida e’tibor qaratildi. Boshlang‘ich sinf “Ona tili” va “O‘qish kitobi”darsliklari Davlat ta’lim standarti va Ona tili,O‘qish fanlari dasturi

asosida tuzilgan bo‘lib, 2020-yilga kelganda Milliy o‘quv dasturining qabul qilinishi munosabati bilan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” nomi bilan qayta nashr qilindi.

Darslikning oldingilardan farqli tomonlari juda ko‘p bo‘lib, o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish, tafakkurini boyitish, fanlararo aloqadorlikni mustahkamlash, bir so‘z bilan aytganda, zamonaviy, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan xarakterlanardi. Ona tili va o‘qish fanlari ma’lumotlarining bir darslikda jam bo‘lishi bir tomondan ijobiy ko‘rinsa-da,uning salbiy tomonlari ham mavjud edi. Nazariy ma’lumotlarning nisbatan kam berilishi, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarini shakllantirishga to‘sqinlik qilardi.Ona tili grammatikasini elementar o‘rganishda ham oqsoqlik yuzaga kelgan edi. 2023-2024-o‘quv yilidan Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengash tomonidan 1-4-sinflarning “Ona tili” va “O‘qish savodxonligi” darsliklari Toshkentda, 2023-yil “Novda edutainment” nashriyotida chop qilindi. Har bir darslikning 4 qismdan iborat ekanliigi, matnlarning o‘qib tushunish,yozib tushunish, tinglab tushunishga mo‘ljallanganligi, nazariy bilimlar va amaliy topshiriqlar o‘quvchilarning o‘zbek tili grammatikasini va o‘qish savodxonligini chuqur o‘zlashtirishlarida muhim vosita sanalishi muhim sanaladi. Buni biz 2-sinf “O‘qish savodxonligi” (3-qism ) darsliigi misolida ko‘rib chiqamiz. Aydarova U.N tomonidan 2-sinf “O`qish savodxonligi” darsligi muqovasida kitobxon o‘quvchilarning rasmi berilgan bo‘lib,kitob javoniga qo‘yilgan narvon ramziy ma’noni aks ettiradi.Ya’ni, “yuksaklikka intilish”,” ilm cho‘qqilarini egallash” demakdir. Darslik 80 sahifadan iborat. 2-sahifada shartli belgilar berilgan. “Guruh bo‘lib ishlang”,”Savollarga javob bering”, “Diqqat bilan o‘qish”, “Tinglang”, “Topshiriqni bajaring”,”Yodda tuting”. “Bu-qiziq”, “Izohli lug‘at”, “Uyga vazifa” kabi shartli belgilar ostidagi topshiriqlar:

1) ko‘nikmalar shakllantirishga yo‘naltirilganligi;
2) amaliyotga yo‘naltirilganligi;
3) o‘quvchilarni mustaqil foliyatga undashi;
4) tadbirkorlik,muvaffaqiyatga intilish motivlarini rivojlantirishi;
5) tanqidiy fikrlashni o‘stirishi;

6) vatanparvarlik va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishi;

7) liderlik ko‘nikmalarini shakllantirishi bilan yangicha fikrlaydigan yosh avlodni kamol topishiga xizmat qiladi.

Milliy o‘quv dasturidagi o‘qish malakalariga qo‘yilgan talablarni bajarishga undaydigan bu topshiriqlar mamlakatimizda ro‘y berayotgan eng yangi yutuqlar qamrab olingan she’r, hikoya, ertak, maqol , ilmiy-ommabop maqola va boshqa janrlarda o‘z aksini topgan.

“O‘qish savodxonligi” darsligini o‘qitishdan maqsad quyidagicha :

1) o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish:

2) raqobatdosh va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash;

3) o‘quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash.

Darslikdagi materiallarni o‘qib-o‘rganar ekan, o‘quvchi kelajakda o‘zi mustaqil faoliyat yuritishga o‘rganadi, boqimandalik kayfiyatidan voz kechadi. Bizning hayotdagi eng katta xato va kamchiligimiz shundaki, 1-sinf o‘quvchisini ham, 11-sinf o‘quvchisini ham birdek maktabda va oilada tekshiramiz, nazorat qilamiz.Xatto bola ulg‘ayib, uylanib ham oila davrasidan, ota-ona “qanoti osti” dan chiqa olmaydi.Huquq va imkoniyatlari cheklangan. Darslikdagi matnlar esa o‘quvchilarni darsda faol bo‘lishga, o‘z ustida mustaqil ishlashga, qo‘rqoq bo‘lib qolmaslikka olib keladi. Chunki, o‘quvchi mashq bajarayotib ham xato qilishdan qo‘rqib, gapirishda andisha qiladi. Hozirda maktablarda 4 K modelining amalga oshirilayotganligi bunday hollarni bartaraf qiladi, deb o‘ylaymiz.

Darslik o‘quvchilar nutqini o‘stirishga qaratilgan matnlar orqali vatanga muhabbat uyg‘otishga, undagi insonlar mehnatini qadrlashga, ajdodlar meroslarini ardoqlashga, yangiliklarni o‘zlashtirishga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi //Adolat, 2016-yil.-8-dekabr.

2. Aydarova B.U “O‘qish savodxonligi” darsligi. Toshkent “Novda edutainment” nashriyoti 2023-yil.

# PEDAGOG TARBIYACHINING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

**D.Reymbergenova - NDPI o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda pedagog tarbiyachining kasbiy mahoratini oshirish texnologiyalari tahlil qilinadi. Pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan kasbiy kompetensiyalar, zamonaviy yondashuvlar, innovatsion usullar, AKT vositalari, mentoring tizimi, reflektiv yondashuv hamda shaxsiy motivatsiya kabi jihatlar atroflicha yoritilgan. Kasbiy rivojlanishda doimiy o‘rganish, xalqaro tajribalarni o‘zlashtirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati asoslangan. Tezisda tarbiyachilarning o‘z ustida ishlashi va malaka oshirish yo‘llari metodik jihatdan tavsiya etilgan.

**Kalit so‘zlar:** kasbiy mahorat, tarbiyachi, texnologiya, pedagogika, refleksiya, mentoring, motivatsiya, AKT, innovatsiya, rivojlanish.

Pedagog tarbiyachining kasbiy mahoratini oshirish texnologiyasi bugungi kunda ta’lim tizimining eng muhim va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Tarbiya jarayonining muvaffaqiyati bevosita tarbiyachi pedagogning bilim, ko‘nikma, malaka va eng muhimi, kasbiy mahoratiga bog‘liqdir. Ayniqsa, globallashuv, raqamli texnologiyalar kirib kelgan hozirgi zamonda tarbiyachidan nafaqat an’anaviy metodik yondashuv, balki yangicha fikrlash, kreativlik, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llay olish qobiliyati, madaniy-axloqiy yondashuvlar, shuningdek, psixologik barqarorlik talab etiladi. Kasbiy mahorat – bu nafaqat bilim, balki ularni amalda qo‘llay olish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olib, ularda ijobiy tarbiyaviy o‘zgarishlarni yuzaga keltira olish san’atidir. Shuning uchun ham pedagog tarbiyachining kasbiy mahoratini oshirish texnologiyalarini chuqur o‘rganish, ularni tizimli ravishda joriy etish, ilmiy-metodik asoslash muhim vazifalardan sanaladi.

Tarbiyachining kasbiy mahoratini oshirish texnologiyasi deganda, pedagogning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga, tarbiyaviy faoliyatdagi sifatni oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy, interaktiv, innovatsion metod va usullarning tizimli tarzda qo‘llanishi tushuniladi. Bunday texnologiyalar individual rivojlanish rejalarini tuzish, amaliy mashg‘ulotlar, mahorat darslari, treninglar, seminarlar, vebinarlar, coaching va mentoring kabi faol ta’lim shakllarini o‘z ichiga oladi. Tarbiyachining kasbiy mahoratini oshirishda shaxsiy rivojlanishning psixologik

jihatlari, pedagogik refleksiya, innovatsion faoliyatga tayyorlik, ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni shakllantirish asosiy o‘rin tutadi. Ayniqsa, bolalar bilan ishlovchi tarbiyachilar uchun psixologik barqarorlik, empatiya, kommunikativ madaniyat, jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari nihoyatda muhim hisoblanadi. Bularning barchasi zamonaviy pedagogika va andragogika talablari asosida shakllantirilgan kompleks texnologiyalar orqali rivojlantiriladi.

Kasbiy mahoratni oshirish texnologiyasining samaradorligini ta’minlashda doimiy o‘rganish va o‘z ustida ishlash madaniyatini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Har bir tarbiyachi o‘zining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qila oladigan reflektiv yondashuvga ega bo‘lishi, o‘z faoliyatini tanqidiy baholash, unga yangicha nazar bilan qaray olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Shu sababli pedagogik portfel yuritish, o‘z tarbiyaviy yondashuvlarini yozma tahlil qilish, videoyozuvlar orqali o‘zini tahlil qilish, kollegial tahlil (peer review) kabi zamonaviy yondashuvlar tavsiya etiladi. Bular tarbiyachi faoliyatining samaradorligini oshirish, faoliyatdagi xatolarni aniqlash va kelgusi rejalashda muhim vositadir. Xususan, mustaqil ta’lim oluvchilarga qaratilgan innovatsion loyihalarni yaratish, ular asosida eksperimental sinovdan o‘tkazish va natijalarini umumlashtirish, tarbiyaviy faoliyatda yangiliklarni sinov asosida qo‘llash kasbiy o‘sishga ijobiy ta’sir qiladi.

Tarbiya jarayonida pedagog-tarbiyachining mahoratini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli ortib bormoqda. Bugungi kunda onlayn ta’lim platformalari, mobil ilovalar, raqamli metodik vositalar, interaktiv dars ishlanmalari orqali tarbiyachilar o‘z faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishlari mumkin. Masalan, “Zoom” yoki “Google Meet” kabi platformalar orqali tajriba almashish, virtual seminar va treninglar tashkil etish orqali nafaqat nazariy bilimlar, balki real pedagogik tajriba ham o‘zlashtiriladi. Shuningdek, “Edmodo”, “Kahoot”, “Padlet”, “Mentimeter” kabi vositalar orqali interaktiv muhitda tarbiyaviy topshiriqlar tuzish, o‘quvchilarning faolligini oshirish mumkin. Bu esa pedagogning zamonaviy texnologiyalarni egallaganligidan dalolat beradi. Kasbiy mahorat darajasining yuqoriligi esa o‘z navbatida bola tarbiyasiga, uning shaxsiy rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Pedagog tarbiyachining kasbiy mahoratini oshirishda mentoring (usta-shogird) tizimi ham samarali usul sanaladi. Tajribali tarbiyachilar tomonidan yangi ish boshlagan yoki o‘z ustida ishlayotgan pedagoglarga metodik maslahatlar berish, darslarini kuzatib, tahlil qilish, takliflar kiritish, qo‘llab-quvvatlash orqali kasbiy o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish mumkin. Bu tizim o‘zaro o‘rganish va tajriba almashish madaniyatini shakllantiradi. Shuningdek, ichki (maktab ichida) va tashqi (hududiy, viloyat miqyosida) pedagogik kengashlar, kasbiy jamiyatlar (masalan, tarbiyachilar assotsiatsiyasi) orqali o‘zaro muloqotda bo‘lish, innovatsion g‘oyalarni birgalikda muhokama qilish va qo‘llash kasbiy salohiyatni kengaytiradi.

Tarbiyachi kasbiy mahoratini oshirishda shaxsiy motivatsiya ham muhim ahamiyatga ega. Agar tarbiyachi o‘z kasbini chin dildan sevsa, unga ishonch va mas’uliyat bilan yondashsa, u doimo yangi bilimlarga chanqoq bo‘lib, o‘z ustida ishlaydi. Shu sababli kasbiy motivatsiyani qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish, pedagogni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish, uning yutuqlarini e’tirof etish, kasbiy o‘sish uchun imkoniyatlar yaratish zarur. Jumladan, ilg‘or tarbiyachilarni e’tirof etish tizimi (masalan, “Yilning eng yaxshi tarbiyachisi” tanlovlari), kasbiy mukofotlar, grant va stipendiyalar orqali ularni rag‘batlantirish muhim o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagog tarbiyachining kasbiy mahoratini oshirish texnologiyasi — bu doimiy harakat, o‘zini yangilash, zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirishga tayyorlik, innovatsion faoliyatga intilishdir. Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ta’lim-tarbiya sifati ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Shu sababli pedagog-tarbiyachilar uchun mo‘ljallangan malaka oshirish kurslarini amaliy va individual yondashuvlar asosida tashkil etish, ilg‘or texnologiyalarni faol joriy qilish, shaxsiy va kasbiy rivojlanishga yo‘naltirilgan muhit yaratish hozirgi davrning eng muhim pedagogik vazifasidir. Tarbiyachining kasbiy mahoratini oshirish, bu – kelajak avlodni barkamol qilib tarbiyalash kafolatidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullaeva, S. (2021). *Pedagogik texnologiyalar asoslari*. Toshkent: Fan va Texnologiya nashriyoti.

2. Hasanboeva, M. (2020). *Zamonaviy ta’lim metodlari va texnologiyalari*. Samarqand: Ilm ziyo.

3. Qodirov, B. (2019). *Pedagogik mahorat va kasbiy kompetensiya*. Toshkent: O‘qituvchi.
4. OECD (2022). *Teachers and School Leaders as Lifelong Learners*. OECD Publishing.
5. Shodmonov, A. (2023). *Ta’limda innovatsion yondashuvlar*. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.

## MAKTABGACHA VA BOSHLANG’ICH TA'LIM JARAYONIDA 6-7 YOSHLI BOLALARDA NUTQ SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

**D.A. Utegenova - NMPI 2-bosqich doktoranti**

Qoraqalpoq tili, adabiyoti, atrof-muhit, “tarbiya”, “texnologiya”, “tarix” darslari misolida gumanitar fanlar mazmunida nutq savodxonligini rivojlantirish imkoniyatlari tarbiyaviy xususiyatlari va ularning yoshlar tarbiyasida foydalanishga ko‘proq ahamiyat berilgan, zero barkamol shaxsni shakllantirish uchun tarbiyaga kompleks yondashish zarur.

Avvalo, aniq fanlarda darsning didaktik maqsadlarga erishishining o‘zi o‘quvchilar tarbiyasiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishning asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchilarda nutq savodxonligini shakllantirishdir. Mashg‘ulotlar jarayonida nutq savodxonligini rivojlantirishda xalq og‘zaki ijodi namunalari– topishmoqlardan keng foydalanish, buyuk allomalar hayoti va asarlari, tarbiya mashg‘ulotlarida falsafiy she'rlar bilan qo‘shib o‘rganish bolalarning nutqini rivojlantirishda, maktabgacha va boshlang‘ich ta'lim fanlarini o‘qitishda avloddan -avlodga o‘tib kelayotgan o‘zbek xalq maqollari, diniy ta'limotlar, hadislardan namunalar keltirib berish kabilar bevosita nutq savodxonligini rivojlantirish bilan bog‘liqdir. Shu o‘rinda barcha fanlarni o‘qitishda nutq savodxonligining ham o‘rni katta ekanligini ta'kidlash, yoshlarda ijtimoiy nutq savodxonligini tarbiyalash, ruhan tayyorlash o‘zgalar so‘zlarini e'zozlash, ularda odob- axloq, mehnasevarlik, chidamlilik, tirishqoqlikni shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Bunda buyuk allomalar asarlariga murojaat etish, qiyinchilik va tajribasizlikni bartaraf etish, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, nutq savodxonligi haqidagi xalq og‘zaki ijodi namunalaridan ko‘plab misollar keltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tashkil qilinadigan mashg‘ulotlar ma'lum

maqsadga yo‘naltirilgan va mazmuni hayot bilan bog‘liq bo‘lishi hamda tizimli olib borilishi, mashg‘ulotlarda yoshlar faoliyati xilma-xil va yangi ma'lumotlar, bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarni egallashdan iborat bo‘lmog’i kerak. Nutq savodxonligini rivojlantirishga oid mavzuda o‘tkaziladigan munozaralar, savol-javob kechalari, yoki o‘zbek xalqi tarixi va madaniyati bo‘yicha ko‘rik-tanlovlar o‘quvchilarni muloqot madaniyatini tarbiyalashga katta imkoniyatlar yaratadi.

6-7 yoshli bolalarda nutq savodxonligini rivojlantirishda ko’rgazmalilik tamoyili ma’lum materialni o’rganish va tinglab tushunishni o’rgatadi. Oqishni, yozuvni o’rgatadigan mashqlar o’z navbatida bir necha xususiy ko’nikmalarni rivojlantiradi. Masalan, diologik, monologik nutqni o’rgatadigan mashqlar nutqiy va texnikaviy malakalarni takomillashtiriladi. Ushbu jarayonda 6-7 yoshli bolalarning ruxiyatini etiborga olgan holda nutq malakalarni o’rgatadigan mashqlar amalga oshiriladi. Ushbu mashqlarning hammasi o’zaro birga va o’zaro bog’liq ravishda bajariladi. O‘z navbatida talaffuzni, gapirishni, og’zaki nutqning malakalarini o’rgatadigan mashqlar nutq faoliyatini amalga oshirishda o‘qishni o‘rgatadigan mashqlar, ijobiy tasir ko’rsatadi. Ushbu jarayonda bolada gapirish , o‘qish, yozuv, tinglab tushinish, o’qish, o’qitish mashqlari va turlarida materiallarini o’rgatish, o’zlashtirish, tinglab tushinish, o‘qish, o‘qitish mashqlari va turlarini o‘z ichiga oladi. Nutq savodxonligini rivojlantirish mashqlari materiallarini o’rgatish, o’zlashtirishni o’z oldiga maqsad qilib qoyadi. Shuning uchun ular leksika, grammatika, fonetikaga bo’linadi. Nutq mashqlari tinglab tushinish, gapirish, o‘qish, yozuv kabilarni shakllantirish, o’rgatish, rivojlantirish kabilarni o’z oldiga maqsad qilib kuyadi. Shu sababdan tushinish, gapirish, o‘qish, yozuv mashqlari nutq savodxonligini rivojlantirishda 6-7 yoshli bolalarda nutq savodxonligini rivojlantirish mashqlari materiallarini o’rgatish, o’zlashtirishni o’z oldiga maqsad qilib qo’yadi. Shu sababdan tushinish, gapirish, o‘qish, yozuv mashqlari nutq savodxonligini rivojlantirishda 6-7 yoshli bolalarda ma'lumot yoki xabarni og‘zaki uzatish, idrok qilish, muomala, nutqni tinglab tushunish, gapirish, kabilar nutq savodxonligi ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ular 6-7 yoshli bolalarda talaffuzni, grammatikani, leksikani o‘rgatish, nutq materiallarini, dialog shaklda

so‘zlashga o‘rgatish, nutq mashqlarini bajarish, nutq mashg‘ulotlarini tinglash, grammatik strukturalarni nutqda taniy olish mashqlarini bajarish imkoniyatlarini rivojlantirishda, o’quv jarayonini tashkil qilishda o‘z samarasini ko‘rsatadi.

Maktabgacha va boshlang‘ich ta'lim jarayonlarida bolalarning ongi, irodasi, sezgisini, nutqini rivojlantirib borish asosida ularda jamiyat hayotidagi bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishni takomillashtirish bolaning o‘z hayotini jamiyat manfaati bilan bog‘lab borish, ichki munosabatlardan ijtimoiy munosabatlarga o‘tishi, oldiga qo‘yilgan hayotiy maqsadlari jamiyat maqsadlari bilan mushtarak bo’lishiga erishmoqning asosini tashkil etadi.Buning uchun o’qituvchi bolalarga nutq savodxonligini rivojlantirishda ishlar mazmunida ularda mehnat, ijtimoiy va shaxsiy hayotga tayyorlash, hamkorlik, muloqot samimiylilik, o‘zaro yordam kabilar keng o‘rin olish imkoniyati kamol topadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Boqieva H. “Boshlangich sinflarda so‘z ustida ishlash metodikasi”. Monografiya. – Toshkent, Istiqlol, 2013 – 136 b.

2.Safarova R. ”Boshlang’ich ta'lim jarayoniga tatbiq etiladigan yangi yondashuvlar /Boshlangich ta'limni modernizasiyalash orqali o‘quv-tarbiya jarayoni sifati va samadorligini oshirish – Toshkent: Reliable print, 2016, - B, 95.

3.Matchonov S va boshq “Boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitish metodikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor. 2021 – 663 b,

4.Masharipova U.A. “Inovasion ta'lim sharoitida boshlang’ich sinf o‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi: Ped. fan. bo‘y. fal. dokt (PhD) diss. – Toshkent : 20018 -141 b.

5.Nishanbaeva A.K. “O‘zbek tili darslarida matn vositasida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik asoslari (ta'lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar misolida): Ped fan, nomz, -- diss - Toshkent: TDPU, 2008 – 160 b.

## MAKTABGA TAYYORLOV GURUHIDAGI BOLALARGA TA’LIM-TARBIYA BERISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITALARIDAN FOYDALANISH

**J.I. Juginisova**
**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,**
**Informatika o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchi.**

O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunning 11-moddasida: «maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog‘lam va yetuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Bu ta’lim olti-yetti yoshgacha

oylada, maktabgacha ta’lim muassasalarida va mulk shaklidan qat’i nazar, boshqa talim muassasalarida olib boriladi» -deyilgan.

Kelajagimiz bo‘lgan yoshlarga erta talim-tarbiya berish mas’uliyatini bugungi kunda yurtimizda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta’lim muassasalari o‘z zimmasiga olgan. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bilim berish shakli mashg‘ulotdir. Mashg‘ulotlar jarayonida bolaning nutqi rivojlanib, til boyligi oshib borishi bilan bir qatorda undagi psixologik va intellectual jihatlari rivojlanib boradi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida 5 ta metodika bo‘yicha bolalarga ta’lim-tarbiya saboqlari berib boriladi. Bulardan eng asosiysi “Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari” desak mubalag‘a bo‘lmaydi. Chunku nutq o‘stirish nafaqat bolaning so‘z boyligini oshirish, balki uning muloqot qobiliyatini rivojlantiradi, undagi bilish jarayonlarining, shu jumladan bolaning tafakkurini o‘stirishda ham muhim vosita bo‘lib hisoblanadi [2.7]


Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash o‘zining bir qator mezonlariga ega. Bu jarayonda bolalarni jismoniy, aqliy, ruhiy, irodaviy va ma’naviy jihatdan maktabga tayyorlash ularning maktab ta’limida zo‘riqmasligi, ta’limning uzluksizligi va samaradorligini ta’minlovchi asoslardandir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirish, ularning ruhiyat, shaxsiy qobiliyatlari, intilish va ehtiyojlarini qondirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, mustaqillik g‘oyalariga sodiq holda voyaga yetib borishni ta’minlash, ularni maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yilgan davlat talablariga muvofiq maktab ta’limiga tayyorlashdan iborat.


Hozirgi kunda barcha ta’lim muassasalari, shu jumladan maktabgacha ta’lim muassasalari zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalari vositalari bilan jihozlanmoqda. Bunda tarbiyachi pedagoglaming o‘z mehnati faoliyatiga yangicha yondashuvni, mashg‘ulot o‘tish jarayonida tarbiyalanuvchilaming bilim, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ulami tushunarli va qiziqarli shaklda tashkil etishda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanishlari zaruriyati paydo bo‘ladi.

Mutaxassislarning fikricha, insonning eshitish a’zolariga nisbatan ko‘rish a’zolari yordamida qabul qilingan ma’lumotni besh marotaba ko‘p eslab qolish mumkin. Sababi - eshitish a’zolariga nisbatan ko‘rish a’zolaridan olinayotgan ma’lumotlar qayta kodlashtirilmay to‘gridan-to‘g‘ri xotiraga o‘tadi va saqlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan Davlat talablarida maktabga tayyorlov guruhi bolalarini savod chiqarishga tayyorlash, elementar matematik bilim berish va atrof-olamni o‘rganish, ta’lim o‘yinlari yo‘nalishlari bo‘yicha, quyidagilar qayd etilgan: nutq o‘stirish bo‘yicha nutq-tovush madaniyatini shakllantirish, ijodiy hikoya qilish, nutqning garmmatik tuzilishini shakllantirish, lug‘atni boyitishni jadallashtirish, matematika bo‘yicha son-sanoq, miqdor, shakllar, fazoviy tasavvurlar, vaqt haqida tasavvur hosil qilish. Ta’limiy o‘yinlar bo‘yicha rangni top (ranglarni to‘g‘ri ajratish), shaklini top (doira kvadrat, uchburchak va boshqa shakllar), halqalarning shakli va ranglari bo‘yicha o‘yinlar, tabiat bilan tanishtirish bo‘yicha gulzorga ekskursiya, paxta dalasiga sayohat, kabutar singari qushlarni kuzatish, ularning xususiyatlari va farqi, havo va uning xossalari bilan tanishtrish, suv va uning xususiyatlari bilan tanishtirish kiradi.

Tayyorlov guruh (6-7 yosh) tarbiyalanuvchilarga Alipbe nomli elektron darslikni tayyorlashda yuqoridagilarga amal qilindi.








Alipbe nomli elektron dasturi ishga tushirilganda dastur oynasi ochilishi bilan Qaraqalpaqsha háripler (Alipbe) degan ovoz eshitiladi. Oynaning o‘ng tepa qismidagi keyingisiga o‘tish belgisi bosilganida Aa harfi ko‘rinadi va ovoz bilan aytiladi, keying oynaga o‘tishganida Olma rasmi kórinadi va 3 tilda olma nomi ovozli aytiladi: Alma (Qoraqalpoqcha), Яблоко (Ruscha), Apple (Inglizcha). Shu tariqada barcha Aa harfidan keladigan narsalaring rasmi va 3 tildagi nomi yozilishi va ovozli aytiladi. Dastur oynasining pastki qismida har xil ranglarda harflar ro‘yxati berilgan. Qaysi

harfni orgatmoqchi bo‘sak shu harf va tegishli rasm ko‘rinadi va ovozlar eshitiladi. Bu erda bola axborotni ko’rish va eshitish orqali qabul qiladi va rivojlanib boradi.

Maktabgacha ta’lim muassasalari tayyorlov guruhlarida bolalarni savodga o‘rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanish mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, bolalarning aqliy rivojlanishlariga va ularni maktabda o‘qishlariga muvaffaqiyatli tayyorlashga imkon beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Barqamal avlod-O‘zbekiston taraqqiyoyining poydevori.-T.: Sharq, 1998y
2. D.R.Babayeva. Nutq os‘tirish nazariyasi va metodikasi. Darslik. –T.: «Barkamol fayz media», 2018y
3. Maktabgacha ta'lim muassasalari mudiralari uchun o‘quv modullari 3-modul: Bosh shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta'lim. T-2012 y.
4. D.Q. Asqarova, “Bolalalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi”, «Navro’z» nashriyoti, -T.: 2020y.
5. Juginisova, J. I. (2025). USING SOFTWARE TOOLS IN TEACHING CHILDREN OF PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(1), 170-173.
6. Allambergenova, M., & Adilbekova, S. (2025). USE OF CLOUD TECHNOLOGY IN ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(2), 826-830.

## SHAXS MOBILLIGINI SHAKLLANTIRISHDA METODIK TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI

**S.A. Yo’ldasheva - Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shaxs mobilligini shakllantirishda metodik tizimning nazariy asoslari pedagogika, psixologiya, va metodika sohalarining kesishgan nuqtasida joylashgan muhim masalasi sifatida tahlilqilingan.

Kalit so’zlar: shaxs mobilligi, pedagogika, psixologiya, metodika, kasbiy mobillik, moslashuvchanlik, faollik, o‘zini rivojlantirishga intilish, ko‘p qirrali kompetensiyalar, refleksiv amaliyot.

Bugungi texnika asrida butun dunyoda "Shaxs mobilligini shakllantirishda metodik tizimning nazariy asoslari" mavzusi pedagogika, psixologiya, va metodika sohalarining kesishgan nuqtasida joylashgan muhim masaladir.

*Shaxs mobilligi* — bu insonning ijtimoiy, psixologik va kasbiy o‘zgarishlarga moslasha olish, yangi sharoitlarga tez va samarali tarzda moslashish, o‘zgaruvchan muhitda faol bo‘lish qobiliyatidir.

Shaxs mobilligi turlari:

- Ijtimoiy mobillik – ijtimoiy holatni o‘zgartirish qobiliyati.
- Psixologik mobillik – fikrlash, emotsional holat va muomala shakllarini moslashtirish.
- Kasbiy mobillik – mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga javob bera olish.

*Kasbiy mobillik* — bu insonning o‘z kasbiy faoliyati doirasida o‘zgaruvchan ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va pedagogik sharoitlarga moslasha olish, yangi vazifalarni bajarishga tayyor bo‘lish, faoliyat usullarini o‘zgartirish, o‘rganish va rivojlanishga doimiy intilish qobiliyatidir. Pedagogik faoliyatda bu tushuncha o‘qituvchining (yoki tarbiyachining) o‘z kasbiga yangicha yondashuvi, yangiliklarga ochiqligi, doimiy ravishda malaka va kompetensiyalarini rivojlantirib borishi orqali namoyon bo‘ladi.

Kasbiy mobillikning asosiy jihatlari:

1. Moslashuvchanlik: Pedagogning yangilanayotgan ta’lim mazmuni, metodlari, texnologiyalariga tez moslasha olishi.

2. Faollik: Yangiliklarni o‘zlashtirishga, faoliyatda ijodiy yondashishga, tashabbus ko‘rsatishga tayyorlik.

3. O‘zini rivojlantirishga intilish: Malaka oshirish, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga doimiy ehtiyoj sezish.

4. Ko‘p qirrali kompetensiyalar: Turli pedagogik vazifalarni bajarish, ko‘p funksiyali faoliyatga tayyorlik.

*Moslashuvchanlik* — pedagog-tarbiyachining kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan o‘zgarishlarga tez va samarali javob berish, yangi sharoitlarga moslashish qobiliyatidir. Bu ko‘nikma pedagogga yangi pedagogik texnologiyalarni, ta’lim mazmuni va metodlarini qabul qilish, o‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslashish hamda tashkilotdagi o‘zgarishlarga tezkor javob berishga yordam beradi.

*Moslashuvchanlikning asosiy xususiyatlari:*

- Tez moslashish: O‘qituvchi yangi vaziyat, o‘quvchilar yoki texnologiyalar bilan qisqa vaqt ichida ishlay oladi.
- O‘zgarishga tayyorlik: O‘z ish uslubini, metodikani va hatto kasbiy faoliyat yo‘nalishini o‘zgartirishga ochiq bo‘lish.
- Ijodiy yondashuv: Muammolarni hal qilishda yangi, samarali usullarni izlash.
- Psixologik chidamlilik: Stressli holatlarda ham samarali faoliyat yurita olish.

*Moslashuvchanlikning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati*. Zamonaviy ta’lim jarayonida sharoitlar tez-tez o‘zgarib turadi. Masalan, yangi o‘quv dasturlari, texnologiyalar yoki pedagogik yondashuvlar joriy etilishi pedagoglarning ish uslublarini o‘zgartirishni talab qiladi. Moslashuvchan pedagog quyidagi holatlarda o‘z qobiliyatini ko‘rsatadi:

–Yangi o‘quv dasturi joriy etilganda: Pedagog dasturdagi yangi materialni tez o‘zlashtirib, uni samarali o‘rgatishi zarur.

–Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda: Masalan, interaktiv doska, onlayn platformalar yordamida dars o‘tishda.

–O‘quvchilarning ehtiyojlari o‘zgarishida: Individual yondashuvni qo‘llab, o‘quvchilarning qobiliyatlari va qiziqishlariga moslashtirish.

–Favqulodda vaziyatlarda: Masalan, pandemiya davrida masofaviy ta’limga tez o‘tish.

*Misollar:*

1. Masofaviy ta’limga o‘tish: 2020-yil pandemiya sharoitida maktabgacha ta’lim muassasalari ko‘pchiligi onlayn ta’limga o‘tishga majbur bo‘ldi. Moslashuvchan pedagoglar qisqa vaqt ichida yangi texnologiyalarni o‘rgandilar va ularni o‘quv jarayonida samarali qo‘lladilar.

2. Yangi ta’lim dasturiga moslashish: Maktabgacha ta’lim tashkilotida yangi o‘quv dasturi joriy etilganda, pedagoglar darslarni yangi metodika asosida o‘tkazishga tayyor bo‘lishlari kerak.

3. Individual yondashuv: Ba’zi bolalar o‘rganishga qiyinchiliklar bilan duch kelganda, pedagog o‘z dars rejasini moslashtirib, qo‘shimcha yordam ko‘rsatadi.

*Moslashuvchanlikning psixologik jihatlari.* Moslashuvchanlik faqatgina tashqi sharoitlarga moslashish emas, balki ichki psixologik tayyorgarlikni ham talab qiladi. Pedagogning psixologik moslashuvchanligi quyidagi omillarga bog‘liq:

– Moslashuvchan fikrlash: Turli vaziyatlarga mos ravishda qarash va muammolarni turlicha yondashuvlar bilan hal qilish.

– O‘zini boshqarish: Stress va noaniqlik holatlarida xotirjamlikni saqlash, konstruktiv qarorlar qabul qilish.

– Ochiqlik va qabul qilish: Yangi g‘oya va fikrlarni rad etmaslik, ular asosida o‘z faoliyatini yangilashga tayyorlik.

– Motivatsiya: O‘zini rivojlantirishga intilish, kasbiy muvaffaqiyatlarga erishish istagi.

Psixologik moslashuvchanlik pedagogning kasbiy mobilligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. U pedagogning shaxsiy salomatligi, ishga bo‘lgan qiziqishi va ijobiy munosabatining davomiyligini ta’minlaydi.

*Moslashuvchanlikni shakllantirish uchun uslubiy tavsiyalar:*

1. Doimiy kasbiy rivojlanish: Yangiliklarni o‘rganish va qo‘llash uchun muntazam o‘quv kurslari, seminarlar tashkil qilish.

2. Refleksiv amaliyot: O‘z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va o‘rganish jarayonida o‘zgartirish kiritish.

3. Ijodiy yondashuvni rag‘batlantirish: Yangi metodlar va texnologiyalarni sinab ko‘rishga shijoat berish.

4. Stressni boshqarish texnikalari: Meditatsiya, nafas olish mashqlari, vaqtni boshqarish metodlari orqali psixologik barqarorlikni saqlash.

5. Mentorlik va qo‘llab-quvvatlash tizimlari: Tajribali pedagoglar yordamida yangi usullarni o‘zlashtirish va professional o‘sishga ko‘maklashish.

Moslashuvchanlik pedagogning zamonaviy ta’lim jarayonida samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zaruriy sifat bo‘lib, uni rivojlantirish nafaqat tashqi sharoitlarga moslashishni, balki ichki psixologik tayyorgarlikni ham taqozo etadi. Ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish va mustahkamlash uchun doimiy ta’lim, refleksiya va psixologik yordam tizimlari tashkil etilishi lozim.

*Metodik tizim* — bu ta’lim va tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etishga qaratilgan didaktik vositalar, usullar, shakllar, prinsiplar va mazmunning o‘zaro bog‘liq majmuasidir.

Metodik tizim komponentlari:

- Maqsad (shaxs mobilligini shakllantirish)
- Mazmun (kompetensiyalar, bilimlar, ko‘nikmalar)
- Vositalar (interaktiv metodlar, texnologiyalar)
- Usullar (trening, munozara, rol o‘yinlari)
- Natijalar (mobillikka erishilganlik darajasi)

*Shaxs mobilligining nazariy asoslari.*

a) Psixologik nazariyalar:

- Jean Piaget – shaxsning kognitiv rivojlanishi o‘zgaruvchan muhitga moslashishda muhim.
- Lev Vygotsky – ijtimoiy muhit va muloqot shaxs rivojining asosiy omili.
- Erik Erikson – shaxs rivoji bosqichlari va psixososial qarama-qarshiliklar mobillikni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

b) Pedagogik yondashuvlar:

- Kompetensiyaviy yondashuv – ta’limda bilimdan ko‘ra shaxsiy sifatlar va amaliy ko‘nikmalarning ustuvorligi.
- Faoliyatga asoslangan yondashuv – o‘quvchining o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etishi va baholashi.
- Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – har bir shaxsning individualligini hisobga olish.

*Shaxs mobilligini shakllantirish metodikasi*

Metodik tizim quyidagi metodlarni o‘z ichiga oladi:

a) Faol o‘quv metodlari:

- Muammo asosida o‘qitish
- Rol o‘yinlari
- Case-stady (vaziyatli tahlil)
- Trening texnologiyalari

b) Zamonaviy pedagogik texnologiyalar:

- CLIL (fan va til integratsiyasi)
- STEAM yondashuvi
- Raqamli texnologiyalarni qo‘llash

c) Baholash vositalari:

- Portfolio
- Refleksiya kundaliklari
- Raqamli baholash platformalari (quiz, test, feedback)

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, moslashuvchanlik pedagogning kasbiy muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biridir. U nafaqat shaxsiy malakani oshirishga, balki ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Kasbiy mobillikni rivojlantirish jarayonida pedagogning moslashuvchanlik qobiliyatini shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash zarur.

Shaxs mobilligini shakllantirish — bu zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biridir. Bu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun kompleks metodik tizim ishlab chiqilishi zarur bo‘lib, u ilmiy-nazariy asoslar, pedagogik tajriba va psixologik qonuniyatlarga tayanishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Abdullayeva N., Tajiboyeva O. *O‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni.* – Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 2024, 1(5), 225–227. https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/792
2. Abdullayeva O. *Bo‘lajak pedagoglarda kasbiy mobillikni shakllantirishda ilmiy ijodning zarurati.* – Tamaddun Nuri jurnali, 2024, 6(57), 192–194. https://doi.org/10.69691/vdxt0n33
3. Ahmedov N. *Pedagogik mahorat.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
4. Bobokalonova G.A. *Maktabgacha ta’lim pedagogikasi.* – Toshkent: TDPU, 2021.
5. Bolam R., McMahon A., et al. *Professional Development and Teacher Mobility in Education.* – London: Routledge, 2012.
6. Fullan M. *The New Meaning of Educational Change.* – New York: Teachers College Press, 2007.
7. Guskey T.R. *Professional Development and Teacher Change.* // Teachers and Teaching: Theory and Practice. – 2002. – Vol. 8(3). – P. 381–391.

# RIVOJLANISH MARKAZLARIDA PEDAGOGIK JARAYONNI REJALASHTIRISH

**G.Axmedova**
**Maktabgacha ta’lim fakulteti 1 kurs talabasi**
**ilimiy rahbar G.A.Turebekova**
**Maktabgacha ta’lim kafedrasi kattao’qituvchisi, p.f.b.f.d. (PhD)**

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlanish markazlari – bu pedagogik jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan estetik, psixologo-pedagogik shartlar majmuasi bo‘lib, o‘quv muhiti oqilona tashkil etilgan, turli xil o‘yin va o‘quv materiallari bilan ta’minlangan rivojlantiruvchi muhit. Tashkil etilgan rivojlanish markazlarida maktabgacha yoshdagi bola faol bilimga asoslangan ijodiy faoliyatga jalb qilinadi, uning qiziqishi, tasavvuri, aqliy va badiiy qobiliyatlari, muloqot malakasi rivojlanadi, eng muhimi – shaxsning uyg‘un rivojlanishi amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mavzuli rejalashtirishga ko‘ra har bir yosh guruhida oy va hafta mavzusi belgilanadi. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida yillik mavzuviy rejada har bir yosh guruhi uchun oy mavzulari va hafta mavzulari aks ettiriladi. Haftalik reja yillik mavzuviy rejaga asoslanadi va haftaning kichik mavzulari, shuningdek, mazkur mavzu bo‘yicha o‘tkaziladigan tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Haftalik reja barcha rivojlanish sohalari bo‘yicha maqsadlarni belgilash, tegishli markazlarni tayyorlash, mashg‘ulotlarni hafta mavzusiga mos ravishda taqsimlashga yo‘naltirilgan. Hafta mavzusi barcha erkin faoliyat markazlari orqali o‘tishi lozim. Hafta mavzusi bolalar uchun juda qiziqarli, qaysidir ma’noda bolalarga tanish bo‘lishi kerak.

Tarbiyachi oy mavzusini inobatga olgan holda guruhni jihozlaydi. Masalan: “G‘aroyib olam”, “Go‘zal bahor”, “Bu zamin barchamizniki” va boshqalar. Bundan tashqari, oy mavzusini MTT binosiga kirish joyi, foye va guruhlarga kirish joylariga joylashtirish tavsiya qilinadi. Bu jihozlar oson almashtiriladigan bo‘lishi lozim. Oy mavzulari ichidagi hafta mavzulari bo‘yicha quyidagi rivojlanish markazlari ishi tashkil etiladi:

-Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi,

-Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish,

-Til va nutq markazi,

-Fan va tabiat markazi,

-San’at markazi.

Tarbiyachi hafta uchun mo‘ljallangan mavzu, maqsad va kutilayotgan natijalarni yaxshi bilishi kerak, chunki shu asosda har bir markazda olib boriladigan ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatning ishlanmasini yaratadi, kerakli jihoz va materiallarni tayyorlaydi, faoliyatning qadamma-qadam borishini ishlab chiqadi, shuningdek, e’tiborga molik jihatlarga tayyorlanadi.

Har bir rivojlanish markazi o‘z maqsadi va yo‘nalishiga ega, shuning uchun markazlardagi faoliyat qiziqarli bo‘lishi, qo‘yilgan maqsad va vazifalarni hal etishi, ta’limiy materiallar va o‘yin anjomlari guruh bolalarining yoshiga mos, xavfsiz va ularda qiziqish paydo qilishi lozim. Markazdagi vazifa va topshiriqlar bolalarga tushunarli bo‘lishi kerak. Har bir markaz haftaning boshida tayyorlanadi va jihozlanadi.

Markaz ishi davomida tarbiyachi bolar ishini kuzatadi, tavsiya etilgan materiallarning bolalar uchun qanchalik qiziqarli, tushunarli va osonligi hamda xavfsizligiga e’tibor qaratadi. Agar kerak bo‘lsa, tarbiyachi ta’limiy materiallarni to‘ldiradi yoki o‘zgartiradi. Tarbiyachi markazdagi ishlarni diqqat bilan tahlil qiladi va guruhning barcha bolalari besh kun davomida har bir markazda bo‘lishini ta’minlaydi. Bundan tashqari kimga bajarish oson, kimga qiyin bo‘lganini kuzatadi. Kuzatuv natijalari asosida tarbiyachi bola va uning ota-onalari bilan yakka tartibda ishlashni rejalashtiradi. Har hafta oxirida tarbiyachi bolalar faoliyatini tahlil qiladi, bolalar nimalarni bilib olganini, nimani bilishni hoxlashlarini o‘rganadi, xulosalaydi. Shu bilan birga materiallar qay darajada qiziqarli va savodli tayyorlanganligi, qo‘yilgan maqsadga erishildimi yoki yo‘qmi chuqur tahlil etiladi. Shundan so‘ng keyingi haftaga tayyorgalik ko‘riladi.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida har qanday yosh guruhlari uchun rivojlanish markazlarini yaratishda ta’limiy-tarbiyaviy jarayonning

ishtirokchilari hamkorligining psixologik asoslarini, dizayn va ergonomikasini hisobga olish kerak.

Masalan **“Qurish yasash, konstruksiyalash va matematika” markazi.**

Markazda bola qurish,-yasashni, matematik bilimlarni, muloqotga kirishishni o‘rganadi. Shu bilan birga mayda motorika rivojlanadi, bola doimiy harakatda bo‘ladi, bir biridan o‘rganadi, o‘rgatadi. Ushbu markazni yaxshi ishlashi, bolalarni o‘ziga jalb qilishi uchun tarbiyachi tomonidan quyidagi ishlar qilinishi lozim:

1. Markazda doimiy shovqin bo‘lganligi sababli, uni boshqa markazlardan to‘siqlar bilan ajratish;

2. Markazdagi shkaflar bola yoshiga mos bo‘lishi;

3. Shkaflardagi o‘yinchoqlar, ko‘rgazmali qurollar bola olishi va tanloviga xalaqit qilmasligini ta’minlash;

4. Markazdagi jihozlar dasturdagi mavzularga mos bo‘lishi;

5. O‘tilgan mavzularni tez olib tashlamaslik,balki ularga ham qarash,ulardan ham foydalanishlari uchun sharoit yaratish;

6. Har xaftada hafta mavzusi asosida yangi o‘yinlar, ko‘rgazmali qurollar, o‘yinchoqlar bilan boyitish;

7. Bolalar nazaridan qochgan jihozlarni markazdan bir muddat olib turish;

8. Markazda bolalar faoliyatini kuzatishda matematik tasavvurlarini kengaytirishga qaratilgan son sanoq, kattalik, fazoviy tushunchalar, geometrik shakllar va vaqtni bilishga qaratilgan bilimlarni bola qanchalik olayotganini tahlil qilishi lozim.

Bolalar e’tiboridan chetda qolayotgan mavzularni frontal mashg‘ulotlarga olish kerakligini belgilash va frontal mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish kerak. Xuddi shunday qurish yasash jarayonlarida bola qanday konstruksiyalarni qura olayotganligi kuzatiladi. Eng sodda qurilish konstruksiyalarini qurayotgan bolada qiziqish bor, lekin malaka yo‘q, bunday bolalar bilan ertalabki, kechki soatlarda ishlash lozim bo‘ladi.

Shunday qilib, rivojlanish markazlarida to‘g‘ri tashkil etilgan ish har bir bolaga o‘zi yoqtirgan faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishga, o‘z kuchi va qobiliyatini

sinab ko‘rishga, kattalar va tengdoshlari bilan birgalikda faoliyat yuritishga, ularning his-tuyg‘ulari va va xatti-harakatlarini tushunish va baholashga imkon beradi, aynan shular rivojlantiruvchi ta’lim negizini tashkil etadi.

**Foydalangan adabiyotlar ro’yxati:**


1. Takomillashtirilgan “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi. T. : 2022 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ilk va Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. T.: 2018
3. “Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo‘llanma. T:, 2001 yil
4. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, M.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”.- T., “Ma’naviyat”. 2013 yil


## “MEN” KONSEPSIYASINING TARIXI VA RIVOJLANISHI


**G.Axmedova**
**Maktabgacha ta’lim fakulteti 1 kurs talabasi**


“Men” konsepsiyasi (inglizcha self-concept) – insonning o’zi haqidagi tasavvurlarining rivojlanib boruvchi tizimi, uning tarkibiga: a) o’zining jismoniy, intelektual, xarakterologik, ijtimoiy va boshqa hususiyatlarini idrok qilish; b) o’zo’ziga baho berish; v) shaxsiyatga tasir o’tkazuvchi tashqi omillarni subyektiv idrok etish kiradi. “Men” konsepsiyasi tushunchasi 1950- yillarda fenomenologik, gumanistik psixologiya yo’nalishlari ichida paydo bo’lgan.

“Men” konsepsiyasi – bir butun hosila va uning barcha tarkibiy qismlari mustaqil mantiqiga ega bo’lsa ham, o’zaro chambarchas bog’liqdir. Bu konsepsiya seziladigan va sezilmaydigan jihatlardan iborat va o’zi haqida taqdimotlari, ularning murakkabligi va xilma-xilligi, shaxs uchun ularninng subyektiv ahamiyati, shuningdek, ichki yaxlitli va izchillik, uyg’unlik, vaqtga bardoshliligi nuqtaiy nazardan ta’riflanadi. Adabiyotlarda “Men” konsepsiyasini yagona tafsifi haligacha mavjud emas. Masalan, R.Berne “Men” konsepsiyasini ierarxiyaga asoslangan tuzilma ko’rinishida taqdim etadi. Uning cho’qqisi global “Men” konsepsiyasi shaxsning o’zi haqida tushunchalarini kiritadi. Bu tushunchalar har xil turlariga xos:

1. Real “Men” (“Men kimman”);
2. Ideal “Men” (“Meni kim bo’lishni istayman - intilaman).
3. Oynali “Men” (“Meni qanday baholashadi).

Bularning har bir turi bir qator jihatlarni o’z ichiga qamrab oladi- jismoniy “Men”, ijtimoiy “Men”, aqliy “Men”, emotsional “Men” bo’ladi, shaxsning rivojlanishi nufuzli manbaa sifatida xizmat qiladi, biroq ular orasidagi jiddiy ziddiyatlar shaxsning ichki mojarolar va negativ qayg’urishlar manbaasiga aylanishi mumkin. Shaxsning faoliyatiga ko’ra - organizm, ijtimoiy individ yoki shaxs darajasida namoyon bo’lishiga qarab, “Men” konsepsiyasining uchta bosqichi ajratiladi:

1) “organizm-muhit” darajasi - jismoniy “Men” obraz, (tana sxemasi) organizmning jismoniy samaradorlikga bo’lgan ehtiyoji;

2) “ijtimoiy individ” darajasida – ijtimoy o’zlikni, jins, yosh, etnik fuqarolik, ijtimoiy rol bular shaxsning jamiytga a’zo bo’lishi ehtiyoji bilan bog’langan.

3) ”Shaxs” darajasida - “Men”ning farqlanuvchi obrazi, o’zi haqidagi fikirlarni aniqlash ehtiyojini ta’minlaydigan, boshqa shaxslar bilan solishtirganda o’zi haqida ta’riflovchi fikrlarini va o’zining noyoblik hissini beruvchi, o’zini ko’rsatishga bo’lgan ehtiyojni ta’minlovchi daraja.

Men tushunchasi rivojlanishiga nazar solar ekanmiz, uning shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshadi. Dastlab, chaqaloqlar o‘zlarini anglamaydilar. Keyinchalik tashqi va ichki muhitdagi turli omillar ta‘sirida o‘zligini anglay boshlaydilar. Bu borada ko‘pgina psixologlar va nazariyotchilar turli yosh davrlarida shaxsiyatni rivojlantirish tushunchasini o‘rganib chiqdilar, ular orasida Gordon Allport1 va Erikson2 qarashlari ko‘pgina muhokamalarga sabab bo‘lgan. Erikson shaxsiyat rivojlanishi psixosotsiyal rivojlanishning sakkiz bosqichda sodir bo‘lishiga ishondi.

“Men-konseptsiya”ning bosqichma-bosqich rivojlanishining eng rivojlangan nazariyalaridan biri amerikalik psixolog Gordon Allport tomonidan taklif qilingan. Bu bosqichlar shaxsning o‘ziga xos shaxsni shakllantirishga bo‘lgan psixologik ehtiyojlari va bu rivojlanishda ro‘l o‘ynaydigan ijtimoiy omillarni o‘z ichiga oladi. Ushbu 8 bosqichdan 5 tasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida sodir bo‘ladi.

1-bosqich - bu o‘z tanasini his qilish . Chaqaloq o‘zini alohida shaxs sifatida anglamaydi, o‘zlarini boshqa narsalardan ajrata boshlaydilar. Shuning uchun u “meniki” va “meniki emas” o‘rtasidagi farqni ajratmaydi. Biroq, hayotning ilk yilida chaqaloqlar ichki sezgi organlaridan kelib chiqadigan ko‘plab his-tuyg‘ularni seza boshlaydilar.

2-bosqich - bu o‘zini o‘zi anglash hissi , ya’ni bola o‘zini ma’lum va eng muhim shaxs sifatida biladi. Bu esa “men”ning yaxlitligi va uzluksizligi ta‘minlashning eng muhim boshlang‘ich nuqtasi bolaning o‘z ismidir. 2-3 yoshga kelib o‘z ismini anglab olgan bola, uning rivojlanishida va tashqi olam bilan bo‘ladigan munosabatlaridagi barcha o‘zgarishlarga qaramasdan, o‘sha odam bo‘lib qolishini tushuna boshlaydi.

3-bosqich - (3-4 yosh) o‘z-o‘zini hurmat qilishni shakllanishi . Eng avvalo, o‘z-o‘zini hurmat qilish tuyg‘usi bolaning o‘zi biror ish bajarganda boshdan kechiradigan g‘urur tuyg‘usi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘z-o‘zini hurmat qilish bolaning topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishiga bog‘liq.

4-bosqich - chegaralarini kengaytirish. 4-5 yoshda bola faqatgina o‘zining jismoniy tanasiga emas, balki atrofdagi olamning muhim elementlariga, shu jumladan odamlarga ham ega ekanligini tushuna boshlaydi. Bu bosqichda bolalar “men” ning ma’nosini tushunishni o‘zlashtira boshlaydilar.

5-bosqichda, (5-6 yosh) bu yoshga kelib “men” obrazi shakllana boshlaydi. Bu bosqichda bola atrofidagi odamlarni, ota-onasi, qarindoshlari, va boshqa odamlarga qanday munosabatda bo‘lishini va undan nima kutishlarini, qanday bo‘lishini xohlashlarini o‘rganishni boshlaydigan vaqt. Shu davrga kelib bola “yaxshi" va “yomon" o‘rtasidagi tafovutni anglab boshlaydi.

6-bosqich (6-12 yosh) ongli ravishda oqilona o‘zini o‘zi boshqarish. O‘z-o‘zini shakllantirishning ushbu davri kuchli muvofiqlikni, axloqiy va ijtimoiy itoatkorlikni o‘zida namoyon qiladi.

7-bosqichda, o‘smirlik davrida “men” tushunchasi, yaxlit “men” tuyg‘usi joy oladi. “Men-tushunchasi” rivojlanishining sakkizinchi bosqichi insonning o`zini o`zi bilish va o`zini o`zi qadrlash kabi qobiliyatlari shakllanishi bilan bog`liq. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz mumkinki, shaxs

sifatida shakllanishida tashqi muhit omillari ahamiyati katta. Lekin shu bilan birgalikda o‘sayotgan bolaning irsiyati va individual rivojlanishi hamda shaxsiy salohiyatini ham hisobga olish o‘rinli. Agarda rivojlanish bosqichlariga nazar soladigan bo‘lsak, dastlabki “men” tushunchalari oilada shakllanishini ko‘rishimiz mumkin. Keyingi bosqichlarda bu mustahkamlanib boradi. Bu esa ta’lim muassasalari bilan bog‘liq, ayniqsa maktabgacha ta’lim alohida ahamiyatga egadir.

Bolalar va tengdoshlar o'rtasidagi munosabatlar ularning hayotida muhim rol o'ynaydi. Ko'pgina maktabgacha yoshdagi bolalar o'z tcngdoshlari bilan muloqot qilishga intilishadi. undan zavqlanishadi va yoig'iz qolganda boshqa bolalarning uniumiy faoliyatiga qo'shilishga harakat qilishadi. Maktabgacha yoshda tengdoshlarga bo'lgan bogianish kuchi keskin oshadi va asosan bir jinsdagi qo'shma o4yinlar ishtirokchilari bilan ijtimoiy munosabatlar yanada yaqinroq, qizg'in va barqarorroq bo'ladi. Nutqingizni suhbatdoshlarning xususiyatlariga moslash qobiliyati bolalar o'rtasidagi muloqotni yaxshilaydi.

**Foydalangan adabiyotlar ro’yxati:**

1. “Ilk qadam” Davlat oquv dasturi. T.: 2022 y.
2. O‘zbekstan Respublikası Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. T.: 2020 y.
3. Z.Nishanova, G.Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni oqitish metodikasi. T.:2006.

## QORAQALPOG’ISTONDA OILA TARBIYASINI MILLIY XUSUSIYATLARINI BOLA SHAXSIGA TA’SIRINING NAZARIY MASALALARI

**Z.R. Jiyenbayeva – 1 kurs magistrant, Ajiniyoz nomidagi NDPI,**
**T.J. Bayjanov – P.f.b.f.d. (PhD) ilmiy raxbar**

**Annotatsiya:** Maqolada Qoraqalpog’istonda oila tarbiyasining milliy xususiyatlarining bola shaxsiga ta’sirining pedagogik shart-sharoitlari yaratish yo’llari ochib berilgan. Shu bilan birga Qoraqalpog’istonda oila tarbiyasining milliy xususiyatlarining bola shaxsiga ta’sirining pedagogik shart-sharoitlarini yaratish yo’llarining nazariy asoslarini ilmiy izohlab berilgan .

**Kalit so’zlar:** Oila, tarbiyasi, milliy, bola, shaxs, pedagogik, shart-sharoitlar, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy, jamiyat.

Qoraqalpoq xalqi azaldan oilani muqaddas, muborak dargoh sifatida e’zozlagan, bu qo‘rg‘onga zavol yetmasligi uchun bor mahoratini ishga solgan. Zero, oilani boshqarish farzandlarini xalqqa, vatanga munosib avlod qilib yetishtirish, yaxshi

niyyat ila holis yondoshib, bir- birlarining xaqlariga rioya qilsalar, mazkur safar baxt-saodat maskaniga aylanishi tayin. Oiladagi muhitni sog‘lomlashtirish, undagi totuvlikni o‘z holida ushlab turishda erkak va ayolning birdek o‘rni bor. Ayniqsa, xar ikki tarafning bir-biri uchun fidokor bo‘lishi, o‘zini o‘ylashni ortga surishi, bag‘rikeng bo‘lib, hayot so‘qmoqlarida to‘g‘anoq bo‘ladigan xar qanday muammoni tadabbur va vazminlik ila hal qilish orqali oiladagi baxt-saodat yanada barqarorlashadi.

Ulug‘ marifatparvar alloma Abdurauf Fitratning oila haqidagi fikrlari alohida ahamiyatga ega: “Dunyoda izzat va saodat tolibi bo‘lmagan birorta ham qavm yo‘q. Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo‘ladi”. Ko‘rinib turibdiki, oila sog‘lom ekan, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqarordir. Oila mustahkam, tinch, halol, va pok bo‘lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, farovon bo‘ladi. Aksincha, oilalarda parokandalik, buzg‘unchilik bo‘lsa, o‘sha jamiyat buziladi, tinchi yo‘qoladi, u oqibatda chuqur tanazzulga yuz tutadi. Azal-azaldan oila bu- millatni millat sifatida ushlab turuvchi go‘zal milliy qadriyatlar asraladigan muqaddas maskan sifatida e’zozlangan. Oila har bir jamiyatning boshlang‘ich bo‘g‘ini xisoblanadi. Baxtli oilalar tufayli baxtli jamiyat vujudga keladi. Bunda oila a’zolarining, ayniqsa, er va xotinning o‘zaro murosa- madoraga borishi, g‘azabi kelganda uni yengishi va shirinso‘z bo‘lishi, shu bilan birga, oilaviy sirlarni ko‘chaga olib chiqmasligi singari bir qator omillar juda katta ahamiyat kasb etadi.

Ma’naviy jihatdan bir-biriga sabr qilish lozim bo‘lganiday, moddiy jihatdan ham sabrli bo‘lish juda muhimdir. Oilaning tinch, farzandlarning baxtli bo‘lishligida er-hotinning har ikkisi ham oiladagi o‘z burchlarini astoydil ado etishga intilishlari muhimdir. Er o‘z o‘rnini yo‘qotgan, hotin esa, erning mavqeiga davogarlik qilgan oilalarda nafaqat notinchlik bo‘ladi, balki, el-yurt, mahalla-ko‘y orasida ham oilaning hurmati bo‘lmaydi.

Farzand - Alloh taoloning sanab adog‘iga yetib bo‘lmaydigan ne’matlari ichidagi eng ulug‘laridandir. U dunyo hayotining ziynatidir. Shu bilan birga, eng ulug‘ ne’mat bo‘lishi barobarida omonat hamdur. Uning qalbi pokiza gavhardur. Bu buyuk ne’matga sazovor bo‘lgan ota-onalar buning qadriga yetmoqlari, shukrlar aytib, farzand oldidagi ota-onalik burchlarini puxta ado etishlari, ya’ni unga chiroyli ism qo‘yishlari, yaxshi ta’lim- tarbiya berishlari, o‘z millati, Vatani, ota-onasiga munosib farzand, tengdoshlari hurmati va muhabbatini qozongan yetuk bir inson bo‘lishi borasidagi mas’uliyatli vazifalarini chin ixlos va sadoqat bilan ado etishlari lozim bo‘ladi. Shuningdek islom dini ulamolari farzandlarning haq-xuquqlarini ikki qismga bo‘lishgan: Birinchisi-farzand vujudga kelishidan avvalgi holat; ikkinchisi-farzand vujudga kelishidan keyingi holat. Farzand vujudga kelishidan avval ota o‘zining bo‘lg‘usi farzandlariga soliha, diyonatli va ularning haq-huquqlariga rioya qiladigan omonatdor onani, ona ham farzandlariga ularning ta’lim-tarbiyasi va yaxshi insonlar bo‘lib voyaga yetishlariga ahamiyat qiladigan solih otani tanlashi kerak. Muqaddas dinimizda “Farzand haqlari hali tug‘ilmasidan oldin boshlanadi” degan qoida bor. Farzand-inson hayotining mazmuni, nasl-nasabini davom ettiruvchisi, oilaning mustahkam zanjiridur. Yaxshi, solih farzand-ota- onaning baxt-iqboli, ikki dunyo saodatiga yetkazuvchi dilbandi. Farzandlar “Jannat rayhonlari” deb tavsiflanishi bejiz emas. Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydi-ki bu yorug‘ dunyoda hayot bor ekan, oila bor, oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne’mat bor. Farzand bor ekan, odamzod hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.

Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud ahloq” kitobida bunday keltiradi: “Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste’dod va qobilyatli, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin insondagi bu qobilyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan bo‘lur. Qush uyasida ko‘rganini qilar”. Bola dunyo yuzini ko‘rgan vaqtdan boshlab beriladigan tarbiya bosqichida ona farzandini oziqlantirishda ozodalik qoidalariga amal qilishi, bolani poklikka birinchi kundanoq o‘rgatishi lozim. Bola shirinso‘z bo‘lib o‘sishi uchun tili chiqqan ondanoq shirinsuhanlikka o‘rgatib borish zarur. Tili endigina chiqayotgan bola yon-atrofdagilarga taqlid qiladi. Demak, oilada hamma bir-biriga chiroyli va

xushmuomila bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Shundagina tarbiya topayotgan bola ham go‘zal so‘zlashuv odobiga amal qilib ulg‘ayadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni (2019 yil dekabrь) // https://www.lex.uz/acts/16188.
2. “O’zbekiston Respublikasining xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish” Kontseptsiyasi (2019 yil 29 aprelь) // https://lex.uz/docs/ 4312785.
3. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. – T.: O’zbekiston, 2017. – 486-b.
4. Saparov B.B. Milliy g’oya va milliy o’zlikni anglash aloqadorligi // http://tsue.uz/wp-content/uploads/2019/10/68.

## TA'LIM MUASSASALARINING FAOLIYAT TIZIMINI INFORMATIZATSIYALASH

**E.Kazbekova**
**Ajiniyoz nomidagi NDPI,**
**Aniq va tabiiy fanlarni masofadan o‘qitish kafedrasi assistenti**

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanayotgan quyidagi yo‘nalishlarini alohida qayd etish mumkin:

1. O‘quv maqsadlaridagi dasturiy vositalarning imkoniyatlaridan foydalanish.

Bu o‘qitish vositasi, o‘rganish obyekti va axborotlarni qayta ishlash vositasi sifatida xizmat qiladi.

2. O‘qitish-metodik imkoniyatlar yaratishda texnologiyalardan foydalanish.

Bu o‘quv-ko‘rgazmali vositalar va kompyuter vositalari imkoniyatlarini birlashtirish orqali o‘quvchilarga o‘rganilayotgan jarayon haqida ma'lumotlarni yig‘ish, saqlash, jarayonlarning qonuniyatlari va mohiyatini ochib berishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan o‘qitish individual va guruhda eksperiment faoliyatini tashkil etish uchun qulaylik yaratadi, bu esa o‘quvchilarni individual rivojlantirish va erkin bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

3. Multimedia dasturlarini yaratishda texnologiyalarni integratsiyalash.

Kompyuterlar va audio-video axborotlarni uzatish vositalarini birlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bunday tizimlar axborotning turli shakllarini

(matn, grafika, ovoz) birlashtirib, foydalanuvchi bilan interaktiv aloqa o‘rnatadi. Multimedia dasturlaridan foydalanish ta'lim metodlari va shakllarini qo‘llashni ta'minlaydi, axborotni qabul qilish darajasini oshiradi.

4. Sun'iy intellekt dasturlaridan foydalanish.

Intellektual o‘qitish dasturlarini yaratishda ushbu vositalardan foydalanish mustaqil o‘quvjarayonlarini tashkil etishga, bilimlarni erkin o‘zlashtirishga va o‘quv faoliyatini intellektual rivojlantirishga imkon beradi. Bu o‘quvchilar shaxsini rivojlantirish jarayonini tezlashtiradi.

5. Global va lokal kompyuter tarmoqlari orqali axborot almashish vositalaridan foydalanish.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining sinxron va asinxron usullar bilan tezlik bilan tarqalishiga, talabalarning intellektual rivojlanishiga yordam beradi.

6. Axborot almashishning yangi texnologiyasi – “Virtual haqiqat”.

Real vaqt rejimida stereoskopik tasvirlash dasturlari yordamida stereometriya, chizmachilik va muhandislik grafikasi kabi fanlarni o‘qitishda foydalanish mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshiradi[1].

Zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo‘llash quyidagilarga yordam beradi:

-o‘quvchilarga kasbiy bilimlarni egallash imkoniyatini yaratadi;

-o‘rganilayotgan hodisa ham jarayonlarni modellashtirish orqali fan yo‘nalishini chuqur o‘rganilishiga;

- o’qish qobiliyatining turlicha shakllanishi tufayli o’quvchilarning mustaqilo’rganish qobiliyatining kengayishi;

-interaktiv aloqa imkoniyatlarini qo'llash orqali o'qish jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirishga;

- sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda talabaningo'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasini egallashiga;

- xabardorlik jamiyatia’zosi sifatida unda xabar madaniyatining rivojlanishiga;

- o‘rganilayotgan jarayon ham hodisalar kompyuter texnalogiyalari qurulmalarinda ko‘rsatish , o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishni oshirish va tez ishlashga harakat qilishi bilan ahmiyatli[2].

Pedagogik ta’limda informatsion texnalogiyalar jamiyatning zamonga munosib zarurligini ko‘rsatib, u shaxsning intellektual rivojlanishini jadallashtirishi, ta’lim maqsadlariga erishishni taminlashga yo‘naltirilgan pedagogik tasirga ega bo‘lib, shaxsning intellektual potensiyalarini ko‘tarish va rivojlantirishni o‘zining asosiy maqsadi qilib qo‘ygan. Bu maqsadda, zamonaviy axborot texnalogiyalarining imkoniyatlarini qo‘llash orqali natijaga erishish mumkin.

Zamonaviy axborot texnalogiyalarini pedagogik ta’lim jarayoninda qo‘llash o‘quvchi shaxsining :

- fikrlash;
- optimal qaror qabul qilish salohiyatin;
- kommunuaktiv qobilyatin ;
- estetikalik tarbiyasin;
- kasplik bilim ham ko‘nikmalarin;
- xabar madaniyatining rivojlantirishni taminlaydi.

Zamonaviy axborot texnalogiyalari, ta’lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarin jadallashtiradi. Bunda xabar texnalogiyalaridan foydalanish asosida, ta’lim jarayonining sifati va natijaligining ortishi, o‘quvchilarning bilish jarayoning intensivlashishi, fanlar aro bog’likligining taranglashishi kuzatiladi.

Bizning fikrimizcha, ta’limni informatizasiyalash deganda ta’lim tarbiyaning psixologiyalik-pedagogik maqsadlarin amalga oshirishda zamonaviy axborot texnalogiyalaridan foydalanish, ta’limda elektron axborot ta’lim resuslarin yaratish, kompyuter texnalogiyalarin qo‘llash amaliyoti va metadologiyasi bilan ta’minlash nazarda tutiladi.

## Adabiyotlar

1. Mamarajabov M.E. Raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish. Diss.://T.:2023

2. Олимов Қ.Т. Махсус фанлардан ўқув адабиётлари янги авлодини яратишнинг назарий–услубий асослари. Пед. фанлари доктори ил. дар. олиш учун ёзил. диссер. автореферати. –Т.: ЎМКҲТТКМОУҚТИ. 2005. –44 б.

# XALQ PEDAGOGIKASI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DRAMATIK SAHNALASHTIRISH IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH

**O. Payzullayeva - Nukus Davlat pedagogika instituti**
**Ellikqal`a pedagogika fakulteti, Maktabgacha ta`lim yo`nalishi talabasi**

Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimi bolalarni nafaqat bilimli, balki mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondashuvga ega, tashabbuskor va madaniyatli shaxs sifatida tarbiyalashni maqsad qilgan. Bu yo‘lda dramatik sahnalashtirish muhim vositalardan biridir. Ayniqsa, xalq urf-odatlari asosida tayyorlangan sahna ko‘rinishlari orqali bola milliy qadriyatlarni anglaydi, o‘zini obrazlarda tasavvur qiladi va ijodiy faoliyatga jalb etiladi. Bunday jarayon bolaning ruhiy, aqliy va estetik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

1. Dramatik sahnalashtirishning mazmuni va vazifalari

Dramatik sahnalashtirish — bu bolalarning turli hayotiy vaziyatlarni obrazlar orqali ifodalashi, o‘z his-tuyg‘ularini erkin namoyon qilishi, muloqot va hamkorlikka kirishishidir. Ushbu faoliyat bolalarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantiradi:

• Ijodiy fikrlash — bolaning yangi g‘oyalar yaratish, tasavvur qilish va ularni sahnada ifodalash qobiliyati rivojlanadi;

• Sahnadagi nutq — bola so‘z boyligini oshiradi, to‘g‘ri talaffuz va ifodali nutqni o‘zlashtiradi;

• Jamoada ishlash — bolalar o‘zaro fikr almashadilar, harakatlarini muvofiqlashtiradilar;

• Hissiy ifoda — obraz orqali o‘z tuyg‘ularini bildirishga o‘rganadi.

Xalq urf-odatlariga tayangan holda tashkil etilgan sahnalashtirish esa bu jarayonni yanada mazmunli qiladi. Masalan, “Sumalak damlash”, “Toy marosimi”, “Navro‘z sayli” kabi an’anaviy ko‘rinishlar bolalarning milliy ongini, madaniy xotirasini boyitadi. Bu esa o‘z navbatida o‘zlikni anglash va qadriyatlarni e’zozlashga xizmat qiladi.

2. Ijodkorlikni rivojlantirish mexanizmlari

Ijodkorlik — bu bolaning yangi, noodatiy g‘oyalarni ilgari surish, tasavvurni amaliy harakatga aylantirish qobiliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bu qobiliyat quyidagi usullar orqali rivojlantiriladi:

• Rolga kirish — bola o‘zini boshqa shaxs yoki predmet sifatida tasavvur qiladi va uning harakatlarini takrorlaydi;

• Dialoglar tuzish — bola mustaqil ravishda gap tuzadi, savol-javoblar orqali muloqotni rivojlantiradi;

• Monologlar — bolaga shaxsiy nutq bilan chiqish qilish imkoniyati beriladi;

• Tuyg‘ularni ifodalash — qahramonning kayfiyati orqali o‘z ichki holatini ifodalaydi;

• Obrazli fikrlash — real hayotdagi narsalarni ramziy ko‘rinishda tasvirlashga o‘rganadi.

Masalan, “Men nonman” deb boshlanadigan kichik monologda bola nonning hayotiy yo‘lini obrazli tarzda ifodalaydi. Bu nafaqat nutqni, balki mantiqiy va obrazli tafakkurni ham rivojlantiradi.

3. Tarbiyaviy va estetik ahamiyati

Dramatik faoliyat bolalarni milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularni hurmat qilishga o‘rgatish, san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayonda quyidagi natijalarga erishiladi:

• Bolaning estetik didi shakllanadi — ranglar, musiqalar, liboslar orqali go‘zallikni his qilishga o‘rganadi;

• Madaniyatga hurmat hosil qiladi — xalq urf-odatlari orqali tarixiy va madaniy qadriyatlarni qadrlaydi;

• Ijodiy faoliyatga jalb etiladi — bola nafaqat rol ijro etadi, balki dekor yasashda, kiyim tanlashda va musiqa tanlashda ham ishtirok etadi.

Tarbiyachi bu yerda faollik ko‘rsatmasdan, yo‘naltiruvchi rolini bajaradi. Bola erkin fikrlaydi, qaror qabul qiladi va sahnalashtirish jarayonida faol qatnashadi. Mashg‘ulotlarning yakunida esa bolalar o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishlari, tajribalari bilan bo‘lishishlari lozim.

Xulosa. Xalq urf-odatlari asosida tashkil etilgan dramatik sahnalashtirish mashg‘ulotlari maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish, tasavvurini kengaytirish, obrazli fikrlash va nutqiy faollikni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu uslub bolaning nafaqat sahna madaniyatini egallashiga, balki milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat bilan qarashiga, madaniy merosni anglashiga yordam beradi. Bu jarayonning asosiy o‘ziga xosligi shundaki, u bolani faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi, uni ichki dunyosini ochishga undaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimova M.R. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2019.
2. Tuxliyeva R. Bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash // Ma’naviyat jurnali. – 2020. – №4.
3. Hasanova Z.X. Ijodiy faoliyat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
4. Soliyeva Z.M. Xalq og‘zaki ijodi va dramatik mashg‘ulotlar // Pedagogika va psixologiya jurnali. – 2021. – №3.
5. Xudoyberganova G. Maktabgacha ta’limda dramatik sahnalashtirish. – Qarshi: Nasaf, 2022.
6. Toirova D.A. Ertak asosida dramatik sahnalashtirish usullari // Ta’lim va innovatsiya. – 2021. – №2.
7. www.ziyo.uz – Maktabgacha ta’limda kreativ metodlar. (mavjud onlayn resurs).

## БАЛАЛАРДЫҢ СӨЙЛЕЎ ТИЛИН РАЎАЖЛАНДЫРЫЎДА ҚАРАҚАЛПАҚ ХАЛЫҚ ДӨРЕТПЕЛЕРИНИҢ ӘХМИЙЕТИ

**П.Е.Отениязова - НМПИ, Мектепке шекемги тәлим кафедрасы оқытыўшысы**

**Д. Кенесбаева - Мектепке шекемги тәлим бағдары 3А басқыш талабасы**

Балалар фольклоры – халық дөретиўшилигиниң айырықша тараўы болып есапланады. Узақ әсирлер даўамында балалар қосықлары, термелер, аялаўлар, ойын қосықлар ҳ.т.б. үлкен сүйиспеншилик ҳәм даналық пенен балаларға билим берип, оларды өз халқының жоқары мәденияты ҳәм әдеп икрамлылығына тәрбиялап келмекте. «Балалар фольклорының мазмуны тәлим-тәрбиялық әҳмийетке ийе болып, тили жеңил, баланың санасына ылайықластырылған, тез ядлаўға қолайлы болып келеди. Әсиресе балалар фольклоры балалардың минезине, психологиясына, логикасына сай болып,

музыкалық жақтан баланың кеўилин көтерип, дыққатын тартатуғын, ықшам тили менен балалардың тез руўхый азығына айланып кететуғын көркем шығармалардан турады». [3, 130б] Қарақалпақ балалар фольклоры бир нешше фольклоршы илимпазлар тәрепинен үйренилип келинди. Атап айтқанда, балалар әдебияты бойынша изертлеўши илимпаз И.Қурбанбаев «Қарақалпақ балалар әдебияты» мийнетинде балалар қосықларын төрт топарға бөлип қарайды: 1. Бесик жыры; 2. Саналылыққа ҳәм тапқырлыққа тәрбиялаўшы қосықлар; 3. Балалар ойын-саўық қосықлары; 4. Балаларды мийнет етиўге тәрбиялаўшы қосықлар» [4, Б.20]. «Ҳәзирги дәўир қарақалпақ балалар фольклоры» атлы диссертациясында А.Қалендерова балалар фольклорын: 1. Балалар ушын шығарылған үлкенлердиң фольклоры; 2. Балалардың өзлериниң фольклоры; 3. Фольклордың басқа жанрларынан өзлестирип алынған фольклор деп жиклеп, бөлип қарайды. [3, 52б]. Ал Бухара қарақалпақларының балалар фольклорын изертлеўши алым С.Әмирлан болса балалар фольклорын мынадай етип классификациялаған:

1. Аялаў поэзиясы;
2. Балалар турмыс-салт фольклоры;
3. Балалар ойын-саўық фольклоры;
4. Балалар ойын фольклоры. [2, Б.141]. Қарақалпақ фольклорының көп томлығының 99-100 томлары балалар фольклорына арналған болып, 99 –томы «Аялаў поэзиясы», 100-томы «Балалар сөз өнери ҳәм ойынлары» деп аталады. [1, Б. 544]

«Балалар фольклорындағы ҳәр бир шығарма баланың жас өзгешелиги менен байланыслы келеди. Мысалы, «бесик жыры» бала туўылғаннан баслап 2-3 жасқа дейин айтылыўы мүмкин. Бесик жыры бала бесиктен шыққаннан соң айтылмайды. Бала әтираптағы зат ҳәм қубылысларды сезип, ойнап баслағаннан соң қосық ҳәм ойын менен байланыслы фольклор басланады. Сол себепли ата-аналардың балалар менен бирге айтатуғын, ойнайтуғын фольклоры пайда болады. Балалар үлкенлерге еликлеп, олардың айтқанларын қайталайды ҳәм

өзинше бир нәрселер ойлап табыўға умтылады. Бул баланың 7-8 жасынан ер жеткенге шекемги дәўирди өз ишине алады» [3, 56б].

Балалар фольклорының қунлылығы соннан ибарат, оның жәрдеминде ересек адам балалар менен аңсат ғана эмоционал байланысты жолға қоя алады. Мысалы:

- Басы қәне, қәне?

- Мине, мине, мине!

- Шашы қәне, қәне?

- Мине, мине, мине! (463)

Айдыр, айдыр, айдырмаш,

Айдырмаш сөзи айнымас,

Айлансын айдай баладан,

Алла-я балам, қолыңды аш,

Алласы өзиң жолын аш,

Айлары туўсын оңынан,

Жулдызы туўсын соңынан,

Жоқларын болсын қырсығы,

Жолдан қаш бәле, жолдан қаш! [1, 465]

Мазмуны ҳәм формасы бойынша әпиўайы болған халық аўызеки дөретиўшилигиниң үлгилери сөзлик, мәнилик, сеслик байлықлардың таўсылмас кәнин өзинде жәмлегени бизге белгили. Балалар фольклоры менен жақыннан танысыў балаларды қоршаған әтирапқа, халық даналығына, үрп әдет, дәстүрлерине қызығыўшылықты раўажландырып, оларда эстетикалық талғамды қәлиплестиреди, сондай-ақ оның шахс сыпатында раўажланыўына, сөйлеў тилинин жетилисиўине, әдеп икрамылығының қәлиплесиўине жақыннан жәрдем береди.

Жарқын, оригинал, балаларға формасы ҳәм мазмуны жағынан қолайлы болған балалар қосықлары, сөзлик ойынлары, ядлап алыўға аңсат болып балалар ойынларында кең қолланылады. Сонлықтан да балалар фольклоры балалар тәрбиясында ҳәм оларды рухый раўажландырыўда бийбаҳа қурал екенлигине гуман жоқ. Қарақалпақ халық қосықлары балалардың, сөйлеў тилин раўажландырыўда, сөзлик қорын жаңа эпитетлер, поэтикалық турақлы сөз дизбеклери менен байытыўда үлкен әҳмийетке ийе. Халық қосықларында балаларға түсиниксиз сөзлер ушырасыўына қарамастан, балалар олардың

мазмунына үлкен қызығыўшылық пенен жантасады, текстти тез ядлап алады, олардың мәнисин түсиниўде олардың орнын басыўшы синоним сөзлер таўып алады.

**Әдебиятлар:**

1. Аялаў поэзиясы / Қарақалпақ фольклоры (көп томлық), 99-том. Нөкис. 2015.

2. Әмирлан С. Дәстүрий балалар фольклоры мәселеси Н.Дәўқараев нәзернинде // ӨзРИА ҚҚБ Хабаршысы. – Нөкис, 2016. -№1. – Б.141.

3. А.Календерова. «Ҳәзирги дәўир қарақалпақ балалар фольклоры: Жанр эволюциясы». Филология илимлери бойынша философия докторы (PhD) илимий дәрежесин алыў ушын усынылған диссертация. Нөкис, 2022. Б. – 143.

4. И.Қурбанбаев Қарақалпақ балалар әдебияты. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1988. – Б.20

## ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

**Сапарниязова А.К. – ассистент НГПИ им.Ажинияза факультет Дошкольного образования кафедра Дошкольного образования.**

**Аннотация:** Экологическое воспитание дошкольников представляет собой целенаправленный педагогический процесс формирования у детей 3-7 лет основ экологической культуры, бережного отношения к природе и понимания взаимосвязей в окружающем мире. В работе рассматриваются теоретические основы экологического образования в дошкольном возрасте, анализируются современные методы и формы работы с детьми, направленные на развитие экологического сознания. Особое внимание уделяется возрастным особенностям восприятия природы дошкольниками, роли наблюдений, экспериментирования и практической деятельности в формировании экологических представлений. Исследование показывает, что систематическая работа по экологическому воспитанию в дошкольном учреждении способствует развитию познавательного интереса к природе, формированию эмоционально-ценностного отношения к окружающей среде и основ экологически целесообразного поведения.

**Ключевые слова:** экологическое воспитание, дошкольники, экологическая культура, природа, окружающая среда, экологическое сознание, познавательный интерес, наблюдение, экспериментирование, педагогический процесс, возрастные особенности, экологическое образование, природоохранная деятельность, эмоционально-ценностное отношение

Экологическое воспитание дошкольников представляет собой целенаправленный педагогический процесс формирования у детей 3-7 лет основ экологической культуры, бережного отношения к природе и понимания взаимосвязи человека с окружающей средой.

В дошкольном возрасте закладываются фундаментальные представления ребенка о мире, поэтому экологическое воспитание становится особенно значимым. Дети этого возраста отличаются высокой восприимчивостью, эмоциональностью и склонностью к подражанию, что создает благоприятные условия для формирования экологических знаний и ценностей.

Основными задачами экологического воспитания дошкольников являются развитие познавательного интереса к природе, формирование представлений о живой и неживой природе, воспитание гуманного отношения ко всему живому и понимание необходимости охраны природы. Эффективными методами работы выступают наблюдения в природе, экологические игры, опыты и эксперименты, чтение художественной литературы природоведческого содержания, создание экологических проектов.

Успешность экологического воспитания во многом зависит от создания соответствующей развивающей среды в дошкольном учреждении, включающей уголки природы, экологические тропы, огороды и цветники. Важную роль играет также взаимодействие с семьей и согласованность воспитательных воздействий.

Результатом качественного экологического воспитания становится формирование у дошкольников элементарных экологических знаний, эмоционально-положительного отношения к природе и начальных навыков экологически целесообразного поведения, что создает основу для дальнейшего развития экологической культуры личности.

**Литература**

1. Николаева С.Н. Теория и методика экологического образования дошкольников. – М.: Академия, 2019.

2. Рыжова Н.А. Экологическое образование в детском саду. – М.: Карапуз-Дидактика, 2018.

3. Воронкевич О.А. Добро пожаловать в экологию! Парциальная программа работы по формированию экологической культуры у детей дошкольного возраста. – СПб.: Детство-Пресс, 2020.

4. Зебзеева В.А. Развитие элементарных естественно-научных представлений и экологической культуры детей. – М.: Сфера, 2019.

5. Маневцова Л.М. Мир природы и ребенок: методика экологического воспитания дошкольников. – СПб.: Акцидент, 2017.

6. Соломенникова О.А. Экологическое воспитание в детском саду. Программа и методические рекомендации. – М.: Мозаика-Синтез, 2018.
7. Каменева Л.А. Методика ознакомления детей с природой в детском саду. – М.: Просвещение, 2019.
8. Саморукова П.Г. Как знакомить дошкольников с природой. – М.: Просвещение, 2018.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ PEDAGOGIKASI MANBALARIDAN FOYDALANISH

**Z.B. Ozodova - Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal'a pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi**

**Annottatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq pedagogikasi manbalaridan foydalanib, nutqini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning til nutqini rivojlantirishda xalq pedagogikasining ahamiyati, uning metod va vositalarini pedagogik amaliyotda qo'llanilishi haqida aytilgan. Xalq pedagogikasining manbalari – xalq ertaklari, maqollar, tez aytishlar, qissalar, afsonalar, naql va didaktik asarlar, bolalarning til nutqini rivojlantirishda muhim vosita ekanligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** xalq pedagogikasi, xalq pedagogikasi manbalari, nutqni rivojlantirish, maktabgacha ta'lim, xalq o'yinlari, xalq ertaklari, maqollar, topishmoqlar.

Xalq pedagogikasi – xalqning tarixiy tajribasiga asoslangan ta'lim va tarbiya tizimi bo'lib, bolalarni har tomonlama rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun xalq pedagogikasi manbalari, o'yinlar, ertaklar, hikoyalar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar ko'rinishida berilib, ularning nutqiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Bu yondashuv bolalarning nafaqat nutqiy rivojlanishi, ijodiy fikrlashi, tasavvurlarini shakllanishi hamda madaniy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishini ham shakllantiradi.

Xalq pedagogikasi manbalari:

1. Xalq og'zaki ijodi.
2. Milliy urf-odatlar, an'analar.
3. Xalq raqs san'ati.
4. Diniy ta'limotlar.
5. Tasviriy san'at.

6. Milliy me’morchilik.

7. Xalq amaliy san’ati.

8. Xalq hunarmandchiligi.

9. Milliy musiqa san’ati.

10. Xalq o’yinlari va o’yinchoqlar.

11. O’rta Osiyo va o’zbek xalqi mutafakkirlari ijodi.

Xalq pedagogikasi manbalarning ahamiyati.

Xalq pedagogikasi bolalarning har tomonlama ma’naviy, axloqiy, ihodiy va nutqiy rivojlanishida quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

-vatanga sadoqat – xalq ertaklari, dostonlari va maqollari orqali bolalarda yurtga muhabbat uyg’otadi;

-odob – axloq qoidalariga amal qilish – salomlashish mehmondo’stlik mehr-shafqat kabi fazilatlar xalq udumlari orqali singdiriladi;

-og’zaki ijodga qiziqish – bolalar qo’shiq aytish, ertak to’qish, topishmoq yechish orqali ijodiy fikrlashga o’rganadilar.

Bolalarning nutqiy rivojlanishini ta’minlash usullari.

1. O’yin faoliyati.

Xalq o’yinlari bolalarda nutqiy rivojlanishini ta’minlashning eng samarali usullaridan biridir. Masalan, “Oq terakmi, ko’k terak?” yoki biron-bir mavzuga doir “Kim ko’p so’z aytadi?” kabi xalq o’yinlari kiradi. O’yinlarda nutq o’stirish mashg’ulotlari o’tkazilganida bolalarning faolligi, fikrlarini dadil tarzda bayon qilgani, bu jarayonda zerikish bilmaganligi, lug’atida yangi ma’lumotlarni o’zlashtirishga ishtiyoqi ortib boradi.

2. Ertak va dostonlardan foydalanish.

Ertak – bu xalq og’zaki ijodidan bo’lib, u asosan, xalqni hayotidan so’zlab keladi.Sog’lom bolani shakllantirish nafaqat fikran sog’lomlik balki jismonan sog’lomlik bir maqsadga qaratilgan. Xalq og’zaki ijodiga quyidagi ertaklarni misol qilishimiz mumkin: Bular, “Zumrad va Qimmat”, “Ur to’qmoq”, “Sehrli sholg’om” kabi ertaklari kiradi.

3. Maqol va topishmoqlarni qo’llash.

Topishmoqlar xalq og’zaki ijodining eng qadimgi va eng ommaviy janri. Topishmoqda yechilish mumkin bo’lgan so’roq majoziy ma’noda ifodalanib uning ma’nosi yashirin bo’ladi.Odamlar, ayniqsa, bolalar topishmoqda yashiringan narsani topishga, jumboqni bilishga qiziqadilar. Topishmoqlar ba’zan nasriy, ko’pincha she’riy shaklda bo’ladi. Topishmoqlar bolalarning so’z boyligini oshirish hayot va uning hodisalari haqidagi tushunchalari va tasavvurlarini, idroki va mulohaza qobiliyatlarini kengaytirishda tarbiya vositasi hisoblanadi. Topishmoq xalq ichida topmacha, jumboq va matal nomlari bilan ham yuritilgan.

4. Tez aytishni qo’llash.

Xalq og’zaki ijodidan biri bo’lmish, tez aytish ayrim, nutq tovushlarining ko’p qaytarilishi hamda tovushlarning so’z va iboralar tarkibida talaffuzni qiyinlashtiradigan darajada murakkab joylashishga asoslanadi.

5. Hikoyalardan foydalanish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun an’anaviy ta’limiy faoliyat tarbiyachining hikoya qilib berishi, o’qib berishi va takrorlatgan holda yod oldirishini tan oladi. Hikoyani o’qib berish jarayoni nihoyasiga yetgach, bolalardan qayta hikoya qilib berish emas, shu hikoya asosidagi aralash kartinkalarni doskaga o’z o’rniga ko’ra terib chiqish talab etadigan “Rasmlarning o’rnini top” o’yini bolalarni nutqiy vaziyatga undaydi. Ular voqealar ketma-ketligiga ko’ra rasmlarni izlab toppish jarayonida nafaqat nutqi, balki kuzatuvchanligi, mantiqiy fikrlashi rivojlanadi.

Innovatsion yondashuvlarning afzalliklari.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida har kuni ertak aytish mashg’ulotlarini tashkil etish lozim;

Bu orqali bolalarning fikrlash qobiliyati, tasavvuri kengayadi va shu bilan birga ravon nutqi ham rivojlanib boradi.

Rasm asosida ertak to’qish yoki matalni izohlash faoliyatlarini yo’lga qo’yish;

Ota-onalar bilan hamkorlikda xalq og’zaki ijodi namunalaridan foydalanish bo’yicha treninglar o’tkazish.

Bolalar bilan birgalikda xalq o’yinida foydalangan holda “Oq terakmi, ko’k terak?” o’yinini o’ynang va o’yinni davom ettirish uchun yangi qoidalarni o’ylab

topishni taklif qiling. Keyin bolalarda o’yinning yangi talqinida sahnalashtirib berishini so’rang. Bu ularning ijodkorligini va qobiliyatlarini ochib berishga katta hissa qo’shadi.

Xalq pedagogikasi manbalarining bolalar rivojlanishi uchun samarali qo’llashda ta’lim jarayonini mazmunli va qiziqarli tashkil etish muhimdir.

Quyida bu borada amalga oshirilishi mumkin bo’lgan yondashuvlar keltirilgan:

1. Xalq o’yinlarining didaktik shaklga aylantirilishi.

Xalq o’yinlari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim berish jarayonida turli fanlar bilan bog’langan holda qo’llanilishi mumkin. Masalan: Tasviriy san’at mashg’ulotlarida “Rasmlarning o’rnini top” o’yini diqqatni jamlashga hamda mayda motorikasini rivojlantirish bilan bir qatorda ertaklar yoki hikoyalar tuzib aytishlari maqsadga muvofiq bo’ladi.

Matematika mashg’ulotlarida “Raqamni top” o’yini. Bunda tarbiyachi raqamni aytadi (masalan: “5”) bola esa stolda shu raqamni topib ko’rsatadi. Bolalar bu o’yinda raqamlarning ketma-ketligini o’rganadi, sanashni va ko’rinishini eslab qoladi.

2. Ertakning interaktiv talqinlari.

Xalq pedagogikasi manbalaridan foydalangan holda tarbiyachi tomonidan ertaklar o’qib beriladi. Masalan: “Ur to’qmoq” ertagini olsak, tarbiyachi:” Aziz bolajonlar bugun sizlar bilan bir ajoyib ertakni o’qiymiz, sahnalashtiramiz va ijro etamiz. Bolajonlar ertagimizning nomi “Ur to’qmoq” – deb tarbiyachi ertakni oxirigacha o’qib beradi.

Keyin mustahkamlash jarayonida bolalar bilan “Topishmoqli daqiqa” o’tkaziladi.Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar ongini o’stirishda topishmoqning yordami katta. U yordamida:

- topqirligi’ tezligi rivojlanadi;
- aqliy faoliyati rag’batlantiriladi;
- fikrlash, nutq, xotira, diqqat tasavvurlari rivojlanadi;
- atrofdagi dunyo haqidagi bilim va g’oyalar zaxirasi kengayadi.

Bu, ayniqsa, umumiy nutqi kam rivojlangan bolalar uchun to’g’ri keladi, chunki bu holda topishmoq bolaning to’g’ri nutqini tuzatish va shakllantirish uchun muhim amaliy materialga aylanadi.

Ertakdagi tasviriy vositalarni tahlil qilish va qahramonlarni xulq-atvorni baholash maqsadida savol-javob o’tkaziladi.

Masalan:

1. Chol laylak bilan qanday tanishib qoldi?

2. Laylak cholga qanday va’da berdi?

3. Bolalar cholni qanday aldadi?

4. Chol ayyor bolalarni qanday jazoladi?

Savollarga bolalar javob beradilar va rag’batlantiriladi.

3. Maqollar asosida faoliyatlarni tashkil etish.

Xalq maqollari bolalarga qisqa va chuqur mazmunli saboqlar beradi.

Maqolning mazmuniga xos bo’lgan voqeani sahnalashtirish.

Maqolga asoslangan rasm chizish yoki hikoya qilib berish.

4. Topishmoqlar orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.

Topishmoqni topish savolga javob berishni anglatadi, ya’ni bola murakkab operatsiyalarni bajaradi. Topishmoq bolalardagi kamchiliklarni tuzatish, rivojlantirish imkoniyatlari xilma-xildir. Ulardan eng muhimlari: topqirlik, zukkolik, idrok tezligini tarbiyalash; aqliy faoliyatini rag’batlantirish; fikrlash, nutq, xotira, e’tibor, tasavvurni rivojlantirish; dunyo haqidagi bilim va g’oyalar zaxirasini kengaytirish; hissiy rivojlanish. Bu, ayniqsa, nutqning umumiy rivojlanishi buzilgan bolalarga xosdir, chunki bu holda topishmoq bolalarga to’g’ri nutqni tuzatish va shakllantirish uchun muhim amaliy manbaga aylanadi.

Xulosa qilib aytamizki, xalq o’yinlari, ertaklar, dostonlar, hikoyalar, topishmoqlar, maqollar, tez aytishlar bolalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda, lug’at boyligini oshirishda, fikr doirasini kengaytirishda, aql-idrok rivojlantirishda, kuzatuvchanlik hislarini hamda nafosat tuyg’ularini o’stirishda katta ahamiyatga ega. Ular o’ziga xos mazmunini va maqsadini ifodalash shakli bilan bolalarni tafakkurining rivojlanishida, diqqatini jamlashga, ziyraklikka o’rgatadi va ularning qobiliyatlarini o’stiradi.

# РАЗВИТИЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ

**М.Б. Сапаева - студентка 3 курса по направлению «Преподование филологии и языков (русский язык)», Ташкентского университета гуманитарных наук**

**Аннотация:** Инклюзивное воспитание направлено на обеспечение равных прав и возможностей для всех детей, включая тех, кто имеет особенности развития или здоровья. В работе раскрываются ключевые принципы инклюзии, рассматриваются современные методы и стратегии, позволяющие интегрировать детей с особыми потребностями в общий образовательный процесс. Отмечается значимость создания комфортной и поддерживающей среды, а также необходимость повышения квалификации педагогов. Инклюзивное воспитание способствует формированию общества, где ценится разнообразие и каждый ребёнок получает шанс на полноценное развитие.

**Ключевые слова:** инклюзивное воспитание, инклюзивное образование, дети с особыми образовательными потребностями, адаптивное обучение, равные возможности, педагогическая поддержка, социальная интеграция, доступная среда, индивидуальный подход, толерантность, инклюзия, развитие ребёнка, образовательные программы, подготовка педагогов, социальное включение.

Инклюзивное воспитание представляет собой одно из ключевых направлений развития современной системы образования, которое ориентировано на обеспечение равного доступа к качественному образованию для всех детей — независимо от их физических, интеллектуальных, сенсорных, эмоциональных или социальных особенностей. Это направление отражает не только педагогическую, но и социальную и этическую установку общества на признание ценности каждого человека, его уникальности и права на полноценное участие в жизни образовательного учреждения.Основой инклюзивного подхода служат принципы гуманизма, уважения к разнообразию, индивидуализации образовательного процесса и оказания системной поддержки каждому ребёнку в соответствии с его потребностями и возможностями. Инклюзивное воспитание ориентировано на построение образовательной среды, в которой все дети учатся вместе, получают равный доступ к знаниям, при этом образовательные программы, методы преподавания и формы взаимодействия адаптируются с учётом индивидуальных особенностей обучающихся.

Успешная реализация инклюзивного воспитания требует комплексного и междисциплинарного подхода, включающего:

• Разработку и внедрение адаптированных и дифференцированных образовательных программ, учитывающих разные уровни и темпы усвоения материала;

• Подготовку квалифицированных специалистов — учителей, дефектологов, логопедов, тьюторов и психологов, обладающих знаниями и компетенциями в области инклюзивной педагогики;

• Создание доступной материально-технической базы, включая безбарьерную среду, специальные учебные пособия, технологии альтернативной и дополнительной коммуникации, а также инклюзивные цифровые ресурсы;

• Формирование инклюзивной культуры в обществе, где разнообразие воспринимается не как препятствие, а как ресурс, а дети с особыми образовательными потребностями рассматриваются как полноправные участники образовательного и общественного процесса.

Инклюзивное воспитание способствует не только обучению, но и социальной интеграции детей, развитию у них чувства принадлежности, уверенности в себе, навыков сотрудничества и эмпатии. Оно учит всех участников образовательного процесса — как детей, так и взрослых — толерантности, принятию и взаимопомощи. В долгосрочной перспективе инклюзия закладывает основы для построения более справедливого, устойчивого и солидарного общества, где каждый человек чувствует свою ценность и имеет возможность реализовать свой потенциал.

**Использованная литература:**

1., К. М. Инклюзивное образование в Узбекистане: текущие вызовы и потенциальные решения // *Acta Education*. 2024. №1. С. 35–42.

2. Ахмедова, Н., Рахманкулова, Н. Инклюзивное образование в Узбекистане // *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*. 2024. Т. 2, №1. С. 181–185.

3. Назарова, Н. М. *Инклюзивное образование: от политики к практике*. — М.: Просвещение, 2018. — 176 с. [Назарова, Инклюзивное образование]

# TÁRBIYASHINIŃ DÓRETIWSHILIGI HÁM QARIM-QATNAS MÁDENIYATI

**A.T.Saparov - úlken oqıtıwshısı**
**NMPI «Mektepke shekemgi tárbiya hám defektologiya» kafedrası**

Tárbiyashı pedagogikalıq jumıs alıp barıwda jetekshi shaxs bolıp esaplanadı. Oǵan jas áwladtı tárbiyalaw waziypası tapsırılǵan. Sonıń ushın hám tárbiyashı shaxsına, aqlıy qásiyetleri, ádep-ikramlıq sıpatları hámde mektepke shekemgi jastaǵı balalar menen qarım-qatnasta ayrıqsha talaplar qoyıladı. Tárbiyashı ómirge dáslepki qádemlerin qoyıp atırǵan, barkamal shaxs sıpatında qáliplesken jas áwladlardı tárbiyalaydı, olarda turmıs ushın zárur bolǵan birinshi kónlikpe hám tájriybelerdi qáliplestiredi, hádiyse-waqiyalardı turlishe qabıl qılıwdı uyretedi, olar menen qarım-qatnasta boladı.

Ózbekistan Respublikasınıń mektepke shekemgi jastaǵı balalardı rawajlandırıw barısındaǵı Mámleket talaplarına muwapıq 2018-jılda islep shıǵılǵan hám normativ-huquqiy hujjet esaplanǵan mektepke shekemgi tálim mákemesiniń «Dáslepki qádem» mámleketlik oqıw dásturinde mektepke shekemgi tálim mákemesiniń maqset hám waziypaları, oqıw-tárbiyalıq jumıslarınıń tiykarǵı ideyaları sawlelengen, sonday-aq balanıń tálimniń keyingi basqıshına ótiwdegi tiykarǵı kompitentsiyaları belgilengen.

«Dáslepki qádem» mámleketlik oqıw dásturinde balalardıń «dóretiwshilik» tarawındaǵı oqıw-tárbiyalıq iskerligi juwmaqlanǵannan soń 6-7 jaslı bala: iskusstva hám mádeniyatqa qızıǵıwshılıǵın kórsetiwi; milliy urp-ádetlerdi qádirlep, olardı kundelikli turmıstıń bir bólimi sıpatında qarap ósiwi; alınǵan bilim hám kónlikpelerdi turli turmıslıq sitiuatsiyalarda óz dóretiwshilik rejelerin duziw hám qollana biliwi; insannıń dunyanı ózgertiwdegi shólkemlestiriwshilik rolin tusiniw sıyaqlı kompitentsiyalardı iyelewi kórsetip berilgen. Bunday kompitentsiyalardı 6-7 jaslı balalardıń iyelewi kun sayın rawajlanıp atırǵan dáwir talabı esaplanadı. Balalarda bunday kompitentsiyalardı qáliplestiriw álbette tárbiyashılardan dáslep, mámleketimizdiń mektepke shekemgi jastaǵı balalardı tárbiyalawǵa qoyǵan talaplardı siyasiy, ruwxıy tárepten tuwrı qabıl qılıw hám bar bilimi hám sheberligin balalardıń keleshegi ushın baǵıshlawǵa tayar bolıwı, balalarǵa bolǵan kushli mehr-

muhabbat, hár bir balanıń keleshegi haqqında oylaw sıyaqlı qasiyetlerge iye bolıwı kerek.

Balalardıń tvorchestvalıq rawajlanıwında tárbiyashınıń dóretiwshiligi ayrıqsha rol oynaydı. Mektepke shekemgi jastaǵı balalardı tárbiyalawǵa baylanıslı mámleketlik talaplarında turli jas toparlar tárbiyalanıwshılarınıń dóretiwshiligin bahalawshı kreteriyalar keltirilgen. Atap aytqanda, bala oylaw qábiletin rawajlandırıwshı ortalıq jaratıw; balanıń muzıkalıq qábiletin rawajlandırıwshı balalar qosıqların esittiriw; balanı awqat tayarlawǵa; bólmeni bayramǵa tayarlaw barısına qamtıw; dukan hám salonlarda kompozitsiya jaratqan jumısshılar háreketin guzetiw sıyaqlı tapsırmalar kirgizilgen. Bul islerdi alıp barıw ushın tárbiyashıdan ulken kush hám talapshańlıq talap etiledi.

Mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemesinde bala qarım-qatnas ádebin tiykarınan tárbiyashı mısalında ańlap jetedi. Tárbiyashınıń qarım-qatnas munasebetleri insaniylıq hám ixtiyariy printsiplerge tiykarlanadı. Tárbiyashınıń qarım-qatnası ádetde, eki turli bolıp, birnshisi-rásmiy, ekinshisi-rásmiy emes qarım-qatnas. Tárbiyashınıń rásmiy qarım-qatnasında Ózbekistan Respublikasınıń nızamları, metkepke shekemgi bilimlendiriw sistimasına tiyisli normativ hujjetlerge tiykarlanadı. Rásmiy emes qarım-qatnasqa pedagogik etikanıń nızamlıqlarına tiykarlanadı.

Mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemesi tárbiyashısınıń qarım-qatnas ádebi psixologik nızamlar, ádep-ikramlıq normalar, qaǵiyda talapları, pedagoglar kollektivi pikiri tiykarında ámelge asırıladı. Máleketimizdiń ertengi kuni bolǵan kishkene balalardı tárbiyalaw hárbirimizdiń tiykarǵı waziypamız bolıwı kerek. Hár bir tárbiyashınıń is-háreketi, minez-qulqı, qarım-qatnası pedagoglar kollektiviniń maqset talaplarına say bolıwı kerek.

Joqarıda kórsetilgen waziypalardı islew mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemesi tárbiyashısınan kónlikpe, tájriybe, qábilet, kreativ hám kommunikativ kompitentlikni talap etedi. Tárbiyashınıń kónlikpeleri onıń kásiplik jumıs barısında toplanǵan tájriybe hám bilimler tiykarında islenetuǵın jumıstıń quramalı usılı bolıp esaplanadı. Qábilet bolsa shaxstıń individual-psixologik ózgesheligi bolıp,

tárbiyashılıq iskerligi tárepinen ámelge asırıw subektiv shárt-shárıyatın sawlelendiriwshi individual psixik sıpatlar toplamı bolıp, zárur bolǵan bilim, tájriybe hám kónlikpelerdi iyelew dinamiksındaǵı parqlardı anıqlaydı.

Kommunikativ kompetentlik – bilimlendiriw barısiniń barlıq qatnasıwshıları, sonday-aq talabalar menen doslıq munasebette bolıw, olardı tıńlay biliw, olarǵa unamlı tásir kórsete alıw menen belgilenedi. Kreativ kompetentlik bolsa – pedagogik iskerlikge kritikalıq, unamlı jantasıw, o'ziniń dóretiwshilik tájriybelerine iye ekenligin kórsete alıw qábileti qálipleskenligi menen belgilenedi. Tárbiyashı kreativ shaxs bolıp, dóretiwshiligin kórsetiwshi, máselelerdi sheshiwde standart emes usıllar menen qatnasıwǵa meyil, ózine tán háreketlerdi shólkemlestire alıw, jańalıqlardı turmısqa en jaydırıwǵa, dóretiwshilik islerdi jaratıwǵa qábiletli hám tayar shaxs bolıp esaplanadı.

## QARAQALPAQ XALIQ ERTEKLERI ARQALI MEKTEPKE SHEKEMGI JASTAGI BALALARDI KISHIPEYILLIK, KEMTARLIQQA UYRETIW

**G.B. Djumabayeva – NMPI,** ***Mektepke shekemgi tarbiya ham defektologiya kafedrası assistent-oqıtıwshı***

**U.Bazarbaeva – NMPI, Mektepke shekemgi tálim baǵdarı 1 kurs student**

**Annotasiya:** Bul maqalada mektepke shekemgi jastaǵı balalardı kishipeyillikke, kemtarliqqa tárbiyalawga uyretiwde turmıstagı waqiya xadiseler arqalı, balalar insaniylıq paziyletlerdiń biri bolgan sabırlılıq, shıdamlılıq tarepinen ádep-ikramlılıqqa tarbiyalanıwı haqqında aytıladı.

**Tayanish tusinikler:** maqtanshaq, tishqan, qonaq, kemtarliq, kishipeyillik, watan, bala, tarbiya, ta'lim, sabirliliq, shidamliliq, ádep-ikramlılıq

Bala omir dawamında tarbiyanı shańaraqtan aladı. Daslep shańaraqtan tarbiyalı, olardı hareketleri arqalı ozlestirip baslaydı. Ozlestirilgen hareketlerin sırtqa hamde basqada ortaliqta korsetedi. Sońınnan sırtqı ortalıqtan ham tarbiya alıw prossesi amelge asadı. Na'tijede bala uydegi ham sırtqı ortalıqtagı tarbiyanı birlesken halda, minez-qulıqı arqalı korsetedi. Geybir halatlarda, jaman minezli bolıwıda mumkin.

Soniń uchun balaga shańaraqta yaki mektepke shekemgi bilimlendiriw sholkeminde tarbiya beriwde qatege jol qoymaw kerek. Hazirgi ku'nde tajiriybeli

qaraqalpaq erteklerinen, awizeki doretlerinen, jetip kelgen adebiy miraslardan paydalangan halda tarbiya berip kelinbekte.

Sonimenen aytiw kerek, hazirgi biz ko‘rip chıgatın, ertekler arqalı mektepke shekemgi jastagı balalarga hartarepleme rawajlandırıwga, talim-tarbiya beriwge boladı.

Kemtarliqqa, kishipeyilikke tarbiyalaw haqqında, mına, «Maqtanshaq tıshqan» ertektegi qatarlardan mısal keltiretin bolsaq, tıshqan bir ura tawıp, oniń bir qaptalınan qazıp ózini inine shıǵadi. Uranıń iyesiniń qabı joq pa, bolmasa ózi bir wayımsız adam ba, bilmeymen uradan xabar almadı eken. Tıshqan uranı ózi menshiklep, óz mùlkindey kórip, tewsilmeutugın ǵaziynege iye bolǵanday baylıq sùreberetinligi haqqında, qonaq shaqıradı, basqa tıshqanlardı jıynap, sıylap toyǵızadı. Sıylanǵan tıshqanlar buniń àdebin tutıp hàr sózine "bàliy" dep jıwap beriwi. Bayaǵı tıshqan bolsa, kùta ǵoddaslap, ardaqlap, maqtanadı.

Sońında, bir kuni kóp qonaq shaqırıp, hàmme jıynalǵannan son xizmetkerlerine biyday keltiriwge buyıradı. Uradan biyday tappay keledi, ozi barıp kóredi, uranıń tek ózi bos turganlıgı, bay tıshqan qonaqlarınıń aldında shermende bolganlıgı haqqında aytılgan. Keyingi “Maqtanshaq qasqır” ertektegi mazmun qatarlarınan mısal keltiretin bolsaq, Ol janındaǵı qasqırlardı nesibesinen ayırıp, olarǵa kún bermeytugın bolıptı. Onnan keyin ash qasqır joq waqıtta qasqırlar bir jerge jıynalıp oylasıptı. Qay jerde kórsek te ash qasqırdı «jolbarıs» dep atayıq degen bir pikirge kelipti.

